

QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI IQTISODIYOTI



2022

O‘quv-uslubiy majmua

**“TIQXMMI” MTU huzuridagi
PKQT va UMO tarmoq markazi**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIV - METODIK MARKAZI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIV
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

**“QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI
IQTISODIYOTI”
moduli bo‘yicha
O‘QUV – USLUBIY MAJMU‘A**

Toshkent 2022

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: Sangirova U.R. – TIQXMMI MTU, “Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri

Namozov J.A. – TIQXMMI MTU, “Iqtisodiyot” kafedrasini assistenti

Taqrizchi: doktor N.Janibekov IAMO Germaniya, i.f.d.

O‘quv - uslubiy majmua “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti kengashining 2021 yil 24-dekabrda 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....	13
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	22
IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI	95
V. KEYSLAR VA TEST TOPSHIRIQLARI.....	131
VI. GLOSSARIY	140
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	151

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta‘lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta‘lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta‘lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni

rivojlantirishga yoʻnaltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yoʻnalishining oʻziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, koʻnikma, malaka hamda kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Qishloq va suv xoʻjaligi iqtisodiyoti” modulining maqsad va vazifalari:

- Oliy taʼlim muassasalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarning oʻquv-tarbiyaviy jarayonlarini yuksak ilmiy-metodik darajada taʼminlashlari uchun zarur boʻladigan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, oʻquv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini taʼminlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

“Suv xoʻjaligini tashkil etish va boshqarish” yoʻnalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, koʻnikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

mutaxassislik fanlarini oʻqitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini taʼminlash;

maxsus fanlar sohasidagi oʻqitishning innovatsion texnologiyalari va ilgʻor xorijiy tajribalarini oʻzlashtirish;

“Suv xoʻjaligini tashkil etish va boshqarish” yoʻnalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan oʻzaro integrasiyasini taʼminlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Qishloq va suv xo'jaligi iqtisodiyoti” kursini o'zlashtirish jarayonida doirasida:

Tinglovchi:

– Mamlakatning iqtisodiyoti holati va rivojlanishini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkichlar tizimini;

– milliy boylik, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulotni;

– milliy daromad, aholi daromadlari, davlat va xususiy investitsiyalar yigindisi, muomaladagi jami pul miqdori va jami xo'jalik bo'yicha jamlanma, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni;

– o'rtacha ish haqi, inflyasiya darajasi, ishsizlik, bandlik, mehnat unumdorligi singari o'rtacha iqtisodiy ko'rsatkichlarni;

– Raqamli iqtisodiyotning biznes va ijtimoiy sohadagi o'rni va ahamiyatini;

– biznes jarayonlarini raqamlashtirish, biznes modellarini;

– makro hamda tarmoqlar darajasida turli iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qilishning asosiy yondashuvlarini;

– raqamli iqtisodiyotning texnologik, holati, tashkiliy-huquqiy hamda institutsional xususiyatlarini;

– raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini tashkil etishni;

– davlat-xususiy sheriklik shartlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni;

– elektron biznes jarayonlarini samarali tashkil etishni ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

– qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini va boshqarishni tashkil etish;

– qishloq xo'jaligining iqtisodiy mexanizmlarini qo'llashi;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish tizimi faoliyatini tahlil qilish;
- suv xo‘jaligi qurilishi korxonalarida biznes-rejalashtirish va loyihalar ishlab chiqish;
- moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish;
- byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etilishni nazariy va amaliy jihatdan qo‘llash;
- boshqaruv hisobining xorijiy tajribasi va zamonaviy tizimlarini qo‘llash
- moliyaviy hisobot yuzasidan auditorlik hisoboti va xulosasini tayyorlash haqida
- suv xo‘jaligi tashkilotida inson resurslarini boshqarish, tashkiliy madaniyat, etakchilik (liderlik) va boshqaruv uslublarini tanlash;
- suv xo‘jaligi tashkilotida o‘zgarishlarni tushunishi va o‘zgarish konsepsiyasini qo‘llash;
- suv xo‘jaligi korxonalarini faoliyatini tahlil qilish va qurilish mahsulotlari bozori muammolarining asosiy iqtisodiy talablarini ifodalash *ko‘nikmalariga* ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- iqtisodiy jarayonlarni taxlil qilishda iqtisodiy qonunlar, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni) echimlar qabul qilishda ishlata olish;
- suv xo‘jaligi korxonalarini faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish;
- suv xo‘jaligi qurilishida bozor iqtisodiyoti mexanizmlaridan foydalanish;
- iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashda maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro tajribalari qiyosiy tahlil qilish va hamda ta’lim jarayonida qo‘llash;
- buxgalteriya hisobini yuritishda hamda auti o‘tkazishga bosqichlarida maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanishga oid;
- suv xo‘jaligi tashkilotlari va ularning institutsional tahlil qila olish;

– suv xo‘jaligida muammolarni echishda menejment imkoniyatlaridan foydalanish;

– O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini bilish va tarmoq darajadagi vaziyatlarda echimlar qabul qilish **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

– jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil etish va olingan xulosalarini keng jamoatchilikga tushuntirib berish hamda suv xo‘jaligi iqtisodiyoti sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarni o‘qitish jarayoniga nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta’minlash;

– suv xo‘jaligi qurilishi tashkiloti (korxonasi) biznes-rejasini ishlab chiqish;

– optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

– suv xo‘jaligi qurilishi loyihalarini ishlab chiqish va qo‘llash;

– hisob va audit ma’lumotlari asosida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar istiqbolini belgilovchi optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

– hisob va auditni tashkil qilish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlardagi tartib va qoidalarni amaliyotga joriy qilish;

– respublikada va xorijda qishloq va suv xo‘jaligi boshqaruvi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish va ularni tahlil etish;

– suv xo‘jaligini boshqarish sohasida mavjud bo‘lgan dolzarb amaliy masalalarni echish uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash;

– suv xo‘jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish, korxonalarni innovatsion va strategik rivojlantirish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Suv xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” kursi ma’ruza, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

-ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va multimedia texnologiyalaridan;

-o‘tkaziladigan amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarda laboratoriya jihozlaridan texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Qishloq va suv xo‘jaligi iqtisodiyoti” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Amaliy ekonometrika”, “Suv xo‘jaligida buxgalteriya hisobi va audit” va “Suv xo‘jaligi menejmenti” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarni qishloq va suv xo‘jaligi iqtisodiyoti bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat				Ko‘chma mashhulot
		Hammasi	Auditoriya o‘quv yuklamasi			
			jami	jumladan		
				Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	
	Makroiqtisodiyot. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari.	6	6	4	2	

Kamyob resurslar sharoitida mavjud resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlari. Er va suv resurslaridan samarali foydalanish holati va undagi mavjud muammolar.	6	6	2	4	
Raqamli iqtisodiyotning biznes va ijtimoiy sohadagi o‘rni va ahamiyati.	10	6	2	4	4
Jami:	22	18	8	10	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu. Makroiqtisodiyot. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari (4 soat)

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularni hisoblash. Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi. Ishsizlik. Inflyasiya va aksinflayasiya siyosati. YAlpi talab – yalpi taklif modeli. Iste’mol, jamg‘arish va investitsiya funksiyalari. Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat. Davlat byudjeti. Soliqlar.

2-Mavzu. Kamyob resurslar sharoitida mavjud resurslardan samarali foydalanish yo‘nalishlari. Er va suv resurslaridan samarali foydalanish holati va undagi mavjud muammolar (2 soat)

Kamyob resurslar sharoitida mavjud resurslardan samarali foydalanish, ularni barqaror boshqarish. Ekologik-iqtisodiy xo‘jalik yuritish uslublari va boshqaruv tizimlari.

3-Mavzu. Raqamli iqtisodiyotning biznes va ijtimoiy sohadagi o‘rni va ahamiyati (2 soat)

Raqamli iqtisodiyot: elektron biznesni boshqarish asoslari. Elektron savdo (internet savdo) ning rivojlanish xususiyatlari. Iqtisodiyotni raqamlashtirish ko‘rsatkichlari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-Amaliy mashg‘ulot. Makroiqtisodiyot. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari (2 soat)

Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko‘rsatkichlar va ular o‘rtasidagi nisbat. Makroiqtisodiy ayniyatlar.

2-Amaliy mashg‘ulot. Er va suv resurslaridan samarali foydalanish holati va undagi mavjud muammolar (4 soat)

Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash va barqaror boshqarishning nazariy asoslari. Er va suv resurslaridan samarali foydalanish holati va undagi mavjud muammolar. Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari va yo‘nalishlari.

3-Amaliy mashg‘ulot. Raqamli iqtisodiyotning biznes va ijtimoiy sohadagi o‘rni va ahamiyati (4 soat)

Raqamli iqtisodiyotda biznesni boshqarishning xususiyatlari. Mobil texnologiyalar. Biznesda fikrlash dizayni. Elektron hukumat va xizmatlar sohasini raqamlashtirish xususiyatlari.

4- Ko‘chma amaliy mashg‘ulot. Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlari iqtisodiyotini taxlil qilish. (4 soat)

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish va sotish tizimlarini taxlil qilish. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rejalashtirish. Qishloq va suv xo‘jaligining moddiy–texnika vositalari va ulardan foydalanish taxlili.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (koʻrilayotgan masala yoki muammolar boʻyicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (masala yoki muammolar echimi boʻyicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish);

- koʻchma mashgʻulotlar (traktor va dvigatellarni sinovdan oʻtkazish boʻyicha bilimlarni mustahkamlash, mavjud jihozlar bilan yaqindan tanishish)

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Interfaol (Interactive) so‘zidan olingan – suhbatli ma’nosini bildiradi. **Interfaol** ta’lim berish - suhbatli ta’lim berish, bunda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining o‘zaro harakati amalga oshiriladi.

Interfaollik daraja qancha yuqori bo‘lsa, ta’lim berish jarayoni shuncha natijali bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik mobil energetik vositalari modulini o‘qitishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish mumkin.

Klaster metodi


Klaster – tutam, bog‘lash ma’nosini bildiradi. Klaster ma’lumot xaritasini tuzish vositasi – barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun qandaydir asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘adi. Bilimlar faollashishini ta’minlaydi, mavzu bo‘yicha fikrlash jarayonida yangicha assotsiatsiya taqdim etishga erkin va ochiq kirib borishga yordam beradi.

Klasterni tuzishda sinf doskasi yoki katta qog‘oz varag‘i markazida kalit so‘zlar 1 – 2 so‘zdan iborat mavzu nomlanishi yoziladi.

Kalit so‘zlar bilan assotsiatsiya bo‘yicha yon tomonidan kichkina hajmdagi aylanaga “yo‘ldoshlar” yoziladi – ushbu mavzu bilan aloqador so‘z yoki so‘z birikmasi. Ular chiziq bilan “bosh” so‘zga bog‘laniladi. Ushbu “yo‘ldoshlar”da “kichik yo‘ldoshlar” ham bo‘lishi mumkin va boshqalar. YOzuv ajratilgan vaqt tugagunga yoki g‘oya yo‘qotilmaguncha davom ettiriladi.

Klaster namunasi

Dvigatellar moylash tizimi elementlari uchun klaster



Toifali jadval metodi

Toifa- mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan umumiy belgi.

- ajratilgan belgilarga ko'ra olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi;

- tizimli mushohada qilishni, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Toifali sharhni tuzishda dastlab uni tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Yangi o'quv materialini bilan tanishilgandan keyin olingan ma'lumotlar fragmentlarini birlashtirishga imkon beradigan toifalarni izlash ishlari olib boriladi. Bunda guruhni mini guruhlarga ajratish va aqliy hujumdan foydalanish mumkin.

Toifalar jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi. G'oya ma'lumotlar jadvalida tegishli toifalar bo'yicha taqsimlanadi. Ish jarayonida ma'lum bir toifalar nomlari o'zgartirilishi mumkin. Yangilari paydo bo'lishi mumkin. Ish yakunida olingan natija taqdimot qilinadi.

Toifali jadval namunasi

Iqtisodiyot sohasi uchun toifali jadval

Qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlari		
CHorvachilik tarmog'i	Dehqonchilik tarmog'i	Suv xo'jaligi tarmog'i

Konseptual jadval metodi

Konseptual jadval - o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Konseptual jadval tuzishda dastlab uni tuzish qoidalari bilan tanishiladi. Taqqoslanadigan narsa aniqlanadi, taqqoslash amalga oshiriladigan tavsiflar

ajratiladi.

Yakka tartibda yoki mini - guruhlarda konseptual jadval quriladi va to'ldiriladi;

- vertikal bo'yicha - taqqoslash talab etiladigan narsalar (qarashlar, nazariyalar) joylashtiriladi

- gorizontal bo'yicha - taqqoslashni amalga oshirishdagi har xil tavsiflar joylashtiriladi. Ish yakunida olingan natija taqdimot qilinadi.

T- jadval metodi

T – jadval - bitta konsepsiya (ma'lumot)ning jihatlarini o'zaro solishtirish yoki ularni (ha/yo'q, ha/qarshi) afzallik/kamchiliklarini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu jadval tanqidiy mushohadani rivojlantiradi, u ko'proq yakka tartibda rasmiylashtiriladi.

Oldin T – jadval qoidalari bilan tanishiladi. Ajratilgan vaqt oralig'ida yakka tartibda (yoki juftlikda) to'ldiriladi, uning chap tomoniga sabablari yoziladi, o'ng tomoniga esa chap tomonda ifoda qarama – qarshi g'oyalar, omillar va shu kabilar yoziladi.

T-jadval namunasi

Tarmoqlar uchun T-jadval

Afzalliklari	Kamchiliklari

Topshiriq yakunida tuzilgan jadvallar taqqoslanib barcha o'quv guruhi yagona uchun yagona T – jadval tuziladi.

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart

tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Namuna: Qishloq va suv xo‘jaligidagi korxonalar faliyati SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanishning kuchli tomonlari	Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va tejamkorlikni yaxshilanishi ...
W	Qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi tizimining kuchsiz tomonlari	Rentabellig darajasining pasayishi...
O	Qishloq va suv xo‘jaligi tizimining yaratilgan imkoniyatlardan foydalana olishi	...
T	To‘siqlar (tashqi)	...

Xulosalash (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатма материалларни таркатади;



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзунини яқинланади.

Namuna:

afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:			

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.
FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Venn diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

«Nima uchun?» sxemasi

«Nima uchun?» sxemasi - muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha bir butun qator qarashlarni o‘z ichiga oladi. Tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Topshiriqni berishdan oldin «Nima uchun?» sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishiladi.

YAkka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. «Nima uchun?» so‘rog‘i bilan strelka chiziladi va ushbu savolga javob yoziladi. Ushbu jarayon muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi o‘rnatilmaguncha davom ettiriladi. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mini-guruhlariga birlashadi, o‘z sxemalarini taqqoslaydi va qo‘shimchalar kiritadilar, ma’lumotlarni umumiy sxemaga jamlaydi. Natijalar taqdimoti qilinadi.

«Nima uchun?» sxemasi namunasi

Qishloq xo‘jaligida sotish tizimi uchun «Nima uchun?» sxemasi

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ini belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

III. NAZARIY MATERIALLAR

1- Mavzu: Makroiqtisodiyot

Reja:

1. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash.
2. Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi. Ishsizlik.
3. Inflyasiya va aksinfllyasiya siyosati.
4. YAAlpi talab – yalpi taklif modeli.
5. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari.
6. Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat.
7. Davlat byudjeti . Soliqlar..

***Tayanch iboralar:** makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, davriy rivojlanish, ishsizlik, inflyasiya, yalpi talab, yalpi taklif, pul taklifi, soliq turlari.*

Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

YAAlpi ichki mahsulot (YAIM), Sof ichki mahsulot (SIM), YAAlpi milliy daromad (YAMD), Sof milliy daromad (SMD), shaxsiy daromad (SHD), SHaxsiy tasarrufidagi daromad (SHTD), Iste'mol(S), Jamg'arish (S) ko'rsatkichlarining hajmi va o'sish sur'atlari;

. iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;

. mamlakat eksporti va importi hajmi, tarkibi, YAIMdagi ulushi va o'sish suratlari;

. resurslardan foydalanishning samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar (Mehnat unumdorligi, Fond qaytimi);

. davlat byudjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi, inflyasiyaning o'sish sur'atlari;

. ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;

· aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar.

Davlat byudjeti taqchilligi va inflyasiya surati kabi ko'rsatkichlar umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qo'llanilsa, YAİM, SIM, YAMD, SMD, SHD, SHTD, S, S ko'rsatkichlari milliy ishlab chiqarishning parametrlarini va dinamikasini tahlil etishda foydalaniladi.

YAİpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari

1993 yilda qabul qilingan BMT MHTning yangi talqiniga ko'ra YAİpi ichki mahsulot (YAİM) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi.

YAİM - mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarininng umumiy yig'indisidan iborat.

Boshqa bir ta'rifga ko'ra YAİM- mamlakat hududida ma'lum muddat davomida yangidan yaratilgan qiymatlar yig'indisidir.

YAİM ning «ichki» deb atalishiga sabab uning mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilishidir. Rezident deganda faqatgina mamlakatning yuridik va jismoniy shaxslari tushunilmaydi. CHunki mamlakat yuridik shaxsi boshqa mamlakat hududida bir yildan ortiq faoliyat yuritsa o'sha mamlakat rezidenti deb qaraladi.

YAİM uch xil usul bilan hioblanadi:

- 1) ishlab chiqarish usuli;
- 2) xarajatlar usuli;
- 3) daromadlar usuli.

Har uchala usul bilan hisoblangan YAİM ko'rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o'zaro teng bo'lishi lozim. SHu birga birga har uchala usul bilan YAİM ko'rsatkichni hisoblashda o'ziga xos talablarga amal qilinishi talab etiladi.

YAİMni ishlab chiqarish usulida aniqlash

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YAİM yakuniy tovarlar va xizmatlarni

ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi sifatida aniqlanadi. YAIMni bu usulda aniqlash statistik jihatdan qulay bo‘lishi bilan birga uni hisoblashning muhim shartiga amal qilish, ya’ni bir qiymatni ikki bor hisobga olish, yoki oraliq mahsulot qiymatini YAIMga kiritib yuborishning oldini oladi.

Qo‘shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosi bilan ularni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan xom ashyo va materiallarni sotib olishga qilingan xarajatlar o‘rtasidagi farq ko‘rinishida aniqlanadi.

2019 yilda YAIMning 24,0 foizi sanoat tarmoqlarida, 21,7 foizi qishloq xo‘jaligida, 5,5 foizi qurilish sohasida va 39,3 foizi xizmat ko‘rsatish sohasida yaratildi. Iqtisodiyot rivojlanishi, real sektorda ishlab chiqarish samaradrligi oshib borishi bilan sanoat va ayniqsa xizmat ko‘rsatish sohasining YAIMdagi ulushi ortib borilishi jahon iqtisodiy tarixida kuzatilgan hodisadir. O‘zbekiston Respublikasida 2010-2019 yillarda sanoat tarmoqlarining YAIM dagi ulushi ortib borayotganligi progressiv tarkibiy siljishdan dalolat beradi. “Jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta’sirlari sanoat ishlab chiqarishida nisbatan ko‘proq namoyon bo‘lishi natijada uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o‘tgan yildagi 24 foiz o‘rniga 2018 yilda 22,3 foizni tashkil etgan. Qishloq xo‘jaligi salmog‘ining 19,4 foizga qadar pasayishi esa mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibining takomillashib, unda sanoat, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi yildan-yilga oshib borayotganligini anglatadi”. Qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi ko‘rinishida hisoblangan YAIM tarkibiga sof bilvosita soliqlar, ya’ni davlat byudjetiga tushgan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va bojxona boji to‘lovlari bilvosita soliqlar bilan davlat byudjetidan ishlab chiqaruvchilarga berilgan subsidiyalar o‘rtasidagi farq ham qo‘shiladi.

Sof soliqlarning YAIMdagi ulushi 2019 yilda O‘zbekiston Respublikasida 9,5 foizni, 2018 yilda esa 9,3 foizni tashkil etdi. Sof soliqlarning YAIMdagi ulushi kamayib borishini ijobiy tendensiya deb baholash mumkin.

YAIMni xarajatlar bo‘yicha hisoblash

Bu usul yakuniy foydalanish usuli deb ham yuritilib, unda YAIMni

hisoblash uchun yakuniy mahsulotlarni sotib olishga qilingan barcha xarajatlar o‘zaro qo‘shib chiqiladi. Bu xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

Uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlari (S):

YAlpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):

Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G).

Sof eksport (Xp): mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo‘yicha xarajatlar o‘rtasidagi farq.

YAIMni xarajatlar orqali hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$YAIM = S + I + G + Xp$$

O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan YAIMning foydalanish (xarajatlarga ko‘ra) tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlari YAIM tarkibidagi eng salmoqli komponent ekan. Bu ko‘rsatkichning YAIMdagi ulushiga ko‘ra O‘zbekiston Rossiya Federatsiyasi, YAponiya va Fransiya davlatlariga yaqin turadi. YAlpi jamg‘arish, yoki yalpi investitsiyalar ulushi kattaligi bo‘yicha ikkinchi komponent bo‘lib 2007 yilda YAIMning 21,3 %ini (shu jumladan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 22,6 %ni, zahiralarining o‘zgarishi -1,3 % ni tashkil etgan. Taqqoslov uchun maqulotlar keltiradigan bo‘lsak [2019 yil yakunlariga ko‘ra yalpi investitsiyalarning YAIMdagi ulushi Rossiya Federatsiyasida 21%ni, YAponiyada 17 foizni, Fransiyada 24%ni, Xitoy Xalq Respublikasida esa 40 foizni tashkil etgan.

Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi sharoitida tashqi talabning pasayishi sof eksportning mamlakatimiz YAIMdagi ulushi 2008 yilda 12,8 %ga tushib qolishiga olib keldi.

YAIMni daromadlar(taqsimot usuli) bo‘yicha hisoblash

YAIMni daromadlar bo‘yicha aniqlashda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida rezident-ishlab chiqarish birliklari tomonidan, qo‘shilgan qiymatlar hisobidan, to‘langan dastlabki daromadlar qo‘shib chiqiladi.

YAMMni daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

-sof bilvostia soliqlar (T_n);

- yollanma ishchilarning ish haqlari (W) va ijtimoiy sug'urta ajratmalari;

- Korporatsiyalarning yalpi foydasi + nokorporativ korxonalar daromadi (R).

$R =$ Korporatsiyalarning sof foydasi (R_1) + nokorporativ korxonalar sof daromadlari(R_2) +amortizatsiya (A);

YAIMni daromadlar ko'rinishida yalpi qo'shilgan qiymatni ko'rsatilgan uch guruhga bo'lib topish mumkin:

$$YAIM = T_n + W + R$$

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblab topilgan YAIM hajmi o'zaro mos keladi. Chunki milliy iqtisodiyot doirasida bir sub'ekt tomonidan qilingan har qanday xarajat ikkinchi sub'ekt uchun daromad bo'lib tushadi.

Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar va ular o'rtasidagi nisbat

YAMD - mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromadlari yig'indisidir.

$YAMD = YAIM +$ mamlakat rezidentlaroi tomonidan xorijdan olingan daromadlari - norezidentlarning mamlakatdan xorijga jo'natgan daromadlari.

Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) ko'rsatkichlari YAIM va YAMD ko'rsatkichlaridan amortizatsiya (iste'mol qilingan asosiy kapital) summasi miqdoriga farq qiladi.

$$SIM = YAIM - A$$

$$SMD = YAMD - A$$

Makroiqtisodiy tahlilda shuningdek MHTga kirmagan SHaxsiy daromad (SHD) ko'rsatkichi ham qo'laniladi.

$SHD = SMD - [ISA$ (Ijtimoiy sug'urta ajratmalari) + T (bilvosita soliqlar) + $(R_{1.1})$ korporatsiya foydasiga soliqlar) + $R_{1.3}$ (Korporatsiya-larning taqsimlanmagan foydasi + biznesning foiz daromadlari] + transfert to'lovlari (TR)

+ foizlar ko‘rinishida olingan shaxsiy daromad

Foizlar ko‘rinishida aholi olgan daromadga davlat qarzlari bo‘yicha olingan foiz daromadlari ham kiritiladi.

SHTD uy xo‘jaliklari tomonidan iste‘mol (C) va jamg‘arish (S) uchun ishlatiladi.

$$SHTD = C + S$$

$$YAMTD = YAMD + \text{Xorijdan olingan sof transfertlar}$$

Xorijdan olingan sof transfertlar = Mamlakat tashqarisidan olingan transfertlar – Mamlakatdan tashqariga berilgan transfertlar)

$$YAMTD = YAkuniy iste‘mol + \text{Milliy jamg‘armalar}$$

YAkuniy iste‘mol uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlaridan tashqari hukumatning iste‘molga xarajatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar.

Turli makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yoki ko‘rsatkichlar guruhlari o‘rtasidagi mavjud bo‘ladigan, yoki mavjud bo‘lishi iqtisodiy qonuniyat hisoblagan o‘zaro tenglikka makroiqtisodiy ayniyat deyiladi.

Xarajatlar va daromadlar ko‘rinishida hisoblangan YAIM ko‘rsatkichlarining o‘zaro tengligi asosiy makroiqtisodiy ayniyat hisoblanadi.

$$Y = C + I + G + X_n$$

Ikkinchi bir makroiqtisodiy ayniyat investitsiyalar va jamg‘armalar o‘rtasidagi tenglik hisoblanadi.

Aytaylik, mamlakat iqtisodiyoti ochiq, ya‘ni eksport-import aloqalari yo‘lga qo‘yilgan, soliq solish va transfert to‘lovlari ko‘rinishida davlat aralashuvi mavjud bo‘lsin. Bunday holatda jamg‘arish tushunchasi murakkablashib, quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$S = S_p + S_d + S_x$$

Bu erda: S_p - xususiy jamg‘armalar;

S_d - davlat jamg‘armalari;

S_x - boshqa mamlakatlar jamg‘armalari.

Bunda xususiy jamg'armalar daromadlar (U), transfert to'lovlari (TR), davlat zayomlari bo'yicha foizlar yig'indisidan (N) soliqlar (T) va iste'mol (S) xarajatlari yig'indisini ayirish natijasiga teng bo'ladi.

$$S_p = (U + TR + N - T) - C$$

Davlat jamg'armalari quyidagi miqdorga teng bo'ladi:

$$S_g = (T - TR - N) - G$$

Agar davlat jamg'armalari nolga teng bo'lsa, davlat byudjeti muvozanatlashgan, jamg'arishning manfiy miqdori byudjet taqchilligini (BT) bildiradi:

$$BT = - S_g$$

Bu erda: BT – byudjet taqchilligi miqdori.

Boshqa mamlakatlarning jamg'armalari tashqi dunyoning bizning importimiz hisobiga olgan daromadlaridan ularning bizning eksportimizga sarflangan harajatlarini ayirib topiladi.

$$S_x = M - X \text{ yoki } S_x = -X_n$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko'proq import qilsa, unda daromadlarning bir qismi xorijda qoladi va keyinchalik undan xorijiy sheriklar tomonidan mamlakatimizda ko'chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda foydalaniladi.

Har qanday holatda ham barcha turdagi jamg'armalarning umumiy yig'indisi investitsiyalarga teng bo'ladi:

$$S_p = S_d + S_x = (U + TR + N - T) - C + (T - TR - N) - G + (-X_n)$$

yoki

$$S_p + S_d + S_x = U - C - G - X_n$$

$$S = C + I + G - X_n - C - G - X_n$$

$$S = I$$

Demak, iqtisodiyotdagi investitsiya xarajatlari nafaqat ichki jamg'armalar hisobiga, balki tashqi dunyo jamg'armalari hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda investorlarga kafolatlangan yuqori foyda olishi uchun

yaratilgan shart-sharoitlar xorijiy investorlar oqimining o'sishiga olib keluvchi muhim shartlardan biridir.

Nominal va real YAIM.

Iqtisodiyotda doimiy inflyasiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarur etib qo'yadi. Chunki, inflyasiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko'rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Baholar indeksini yoki inflyasiya darajasini hisoblash uchun: deflyator (efl indeksi); iste'mol narxlari indeksi(Laspeyres indeksi); sanoat ishlab chiqarish baholari indeksleri hisoblanishi lozim.

Deflyator ko'rsatkichi quyidagi formula eflya hisoblaganadi:

$$\text{Deflyator} = \frac{\sum Q_{i1} P_{i1}}{\sum Q_{i1} P_{i0}} \cdot 100$$
$$\text{Real YAIM} = \frac{\text{Nominal YAIM}}{\text{Deflyator}} \cdot 100$$

Iste'mol narxlari indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{INI} = \frac{\sum Q_{i0} P_{i1}}{\sum Q_{i0} P_{i0}} \cdot 100$$

Bu erda:

Q_{i0} – bazis yilda bozor savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlar hajmi;

P_{i1} – i – tovarning joriy yildagi bahosi;

P_{i0} – i – tovarning bazis yildagi hajmi.

Sanoat ishlab chiqaruvchilar baho indeksi iste'mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin bozor savatiga sanoat mahsulotlarigina kiritilib ular ulgurji baholarda hisoblanadi.

Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari

Ishlab chiqarish, bandlilik va inflyasiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (sikl)lar deyiladi. Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o'tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. SHunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi.

Iqtisodiy davrlar to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi: «cho'qqi», pasayish (retsessiya), pasayishning quyi nuqtasidagi turg'unlik, ko'tarilish bosqichi.

Iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo'lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko'ra o'zaro farq qilib turadi. SHuning uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to'g'ri bo'ladi deb hisoblashadi. Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodchilar uch omilni ko'rsatadi:

- 1) texnika va texnologiyalarda ro'y beradigan o'zgarishlar;
- 2) siyosiy va tasodifiy vaziyatlar;
- 3) monetar omillar.

Barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini yalpi talab va boshqacha aytganda yalpi xarajatlar miqdoriga bog'liq, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar.. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barcha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o'lchanishi.

Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab miqdorining ishchi kuchi taklifi miqdoridan kam bo'lishi ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlar – bu, ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir.

Ishsizlik darajasi deb ishsizlarni ishchi kuchi soniga nisbatiga (% hisobida) aytiladi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

Ishsizlik darajasi = (ishsizlar soni / ishchi kuchi soni) x 100

Ishsizlikning quyidagi turlari mavjud:

-friksion ishsizlik;

-tarkibiy ishsizlik;

-davriy ishsizlik.

To'la ish bilan bandlik ishchi kuchining 100 foiz ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friksion va strukturali ishsizlik ilojisiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutlaq to'la ish bilan bandlikka erishib bo'lmashligini tushunamiz.

. To'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik, ishsizlikning tabiiy darajasi deyiladi. Bunga ish qidiruvchilar soni bo'sh ish joylari soniga muvofiq kelsagina erishish mumkin. Ishsizlikning tabiiy darajasi friksion va tarkibiy ishsizlik yig'indisiga teng bo'ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas, chunki u iqtisodiy vaziyat, qonun va milliy an'analar bilan bog'liq holda o'zgarib turadi.

Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. A. Ouken qonuni.

Makroiqtisodiy beqarorlik tufayli, iqtisodiy pasayish davrida mamlakat o'z iqtisodiy potensialini to'liq ishga solmasdan, yaratilgan haqiqiy YAIM hajmi (Y_h) potensial YAIM (Y_p) hajmidan ortda qoladi. YA'ni YAIMning uzilishi (YUZ) ro'y beradi.

$$Y_h - Y_p$$

$$YUZ = \frac{\quad}{\quad} \cdot 100$$

$$Y_p$$

Potensial YAIM deganda mamlakatdagi ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanilgan sharoitda mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi tushuniladi.

Potensial YAIM*ni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaqo yo'q deb emas, balki mavjud, biroq u tabiiy darajada, deb hisoblanadi.

Ishsizlik darajasining oshishi natijasida iqtisodiyot potensial YAIM hajmidan

kam mahsulot yaratadi. Ouken qonuniga ko'ra agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, ya'ni davriy ishsizlik 1 foizni tashkil etsa milliy iqtisodiyot YAIMni 2,5 foizga kam yaratadi.

Ouken qonuni ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlari hajmini aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda β koeffitsienti deb atalgan bu koeffitsient miqdori 2 foizdan 3 foiz oralig'ida deb hisoblanadi.

Ouken qonunini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$YUZ = -2,5[u - u^*]$$

Bu erda: u^* – ishsizlikning tabiiy darajasi;

u – ishsizlikning haqiqiy darajasi.

YAMM uzilishini ifodalaydigan formula bilan Ouken qonunini formulasini umumlashtirib quyidagi formulani olamiz:

$$Y_h - Y_p$$

$$\frac{\quad}{\quad} 100 = -\beta [u - u^*]$$

$$Y_p$$

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari va ishsizlik darajasiga ta'siri.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Amerika Qo'shma SHtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi.

AQSH iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to'yindi va bu Federal zahira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini o'zgartirishiga olib keldi. Natijada 2004-2006 yillarda Federal zahira tizimi foiz stavkalarini 6,25% gacha ko'tardi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholini ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzdorlar to'lovining qisqarishiga olib keldi. Pirovard natijada 2007 yil boshida AQSHda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida

ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Pirovard natijada 2007 yil boshida AQSHda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining «mevasi» ekanligini, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan ham izohlamodalar.

YUzaga kelgan global moliyaviy –iqtisodiy inqiroz jahonning asosiy moliyaviy markazlari hisoblangan yirik fond bozorlarini o'z ichiga oluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, moliyaviy inqiroz inflyasiya, qator banklar va moliyaviy muassasalarning tanazzulga yuz tutishi ta'sirida ishsizlik, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi va boshqalar negizida iqtisodiy inqiroz shaklida kuchayib bormoqda. Bundan ko'rinadiki, hozirgi jahon moliyaviy inqirozining o'ziga xos xususiyati – bu uning iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan boshlanib, real sektoriga o'tganligidir.

Global inqiroz bo'yicha ko'p sonli nashrlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, dunyoning rivojlangan davlatlari uchun inqirozning harakat nuqtasi moliyaviy bozorlarning beqarorligi bo'ldi va inqirozning rivojlanishi sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'ldi:

Moliyaviy bozorlarning beqarorligi → Kreditlarning qisqartirilishi va iste'molning pasayishi → Ishlab chiqarish va eksportning qisqarishi, ishsizlikning o'sishi.

Hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko'rish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

Inflyasiyaning mohiyati va hisoblanish usullari.

Inflyasiya (lotincha inflatio - shishish, bo'rtish, taranglashish) – ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi.

Umuman olganda inflyasiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Keynschiar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to'liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo'lishida deb bilishadi. Boshqacha aytganda yalpi talabni ko'paytirish inflyasiyaga olib kelmaydi deb hisoblashadi.

Neoklassik yondoshuv tarafdorlari inflyasiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o'sishida, ishlab chiqarish xarajatlarning ko'payishida deb bilishadi. Demak keynschilar inflyasiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondoshishadi.

Inflyasiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Baholarning o'sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyasiya namoyon bo'lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

valyuta kururklarining o'zgarishi;

kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi;

kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati bahosining o'sishi.

Inflyasiya baho indeksleri - deflyator va iste'mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi.

Baholar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi inflyasiya darajasi (baholarning o'sish sur'ati) deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflyasiya

darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

P-P-1

$\pi = \text{-----}$

P-1 bunda: π – yillik inflyasiya sur'ati;

P - joriy yilning narxlar indeksi; P-1 - o'tgan yilning narxlar indeksi.

Inflyasiyaning turlari. Talab va taklif inflyasiyasi.

Talab inflyasiyasi iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. YA'ni, to'liq bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyasiyasi kelib chiqadi.

Taklif inflyasiyasi bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YAIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi. Jami taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xom ashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflyasiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari bahosining keskin ko'payishidan kelib chiqadi.

Inflyasiyani real daromadlar darajasiga ta'siri u kutilayotgan yoki kutilmayotganiga ham bog'liq. Kutilayotgan inflyasiya sharoitida daromad oluvchi inflyasiyaning u olayotgan daromadga ta'sirini kamaytirish, ya'ni real daromadi darajavsini saqlab qolish chorasini ko'radi.

Bu uchun Fisher tenglamasidan foydalanish mumkin:

$i = r + \pi_{kut.}$, bu erda i -nominal foiz stavkasi; r - real foiz stavkasi; $\pi_{kut.}$ -kutilayotgan inflyasiya darajasi.

Inflyasiya sur'ati 10 foizdan oshganda Fisher tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$i - \pi_{kut.}$$

$$r = \text{-----}$$

$$1 + \pi_{kut.}$$

Kutilmagan inflyasiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar o'rtasida kreditorlar foydasiga qayta taqsimlaydi. SHuningdek kutilmagan inflyasiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar va qayd qilinmagan daromad oluvchilar o'rtasida keyingilari foydasiga qayta taqsimlaydi. Talab va taklif inflyasiyasini qat'iy chegaralash qiyin. Ba'zida bu ikki turdagi inflyasiya bir-biri bilan qo'shilib ketadi.

Inflyasiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik. Fillips egri chizig'i.

Iqtisodiyot o'z rivojlanishida potensial darajaga yaqinlashgan shariotda yoki bandlilik darajasini oshirish yoxud inflyasiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo'linadi. CHunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyasiya darajalari o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudIshsizlik va inflyasiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan va Fillips egri chizig'i (4.1 -chizma) deb ataladi.

Fillips egri chizig'i ishsizlik va inflyasiya darajalari o'rtasidagi teskari bog'lig'likni xarakterlaydi.

↑
YUqori darajadagi kutilayotgan inflyasiya

Past darajadagi kutilayotgan inflyasiya

→

4.1.-chizma. Fillips egri chizig'i

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko'ra, shuningdek, inflyasiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig'idagi inflyasiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflyasiyaning sur'atiga bog'liq. Kutilayotgan inflyasiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ishsizlikning har qanday darajasida (sur'ati past bo'lgan inflyasiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyasiya darajasi yuqori bo'ladi. Ishsizlik darajasi va inflyasiya sur'atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$Y_h - Y_p$$

$$\pi = \pi_{kut} + f\left(\frac{Y_h - Y_p}{Y_p}\right) + \varepsilon$$

$$Y_p$$

Bu erda π - inflyasiyaning haqiqiy darajasi; π_{kut} - inflyasiyaning kutilayotgan darajasi;

$$Y_h - Y_p$$

$$f\left(\frac{Y_h - Y_p}{Y_p}\right) + \varepsilon - \text{talab inflyasiyasi};$$

$$Y_p$$

f - Fillips egri chizig'ining og'ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsent;
 ε - tashqi baho shoki (taklif inflyasiyasi).

Ouken qonuniga ko'ra YAIMning uzilishi, ya'ni $(Y_h - Y_p) / Y_p$ miqdor davriy ishsizlikning o'zgarishiga bog'liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig'ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$= \pi_{kut} - \beta [u - u^*] + \varepsilon$$

Keltirilgan tenglamadan ko'rinib turibdiki, haqiqiy inflyasiya darajasi miqdori kutilayotgan inflyasiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog'likka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy

siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflyasiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

Aksilinflyasiya siyosati va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uni amalga oshirish xususiyatlari.

Aksilinflyasiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyasion keskinlikni yumshatishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksilinflyasiya siyosati inflyasiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyasiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Aksilinflyasiya siyosati o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

-yalpi talabni tartibga solish;

-yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo‘nalish tarafdorlari bo‘lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllantirish asosida yalpi taklif darajasini ko‘tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatnin bu tadbirlar iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

“Aksilinflyasiya siyosatining monetaristik yo‘nalishi tarafdorlari keyinchalik, keynschilarning inflyasiyaga qarshi kurash bo‘yicha takliflari doimo samara beravermagach va kamchiliklari yuzaga chiqib qolgach yuzaga keldi. Jumladan, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketdi. Bunday sharoitda monetaristlar radikal asilinflyasiya usullarini taklif etishdi. Ular yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o‘tkazish hisobiga cheklash va byudjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarni qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi”*.

Monetaristlar inflyasiya aynan pul bilan bog‘liq hodisa bo‘lganligi sababli shok terapiyasi pul massasining o‘sish sur‘atlarini keskin qisqartiradi va inflyasiya sur‘atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandlilik qisqarishi mumkin.

Monetaristlar tomonidan taklif qilinayotgan aksilinflyasiya siyosatining yana

* Агапова Т.А.Серегина С.Ф. Макроэкономика:Учебник.-7-е изд.перераб. и доп.-М.:Издательство “Дело и сервис”, 2005. с. 214

bir ko‘rinishi - inflyasiya sur‘atlarini asta sekinlik bilan pasaytirib borish (graduallash) usulidir. Bu usulda inflyasiya sur‘atlari pul massasini ko‘p marotalaba, lekin oz ozdan kamaytirish orqali pul massasining o‘shish sur‘atini pasaytirishni ko‘zda tutadi. Graduallash usuli inflyasiyani asta sekinlik bilan pasaytira borib iqtisodiyotda chuqur pasayishni oldini olish imkonini beradi.

Graduallash usulini qo‘llash pul massasi va baholar darajasining yillik o‘shish sur‘ati 20-30 foizdan oshmaganda muvaffaqiyatli bo‘ladi, deb hisoblanadi.

“Soliqlar tarkibini o‘zgartirish, yalpi soliq tushumlaridagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarning ulushini kamaytirish, bilvosita soliqlar ulushini ko‘paytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, ularning rag‘batlantirish funksiyalarini kuchaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini pasaytirish kabilar ham inflyasiyaga qarshi kurash tadbirlari hisoblanadi”*.

Aksilinflyasiya siyosatining u yoki bu turini tanlash inflyasiya jarayonlarining xususiyatiga bog‘liq.

Inflyasiyaning yuqori sur‘atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta‘minlashi kerak:

- samarali soliq tizimini va davlat xarajatlari ning baaqarorligini;
- pul massasi va milliy daromadning bir maromdagi o‘shish sur‘atlarini;
- “inflyasiyani import qilish” ga yo‘l qo‘ymaslik.

Jahon moliyaviy -iqtisodiy inqirozi sharoitida inflyasiyaga qarshi chora tadbirlarni keskin amalga oshirish zarurati yanada kuchaydi

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish, jumladan ishlab chiqarishni modernizatsiya va texnik qayta qurollantirishni izchil davom ettirish, energetika tizimini modernizatsiya qilish, asosiy sanoat tarmoqlarida mahsulot tannarxini 20 foizga qisqartirish, kommunal xizmatlar baholari o‘shishini cheklash mexanizmini shakllantirish, bank tizimini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va h.k.lar inflyasiya sur‘atlarini cheklash imkonini beradi.

* Киселёва Е.А. Макроэкономика. /Экспресс курс:учебное пособие- М.:КНОРУС,2007, с.62.

YAlpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. YAlpii talab tushunchasi va grafigi.

Makroko‘lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi bilan birga baholar umumiy darajasining o‘zgarishi o‘rtasida bog‘liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o‘sishi, ba’zi davrlarda esa pasayib ketishni izohlab berish uchun yalpi talab - yalpi taklif (AD-AS aggregate demand- aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va baholar darajalarining tebranishlarini hamda ular o‘zgarishining oqibatlarini o‘rganish uchun bazaviy model bo‘lib hisoblanadi.

YAlpi talab – uy xo‘jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlarning baholarning ma’lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo‘lgan talabidir.

Formula ko‘rinishida yalpi talabni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$AD = S + I + G + X_n.$$

Baholar darajasi va talab qilingan yalpi ichki mahsulot hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig‘i deb ataladi. Bahodan boshqa omillar ta’siri

Milliy bozorda AD-egri chizig‘ining traektoriyasini, ya’ni uning quyiga egilganligini, avvalo pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yordamida izohlash mumkin:

$$M V = Y P$$

Bu erda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

R – iqtisodiyotdagi baholar darajasi (baholar indeksi); Y – talab qilinayotgan real ishlab chiqarish hajmi.

Bu tenglamadan:

$$P = M V / Y \text{ va } Y = M V / P$$

tenglamalarni keltirib chiqaramiz. Bu tenglamalardan ko‘rinadiki, baholar darajasi qancha oshsa, real YAIM hajmiga talab shuncha past bo‘ladi, ya’ni pul

massasi (M) va uning aylanish tezligi (V) o'zgarimas bo'lsa baholar darajasi va yalpi talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

YAlpi talabning baho va bahodan boshqa omillari

Baholar darajasi va va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlik quyidagi baho omillari bilan izohlanadi:

1. Foiz stavkasi samarasi;
2. Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi;
3. Import xaridlar samarasi.

Foiz stavkasi samarasi shuni bildiradiki, yalpi talabning egri chiziq bo'yicha surilishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.. Buni quyidagi mantiqiy chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin:

$$P \uparrow \rightarrow MD \uparrow (MS \text{ const}) \rightarrow R \uparrow \rightarrow I \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, jamg'arilgan moliyaviy aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi moliyaviy aktivlarning real qiymatini tiklash uchun joriy daromadidan iste'mol xarajatlar miqdorini qisqartiradi. Iste'mol xarajati yalpi talabning bir qismi bo'lganligi tufayli uning kamayishi ADning pasayishiga olib keladi.

Moliyaviy

$$P \uparrow \rightarrow \text{aktivlarning} \downarrow \rightarrow \{ S \downarrow (S \uparrow) \} \rightarrow AD \downarrow$$

real qiymati

Import xaridlar samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga talab kamayadi va o'z navbatida shu mamlakatda import mahsulotlarga bo'lgan talab oshadi.

$$P \uparrow \rightarrow \{ X \downarrow (M \uparrow) \} \rightarrow X_n \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

YAlpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillariga quyidagilarni kiritamiz:

1. Iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar:
2. Investitsiya xarajatlaridagi o'zgarishlar:
3. Davlat xarajatlarining o'zgarishi. Masalan, harbiy xarajatlar va yangi

kasalxona va boshqa muassasalar qurishga qaror qilinganda.

4. Sof eksport hajmidagi o'zgarishlar.

YAlpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillari ta'sirida AD egri chizig'i o'ngga yoki chapga siljiydi (5.1.-chizma). Natijada ma'lum baho darajasiga mos keluvchi talab qilinayotgan yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgaradi.

Pul taklifining, pulning aylanish tezligining oshishi, boshqa davlatlar milliy daromadining oshishi, milliy valyuta kursining ma'lum miqdorda pasayishi (bular eksportning ortishi, importning pasayishiga olib kelishi tufayli) oqibatida sof eksportning pasayishi va yalpi xarajatlar turli komponentlarining oshishi AD egri chizig'ining o'ngga siljishiga olib keladi


YAlpi taklif grafigi va omillari.

YAlpi taklif deganda muayyan baholar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. YAlpi taklif tushunchasi ko'pincha yalpi ichki mahsulot sinonimi sifatida qo'llaniladi.

YAlpi taklif (AS) egri chizig'i alohida tovar taklifi egri chizig'idan farq qilib uch qismdan, gorizonttal yoki keyns kesmasi, ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma hamda vertikal yoki klassik kesmadan iborat (5.2.-chizma).

YAlpi taklifning keyns kesmasi iqtisodiyot pasayish bosqichida bo'lgan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sharoitni ko'rsatadi. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi oshishi baholar darajasi o'zgarmay qolgan sharoitda ro'y beradi.

YAlpi taklif egri chizig'ining Keynes kesmasida iqtisodiyotni nisbatan qisqa muddatda amal qilishini xarakterlaydi.



AS



Кўтарилиб борувчи ёки
оралиқ кесма

YAlpi taklif egri chizig'i

Vertikal yoki klassik kesmada iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko'ramiz. Iqtisodiyot egri chiziqning bu kesmasida o'zining ishlab chiqarish potentsiali darajasida bo'ladi.

Oraliq kesma – Iqtisodiyot ko'tarilish bosqichida o'lgan vaziyatni aks ettiradi va bu kesmada ishlab chiqarish real hajmining o'sishi narxlar darajasining o'sishiga mos ravishda o'sib boradi.

AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat. Makroiqtisodiy muvozanat buzilishining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga kelishiga ta'siri.

AD va AS egri chiziqlarining kesishish nuqtasi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi va baholarning muvozanatli darajasini belgilaydi. Baholarning muvozanatli darajasi deganda baholarning shunday darajasi tushuniladiki, unda jami talab va taklif bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak. Modlelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmini dastlab oraliq kesmada ko'rib chiqamiz (5.3.-chizma). Dastlab muvozanat e nuqtasida o'rnatilgan. Baholarning muvozanatli darajasi va yalpi ishlab chiqarish hajmining muvozanatli hajmlari mos ravishda P_e va Y_e lar bilan belgilangan. Nima uchun P_e narxlarning muvozanatli darajasini va Y_e esa yalpi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini bildirishini ko'rsatishimiz uchun baholarning muvozanatli darajasi P_e emas, balki P_1 deb hisoblaymiz.

Baholar darajasi P_1 bo'lgan vaziyatda ishlab chiqaruvchilar yalpi ishlab chiqarish hajmini Y_1 miqdoridan oshirmaydi.

Iste'molchilar baholar darajasi P_1 bo'lganda mahsulotlarni Y_2 darajada sotib olishga tayyor turadi. $AD > AS$ bo'lganligi tufayli iste'molchilar

YAlpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmasidagi muvozanat

o'rtasidagi raqobat baholar darajasini Pe gacha suradi. Baholar darajasining P1 dan Pe gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish hajmini Y1 dan Ye gacha oshirishga va iste'molchilar talabini Y2 dan Ye gacha kamayishga olib keladi. Natijada AD va AS egri chiziqlari e nuqtada kesishadi. Demak, aynan Re baho baholarning muvozanatli darajasi va e muvozanat nuqtasidir.

YAlpi taklif va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatning buzilishi makroiqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jumladan "jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq, milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashtirish jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan AQSHda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi". Natijada muomaladagi pul massasi (yalpi talab) tovarlar va xizmatlar hajmi o'rtasida muvozanat buzildi, va moliyaviy inqiroz iqtisodiy inqirozga aylandi.

Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari.

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (bundan buyon iste'mol deb yuritiladi), yalpi talab, yoki YAIMning yakuniy iste'molga ko'ra tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan komponentdir. SHu tufayli ham iste'mol xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni, uning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadning iste'mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg'armalarini tashkil etadi.

J.M. Keynes uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va jamg'arishlari hajmini

belgilovchi asosiy omil ularning ishlab chiqarishda ishtirok etishdan olingan daromadlari, yanada aniqrog'i tasarrufidagi daromad deb hisoblaydi

Ma'lumki, uy xo'jaligi tasarrufidagi daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi. YA'ni, qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar, odatda, uning ko'proq qismini iste'mol qilib, kamroq qismini jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish foydasiga o'sadi.

Iste'mol grafigi

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadlar 390 sh.b.ka teng bo'lganda, uning miqdori iste'mol miqdori bilan tenglashadi. Bu miqdor bo'sag'aviy daromad deb yuritiladi (61. chizma).

Bo'sag'aviy nuqtadan quyida haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. e– nuqtada yuqorida haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil etadi. Haqiqiy iste'mol to'g'ri chizig'i iste'mol hajmini belgilovchi vertikal o'qni a nuqtada kesib o'tadi. Bu hol uy xo'jaliklari umuman daromad olmaganlarida ham ma'lum miqdorda iste'mol qilishlarini anglatadi. a – nuqta esa avtonom iste'mol hajmini bildiradi.

Iste'mol funksiyasini yozamiz:

$C = a + b Y_d$, bu erda: a – avtonom xarajatlar; Y_d – tasarrufidagi daromad ($Y_d = Y - T$), bu erda: T – soliqlar;

b – iste'mol hajmining tasarrufidagi daromadga bog'liqligini ifodalovchi koeffitsient, boshqacha aytganda iste'molga chegaralangan moyillik.

ΔS

$b = \frac{\Delta S}{\Delta Y_d} \cdot 100$

ΔY_d

Demak, iste'mol hajmi avtonom iste'molga, tasarrufidagi daromad hajmiga va iste'mol hajmining tasarrufidagi daromad o'zgarishiga ta'sirchanligiga bog'liq.

Jamg'arish grafigini ham iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodalash

mumkin, ya'ni jamg'arish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$S = -a + (1 - b) Y_d$$

Iste'mol va jamg'arish hajmiga tasarrufidagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar, to'g'rirog'i bu omillardagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi:

1. Uy xo'jaliklari daromadlari.
2. Uy xo'jaliklarida to'plangan mulk hajmi.
3. Baholar darajasi.
4. Iqtisodiy kutish.
5. Iste'molchilar qarzlari hajmi.
6. Soliqqa tortish hajmi.

Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik.

Iste'molga o'rtacha moyillik deganda tasarrufidagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni:

$$APC = \frac{S}{Y_d} \cdot 100$$

bunda: APC – (average propensity to consume) iste'molga o'rtacha moyillik.

Tasarrufidagi daromaddagi jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$APS = \frac{S}{Y_d} \cdot 100$$

Bunda: APS (average propensity to saving) – jamg'armaga o'rtacha moyillik.

Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan tasarrufidagi daromad o'zgarishdagi ulushi iste'molga chegaralangan moyillik deyiladi.

$$MPC = \frac{\Delta S}{\Delta Y_d} \cdot 100$$

Bu erda: MPC (marginal propensity to consume) – iste'molga chegaralangan moyillik.

Jamg'arishdagi o'zgarishning ixtiyordagi daromad o'zgarishdagi ulushi jamg'arishga chegaralangan moyillik deyiladi.

ΔS

$MRS = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} = 100$

ΔYd

. Daromadning o'sgan qismi yoki iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. SHu sababga ko'ra iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari yig'indisi 100% ga yoki koeffitsient ko'rinishida 1 ga teng bo'ladi.

$MRS + MRS = 100\%$ yoki 1.

MRS va MRS ancha barqaror ko'rsatkichlar bo'lib, juda sekin o'zgarishga uchraydilar.

Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir.

Makroiqtisodiy tahlilda eng ko'p duch kelinadigan guruhlashda investitsiyalar investitsiyalash ob'ektiga ko'ra uch turga bo'linadi.

1. Ishlab chiqarish investitsiyalari;
2. Tovar-moddiy zahiralariga investitsiya;
3. Uy-joy qurilishiga investitsiya.

Makroiqtisodiy tahlilda investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil sifatida real foiz stavkasi qaraladi.

Avtonom investitsiyalarning grafigi investitsiyalar hajmi foiz stavkasi dinamikasiga teskari proporsional tarzda o'zgarishini ko'rsatadi.

Avtonom investitsiya funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I = e - dR$$

Bu erda: I – avtonom investitsiya xarajatlari;

e – foiz stavkasi 0 ga teng to'lgandagi investitsiya xarajatlarining maksimal hajmi. U tashqi iqtisodiy omillar, resurs imkoniyatlari, er, foydali qazilma boyliklari va boshqalar bilan belgilanadi;

R – real foiz stavkasi;

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o‘zgarishga ta’sirchanligini miqdoriy belgilovchi empirik koeffitsient.

Grafikdan e nuqtasi shuni bildiradiki, banklar nolga teng foiz stavkasi bilan kredit berganlarida hamda ularning kredit resurslari cheksiz

Avtonom investitsiyalar grafigi

ko‘p bo‘lganda ham mamlakatdagi boshqa resurslari miqdorining cheklanganligi tufayli investitsiya xarajatlari ma’lum miqdor bilan chegaralanadi.

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz ctavkasidan boshqa omillar.

Akselerator modeli.

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo‘lib kutilayotgan sof foyda normasi hisoblanadi. Agar real foiz stavkasi bilan investitsiya xarajatlari miqdori o‘rtasida teskari bog‘liqlik bo‘lsa, kutilayotgan sof foyda normasi (KSFN) dinamikasi bilan investitsiya xarajatlari o‘rtasida to‘g‘ri bog‘liqlik bor.

Investitsiya xarajatlari dinamikasiga ta’sir etuvchi boshqa omillar quyidagilar kiradi:

1. Soliqqa tortish darajasi;
2. Ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o‘zgarishlar;
3. Mavjud bo‘lgan asosiy kapital miqdori;
4. Investirlarning kutishi;
5. YAAlpi daromadlarning o‘zgarishi.

Investitsiyalar hajmining YAMM yoki daromadlar darajasiga bog‘liqligini akselerator modeli aks ettiradi:

$I = f(Y)$, ya’ni investitsiyalar (I) YAMM (Y)ning funksiyasi ekan.

Akselerator modelining to‘liqroq ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$I = I_{reja} + \gamma Y$ bu erda:

$\Delta I = I_t - I_{t-1}$

$\gamma = \frac{\Delta I}{I} = \frac{I_t - I_{t-1}}{I_{t-1}}$

$$\Delta Y_t - Y_{t-1}$$

Ireja – rejalashtirilgan investitsiyalar; Y – YAİM (daromad) hajmi.

Akseletator modelini hisobga olib, investitsiya funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$I = e - dR + \gamma Y$$

YAİM hajmi oshishi korxonalar foydasining ko‘payishiga olib keladi. Korxonalar foydasi investitsiyalarning manbai ekanligini hisobga olsak, bu holatda investitsiya xarajatlari oshadi..

O‘zbekiston Respublikasida olib borilgan oqilona makroiqtisodiy siyosat natijasida yuzaga kelgan qulay investitsiya muhit yaxshilandi. jumladan siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning ta‘minlanganligi, soliq yukining pasaytirilishi, bozor infratuzilmasining rivojlantirilishi, bank tizimining mustahkamlanishi va bakk foiz stavkalarining pasaytirilishi, investorlarga keng imtiyoz va kafolatlar tizimining yaratilganligiga mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining o‘shishiga olib keldi.

Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Pul agregatlari.

Pul – iqtisodiyot sub‘ektlari mulkining bir turi bo‘lib, mulkning boshqa turlaridan ikki xususiyatiga ko‘ra farq qilad: birinchidan, pul yuqori likvidliliklar, ya‘ni qisqa muddatda, sezilarsiz sarf - xarajatlar bilan boshqa buyumga ayirboshlanish qobiliyatiga ega; ikkinchidan baholar o‘zgarmas bo‘lgan sharoitda pul yoki hech qanday daromad keltirmaydi.

Odatda pulning uch asosiy funksiyasi mavjud deb qaraladi.

Bular : 1) to‘lov vositasi (almashinuv vositasi); qiymat o‘lchovi vositasi, jamg‘arish (boylik to‘plash) vositasi.

Pulning yuqori likvidlili va qiymatni saqlab turishi xususiyatlar barcha turdagi to‘lov vositalarida bir xil emas. Naqd pullar va muddatsiz depozitlarning likvidlili djarajasi muddatli depozitlarga yoki veksellarga qaraganda yuqoriroq. SHu sababli pul massasi likvidlilik darajasining pasayib borishi tamoyiliga asoslangan agregatlarga bo‘linadi. Rivojlangan mamlakatlarda pul massasini

aniqlashda - M1; M2; M3; M4 deb belgilanadigan pul agregatlaridan foydalaniladi.

Pul agregatlarining tarkibi va miqdori turli mamlakatlarda o‘zaro farq qilish mumkin. Quyida umumlashtirib olingan pul agregatlari tarkibini keltiramiz:

“M0- bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklarining

Markaziy bankdagi rezervlari;

M1 = M0 + muddatsiz depozitlar, yo‘l cheklari va boshqalar;

M2 = M1 + (miqdori va muddati cheklangan) muddatli depozitlar va boshqalar ;

M3 = M2+(miqdori va muddati cheklanmagan) muddatli depozitlar va boshqalar”*

Makroiqtisodiy tahlilda M1 va M2 pul agregatlari eng ko‘p foydalaniladi. Pul agregatlarining dinamikasi turli sabablarga bog‘liq. Masalan, daromadlarning oshishi natijasida M1ga talab tezroq o‘ssa, foiz stavkasining o‘shishi natijasida M2 va M3ga talab M1ga nisbatan tezroq o‘sadi.

8.2. Pulga talabning klassik nazariyasi.

Pulning miqdoriy nazariyasi pulga bo‘lgan talabni almashinuv tenglamasi yordamida aniqlaydi:

$$M \cdot V = P \cdot Y$$

Bu erda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

P – baholar darajasi (baho indeksi); Y – real YAIM.

V doimiy bo‘lgan sharoitda almashtirish tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$M \cdot V^* = P \cdot Y \text{ (Fisher tenglamasi), bundan:}$$

$$P \cdot Y$$

$$M = \frac{P \cdot Y}{V^*}$$

$$V^*$$

Muomaladagi pul massasining o‘zgarishi, klassik nazariyaga ko‘ra, Y sekin o‘zgarishi tufayli asosan baholar darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat “pulning neytralligi” nomini olgan.

* Саидова Г., Шадыбаев Т. Макроэкономика Т., ИПАК «Шарк» 2003, 34 -с..

Monetaristlar qoidasiga ko'ra hukumat pul massasining o'sish sur'atini, real YAMMning o'rtacha o'sish sur'ati darajasida ta'minlab tursalar iqtisodiyotda baholar darajasi barqaror bo'ladi.

Fisher tenglamasidan tashqari bu tenglamaning boshqa bir shakli Kembrij tenglamasidan ham keng foydalaniladi:

$$M=k \times PY$$

Bu erda: $k= 1/V$ – pulning aylanish tezligiga teskari miqdor.

k - koeffitsientni nominal pul miqdori (M)ning daromadlar ($P \cdot Y$)dagi ulushini ko'rsatadi.

Kembrij tenglamasi turli darajada daromadli bo'lgan turlicha moliyaviy aktivlar mavjudligini va daromadni ularning qaysi biri ko'rinishida saqlashni tanlash imkoniyati mavjudligini ko'zda tutadi.

Pulga real talab quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$(M/P) D = k Y$$

Bu erda: M/R – “real pul qoldig'i”, “pul mablag'larining real zahirasi” deb nomlanadi.

Pulga talabning keynscha nazariyasi.

Pulga talabning Keyns nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi, pulni naqd ko'rinishda saqlashga kishilarni undovchi uch sababni ajratib ko'rsatadi:

transaksion sabab (joriy bitimlar uchun naqd pulga talab);

ehtiyotkorlik sababli (ko'zda tutilmagan holatlar uchun ma'lum miqdorda naqd pullarni saqlash);

spekulyativ sabab (foyda olish maqsadida qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun pulga talab).

Pul likvidlilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham aholi uni saqlashni afzal biladi. Likvidlilikning afzalligi nazariyasi ko'rsatadiki pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog'liq. Foiz stavkasi naqd pul vositalarini qo'lda ushlab turishning muqobil xarajatlari miqdorini, ya'ni, siz foiz olib kelmaydigan naqd pullarni qo'lda ushlab turgan sharoitda yo'qotadigan pul miqdorini bildiradi. Nonning narxi non talabi miqdoriga ta'sir qilganidek, naqd pullarni qo'lda ushlab

turish miqdori ham pul zahiralari talab miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini naqd pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.



Pulga talab grafigi

Real pul zahiralari talab funksiyasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$M/R = f(R)$$

Klassik va keynschilarga xos yondashuvlarni umumlashtirib, pulga talabning quyidagi omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) daromadlar darajasi;
- 2) pulning aylanish tezligi;
- 3) foiz stavkasi.

Agar klassik nazariya pulga talabni asosan, real daromad hajmi bilan bog'lasa, keynschilarda esa pulga talab asosan, foiz stavkasiga bog'liq deb hisoblanadi.

Pulning aylanish tezligini hisobga olmaganda, real pul qoldig'iga talab formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$(M/P) D = f(R, Y);$$

Bu erda: R – foiz stavkasi; Y – real daromad.

CHiziqli bog'liqlikni e'tiborga olsak, quyidagicha formula hosil bo'ladi:

$$(M/P)D = kY - hR$$

Bu erda: k va h – pulga talabning daromadlar va foiz stavkasiga ta'sirchanligini ifodalovchi koeffitsientlar; k – foiz stavkasi (real foiz stavkasi).

Real foiz stavkasi nominal foiz stavkasidan inflyasiya sur'atini ayirib topiladi.

Pul taklifi. Bank multiplikatori

Pul taklifi (M_s) o'z ichiga bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar (S) va

zarur bo'lganda (D) iqtisodiy agentlar bitimlar uchun ishlatishi mumkin bo'lgan depozitlarni oladi:

$$M_s = S + D.$$

Aksariyat mamlakatlarda davlat pul chiqarishda monopol huquqqa ega.. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markaziy bank ixtiyorida. “ Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to‘lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko‘rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarish mutlaq huquqiga ega”*. Ammo pul taklifini ko‘paytirish imkoniga yoki pul yaratish qobiliyatiga tijorat banklari ham ega.

Banklarning pul taklifini yuzaga keltirish qobiliyati depozitlarni majburiy zahiralash me‘yori bilan tartibga solib turiladi. Pul taklifi va majburiy zahiralash me‘yori o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi formula ko‘rinishida yozishimiz mumkin:

$$M = (1/rr) \times D$$

Bunda: M- pul taklifi hajmi; rr – majburiy zahiralash normasi ;

D - dastlabki depozit.

Keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, pul taklifi $1/rr$ koeffitsentiga bog‘liq bo‘lib, uni bank multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori, deb ataladi. U ushbu bank zahiralash normasida ortiqcha zahiralarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo‘lgan yangi kredit pullarining eng ko‘p miqdorini bildiradi.

Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Pul multiplikatori

Pul taklifining umumlashma modeli Markaziy bankning pul taklifidagi roli hamda pulning bir qismini depozitlardan naqd pullarga oqib o‘tishni hisobga olgan holda yoziladi. Bu model bir qator yangi o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga oladi. Bular:

- pul bazasi (rezerv pullar, yuqori quvvatli pullar) – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklari Markaziy bankda saqlaydigan

* Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки тўғрисида”ги Қонуни, 1995йил. 21 декабрь / Ўзбекистон банк тизимини ислох қилиш ва эркинлаштириш бўйича қонунчилик хужжатлари тўплами.Т.: Ўзбекистон, 2003., 18-б.

depozitlar summasi;

- deponentlash koeffitsienti - $C_r = S / D$

Pul bazasini MV va bank rezervlarini R deb belgilasak,

$$MB = C + R.$$

Pul taklifining kengaytirilgan modelini quyidagicha yozish mumkin:

$$C_r + 1$$

$$M_s = \frac{C_r + 1}{C_r + r_r} \cdot MB \text{ yoki } M_s = m \cdot MB$$

$$C_r + r_r$$

$(C_r + 1) / (C_r + r_r)$ nisbat pul multiplikatori deb yuritilib bir soʻmlik pul bazasi hisobiga necha soʻmlik pul taklifi yuzaga kelishini koʻrsatadi

$r_r = R / D$ miqdori esa – aholining nafaqat Markaziy Bank belgilab bergan majburiy rezerv normasiga, balki tijorat banklari saqlab turishni moʻljallanayotgan ortiqcha rezerv miqdoriga ham bogʻliq.

Demak, pul taklifi pul bazasi va pul multiplikatori miqdoriga bogʻliq ekan. Pul multiplikatori pul bazasining bir miqdorga oshishi natijasida pul taklifi qanday oʻzgarishini koʻrsatadi.

Pul bozorida muvozanat

Pul bozori modeli pulga talab va taklifni birlashtiradi.



Chizma real pul taklifi miqdoridagi foiz stavkasiga bogʻliq boʻlmagan vaziyatni koʻrsatadi. Shuning uchun real pul vositalari taklifi grafikda koʻrsatayotganimizdek vertikal chiziq koʻrinishiga ega boʻladi. Bu holat foiz stavkasi qanchalik oʻzgarishiga qaramasdan real pul taklifi miqdori oʻzgarmasdan qolgan vaziyatni aks ettiradi.

Baholar darajasini ham barqaror deb qabul qilamiz. Bu holatda real pul taklifi M^*/P^* ga teng va grafikda M_s toʻgʻri chiziq koʻrinishiga ega boʻladi.

Pul talabi berilgan daromad darajasida foiz stavkasiga teskari proporsional egri chiziq koʻrinishiga ega. Muvozanat nuqtasida pulga talab va pul taklifi oʻzaro teng, (9.2.-chizma).

Oʻzgarib turuvchi foiz stavkasi pul bozorini muvozanatda ushlab turadi. Foiz stavkasining oʻzgarishi natijasida iqtisodiy agentlar oʻz aktivlari tarkibini

o'zgartirgani tufayli pul bozorida muvozanatga erishish uchun vaziyatga ta'sir etib uni o'zgartirish zarur va mumkindir. Agar R juda yuqori bo'lsa, pul taklifi unga bo'lgan talabdan yuqori bo'ladi. Iqtisodiy agentlar o'zlarida to'planib qolgan ortiqcha naqd pullarni aksiya va obligatsiyalarga aylantirib, ulardan qutilishga intilishadi.





MD

M^*/P^* M/P M^*/P^* M/P

Real pul vositalari zahi- Pul bozorida muvozanat rasi taklifi grafigi modeli

YUqori foiz stavkasi, ta'kidlanganidek, obligatsiyalar kursining pastroq darajasiga mos keladi. SHu sababli, arzon obligatsiyalarni (kelajakda foiz stavkasi pasayishi oqibatida ular kursi o'sishini ko'zda tutib) sotib olish foydali bo'ladi.

Banklar, $M_s > M_d$ bo'lgani uchun foiz stavkasini pasaytira boshlaydi. Asta-sekin iqtisodiy agentlar o'z avtiylari tarkibini o'zgartirishi va banklar tomonidan foiz stavkasining o'zgartirilishi oqibatida pul bozorida muvozanat tiklanadi. Foiz stavkasi pasayib ketgan holatda teskari jarayon ro'y beradi.



M2d(Y2)

R1 R1

M1d(Y1) Md

M^*/P^* M/P M^*2/P^* M^*1/P^* M/P

Daromadlar darajasining Pul taklifining kamayishi oshishi natijasida pulga natijasida pul bozorida talabning o'zgarishi. zاناتning o'zgarishi.

Foiz stavkasi va pul massasi muvozanatli darajasining o'zgarib turishi pul bozorining ekzogen o'zgaruvchilari – daromadlar darajasi va pul taklifining o'zgarishi natijasida ham ro'y beradi.

Grafik ko'rinishda, bu, pul talabi va pul taklifi egri chiziqlarining siljishi sifatida namoyon bo'ladi (19.3. va 19.4. chizmalar).

Daromadlar darajasining Y1dan Y2ga qadar o'sishi (20-chizma) pulga talabni M1d dan M2d gacha oshishiga va foiz stavkasini R1dan R2ga qadar ko'tarilishiga olib keladi. Pul taklifining kamayishi ham foiz stavkasining ko'tarilishiga va muvozanat nuqtasining o'zgarishiga olib keladi.

Pul bozorida muvozanatni o'rnatish va saqlab turish mexanizmi qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvafaqqiyatli amal qiladi. Pul bozoridagi muvozanat tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat singari makroiqtisodiy muvozanatning muhim tarkibiy qismidir.

Davlat byudjetining mohiyati va funksiyalari.

Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining markaziy unsuri bo'lib makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Davlat byudjeti moliyaviy balans sifatida ikki qismdan iborat bo'lib, bu qismlarni sodda qilib daromadlar va xarajatlar deb atash mumkin.

Davlat byudjeti daromadlari soliq va soliq bo'lmagan tushumlar hisobiga shakllansada, makroiqtisodiy tahlilda u soliqlar hisobigagina shakllanadi deb qaraladi.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida iqtisodiyotga xarajatlar, markazlashgang

investitsiyalarni moliyalashtirish, ijtimoiy himoya, ijtimoiy soha, davlat boshqaruv va sud idoralarini moliyalashtirish moddolari mavjud.

Davlat byudjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transfert to'lovlari) ko'paytirish yoki qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari yoki byudjet siyosati tovar va xizmatlarning davlat xaridi, YAIMni taqsimlash va qayta taqsimlash, ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismidagi mutanosiblikni ta'minlash, ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam shakllarini ko'rsatish, baholar ustidan nazorat o'rnatish, eksport va import qilinadigan tovarlarga kvotalar o'rnatish va shuningdek, mamlakat aholisini himoya qilish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat.

Davlat byudjeti mablag'lari hukumatning daromadlarni va resurslarni qayta taqsimlash funksiyasini bajarishi uchun imkoniyat yaratadi.

Davlat byudjeti xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, 2000-2006 yillarda Davlat byudjeti xarajatlarining YAIMga nisbatan ulushi kamayib bordi 29,5 foizdan 20,2 foizgacha tushdi. Bu holat avvalo byudjet daromadlarining YAIMga nisbatan ulushi kamayganligi, shuningdek byudjet xarajatlarini optimallashtirish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirilishi bilan izohlanadi

Davlat byudjeti xarajatlarining YAIM ga 2005 yilda 22,5%gacha sezilarli bo'lmagan pasayishi markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari (YAIMga nisbatan 2004 yildagi 2,7%dan 2005 yilda 2,4%ga) va boshqa xarajatlarning (YAIMga nisbatan 2004 yildagi 5,6%dan 2005 yilda 5%ga) qisqarishi hisobiga ro'y berdi.

Iqtisodiyotni uchun xarajatlar 2005 yilda YAIMga nisbatan 3,0%ni, jami byudjet xarajatlariga nisbatan esa 13,3 % ni tashkil qildi. Ijtimoiy soha va ijtimoiy himoyaga ajratiladigan xarajatlarning biroz ko'payganligi kuzatildi. birgalikda) jami xarajatlar tarkibidagi ulushi 2004 yildagi 47,5%dan 2005 yilda 50,2%gacha

o'sdi.

2007 yilda davlat byudjeti xarajatlari YAIMga nisbatan 20,7 % ni tashkil etdi. Barcha rejalashtirilgan xarajatlarni ishtimoiy-iqtisodiy dasturlar uchun to'la hajmda moliyalashtirildi, davlat byudjeti xarajatlari prognozga nisbatan 109 % da bajarildi. Davlat byudjeti xarajatlarning ijtimoiy yo'nalishi saqlab qolindi (byudjet xarajatlarning 50 % i). Ijtimoiy muhofaza, ish haqi to'lovlari, nafaqalar va stependilar o'z vaqtida va to'laqonli moliyalashtirildi.

Maorifga yo'naltirilgan xarajatlarning ulushi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashga, umumiy xarajatlarning 59,4 %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 1,1 % ga oshdi.* Bu esa Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asosan kollejlarni va litseylarni sonining kengaytirilganligi natijasi hisoblanadi. Sog'liqni saqlashga xarajatlarni ijtimoiy xarajatlarning 22,4 %ini tashkil etdi (2006 y. 22,6 %).

2007 yilda "Ijtimoiy himoya yili" dasturini amalga oshirish munosabati bilan va aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish hamda ko'lamini kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida ehtiyojmand, nogiron va yolg'iz keksa odamlarga yordam ko'rsatish uchun byudjetdan 226,5 mlrd. so'm ajratildi.

Bu yillarda boshqaruv organlarini moliyalashtirish xarajatlarning YAIMdagi ulushi keskin o'zgarmadi va 0,5-0,6 % darajasida saqlanib qoldi.

Iqtisodiyotga qilingan xarajatlarni suv xo'jaligi ob'ektlari va aholi punktlari infratuzilmalari faoliyatini va zaruriy moddiy texnika taraqqiyotini ta'minlagan bo'lsa-da, jami xarajatlarni tarkibida xarajatlarni tarkibida ularning ulushi 2004-2007 yillar davomida qisqardi va 2007 yilda YAIMga nisbatan 2,3 % ni tashkil etdi.

Tahlil qilinayotgan davrda markazlashgan investitsiyalarning byudjet xarajatlariidagi ulushining kamayishi tendensiyasi barqaror bo'ldi.

Soliqlarning turlari va funksiyalari.

Soliqlar majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu

* Манба: 1. "Ўзбекистон Иқтисодиёти". Ахборот ва таҳлилий шарҳ 2007 йил. Т.: 2008 й. август., 23 б.

munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida yuzaga keladi.

Soliqlar fiskal, qayta taqsimlash, rag'batlantirish va nazorat funksiyalarini bajaradi.

Markazlashgan pul fondini va davlatning boshqa fondlarini majburiy tashkil etadigan soliq va yig'imlar turlarining yig'indisiga soliqlar tizimi deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga binoan soliqlar tizimi umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliqlar va yig'imlarni o'z ichiga oladi (10-jadval).

10-jadval

O'zbekiston Respublikasida soliqlar tizimi tarkibi

Umumdavlat soliqlari.	Mahalliy soliqlar va yig'imlar
1.Yuridik shaxslar daromadiga (foydasiga) soliq..	1.Mol-mulk solig'i.
2.Jismoniy shaxslar daromadiga soliq..	2.Er solig'i.
3.Qo'shilgan qiymat solig'i.	3.Yagona soliq..
4.Aksiz solig'i.	4.Infratuzilmani rivojlantirish solig'i.
5.Er osti boyliklaridan foydalanish solig'i.	5.Jismoniy shaxslarning transport yoqilg'isi uchun iste'mol solig'i.
6.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq..	6.Jismoniy shaxslar chetdan tovarlar olib kelganligi uchun yagona bojxona to'lovi.
7.Savdo va umumiy ovkatlanish tashkilotlaridan yalpi daromad solig'i.	7.Savdo huquq yig'imi, shu jumladan alohida tovarlarni turlarini sotish litsenziya yig'imi.
8.Bojxona boji.	8. Ishbilarmonlik bilan
9..Davlat boji.	shug'ullanuvchi.huquqiy hamda jismoniy shaxslarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi.
10.Kimmatli qog'ozlarni ruyxatdan o'tkazish yig'imi.	9.Boshqa to'lovlar.
11.Boshqa daromadlar.	

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga karab to'rt guruhga bulinadi:

- oborotdan olinadigan soliqlar;
- daromaddan olinadigan soliqlar;
- mol-mulk kiymatidan olinadigan soliqlar;
- er maydoniga karab olinadigan soliqlar..

Iqtisodiy mohiyatiga karab soliqlar egri va to'g'ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosta bulinadi.

To'g'ri soliqlarni bevosita soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, hakikiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. TO'gri soliq yukini boshqalarga ortish Holati bu erda bO'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan tulanadigan va barcha mulk soliqlar i kiradi.

“To'g'ri soliqlardan to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga koldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlar ning stavkalari kupaytirilsa, biznes imkoniyatlari kamaya borib, iqtisodiy rivojlanishni susaytiradi. Demak bu guruh soliqlarning stavkalari to'gridan-to'gri bozor iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langandir”*.

Egri soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini haqiqatdan ham byudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat) ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni xakikiy soliq to'lovchilar bu erda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) kiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi.

Egri soliqlar tarkibiga QQS, aksiz solig'i, bojxona boji, er osti boyliklaridan foydalanish soliqlari kiradi. YUqorida aytib utilganidek, to'gri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Umumiy soliq summasi o'zgarmagan holda birining stavkasini kamaytirish ikkinchisini stavkasini oshirishni talab etadi.

Davlat byudjetining soliqlarga ko'ra tarkibi.Soliq yuki

* Маликов Т.С. Солик ва соликка тортишнинг долзарб масалалари. Т.: “Академия”, 2002, 56-б.

Respublikamizda 1992 yilda jami 24 turdagi soliqlar va yigʻimlar amalda boʻlgan boʻlsa ularning soni 2000 yili 17 tagacha, 2006 –yilga kelib esa 12 tagacha qisqardi. Soliqlar turining qisqarishi ayrim soliqlarning bekor qilinishi, ayrimlarini esa qoʻshib yuborish-unifikatsiya qilish hisobiga taʼminlandi. Masalan ijtimoiy infratuzilma soligʻiga obodonlashtirish yigʻimi qoʻshib yuborilgan boʻlsa, 2006 yilda ekologiya soligʻi mutlaq bekor qilindi.


2000-2008 yillarda foyda soligʻi stavkasi 31 %dan 10 foizga tushirildi, SHuningdek, tadbirkorlik subʼektlaridan olinadigan yagona soliq unifikatsiya qilindi, yaʼni unga nobyudjet davlat jamgʻarmalariga oʻtkaziladigan majburiy toʻlovlardan yagona yoʻl jamgʻarmasi, maktab taʼlimini rivojlantirish jamgʻarmasiga ajratmalar ham qoʻshib yuborildi. YAgona soliq stavkasi 2007 yilda 13 % ga, 2008 yilda esa 8 % gacha, 2009 yilda 7 foizgacha pasaytirildi. Natijada davlat byudjetining soliq'larga koʻra tarkibida siljish

Bu chora tadbirlar iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish imkonini berdi.

Agar davlat byudjeti daromadlarining YAIMdagi ulushi 2000 yilda 28,5 % boʻlgan boʻlsa 2005 yilda 22,6 % ni 2008 yilda 22,5 % ni tashkil etdi (10.1. diagramma).

10.1.-diagramma

Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga soliq yuki dinamikasi (Soliq tushumlarining YAIMga nisbatan %i)



—♦— Иқтисодиётга солиқ юки динамикаси

Nobyudjet davlat jamg'armalarini ham qo'shib hisoblanadigan jamlanma byudjet daromadlarining YAIMdagi ulushi sifatida aniqlanadigan soliq yukining ham kamayishini kuzatishimiz mumkin. 2001-2007 yillar davomida iqtisodiyotga umumiy soliq yuki 40 foizdan 27 foizgacha pasaytirildi.

Soliq stavkalarini pasaytirish, iqtisodiyotga soliq yukini kamaytirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida umumiy soliq yuki kamaygani holda, byudjet daolmadlari ortib bordi, ularning tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berdi. Davlat byudjetiga soliq tushumlarining ko'payishi hukumatimiza ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi tadbirlarni amalga oshirishiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati va soliq islohotlarining asosiy yo'nalishlari.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq siyosati iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishda soliqlarning rolini oshirish, ularning rahbatlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish, iqtisodiyotga soliq yukini pasaytirish, soliq stavkalarini pasaytirish kabi yo'nalishlarda olib borilmoqda. To'g'ridan-to'g'ri soliq stavkalarining pasaytirilishi, kichik biznes sub'ektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimining joriy etilishi iqtisodiyotga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatmoqda.

Soliq islohotlari to'g'ridan to'g'ri soliqlarning stavkalarini kamaytirish, resurs to'lovlari va mulk solig'i bo'yicha tushumllarning davlat byudjetidagi ulushini oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bunday imtiyozlar ichki investorlarga ham berilishini ko'zda tutuvchi "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni imzolanishi bilan iqtisodiyotga investitsiyalar jalb etishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirishda yangi bosqich boshlandi. Ushbu farmondan ko'zda tutilgan maqsad "xo'jalik sub'ektlari

tomonidan ishlab chiqarishni muntazam modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yoʻnaltirilgan mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradigan ilgʻor zamonaviy uskunalar bilan taʼminlashga qaratilgan samarali ragʻbatlantirish tizimini yaratish...” dir.*

Xulosa qilib aytganda, respublikamizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati, soliq mexanizmining investitsiyalar hajmini oshirishga, ularni ustuvor tarmoqlarga jalb etishga, tarkibini takomillashtirish, barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash maqsadlariga tasirini yaxshilashga qaratilgan.

Nazorat savollari:

1. Qoʻshilgan qiymat, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot koʻrsatkichlarini tavsiflab bering.
2. Nima uchun YAIM koʻrsatkichini qayta hisoblashdan ehtiyot boʻlish zarur va bunga qanday erishiladi?
3. YAIMni xarajatlar boʻyicha hisoblashda qoʻllaniladigan komponentlar tarkibini sanab oʻting.
4. Iqtisodiy tebranishlarning sabablarini qanday izohlaysiz?
5. Ishsizlikning qanday turlari mavjud? Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?
6. Ishsizlikning tabiiy darajasi, ish bilan toʻliq bandlilik tushunchalariga tavsif bering.
7. Inflyasiyaning mohiyati faqatgina muomaladagi pul massasining ortiqchaligi bilan izohlanishi toʻgʻrimi?
8. Inflyasiyani tushuntirib berishga keyinchilarning va neoklassiklarning yondoshuvlari qanday farq qiladi?
9. Talab inflyasiyasi qanday sodir boʻladi?
10. Fillips egri chizigʻi qaysi koʻrsatkichlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatadi? Bu bogʻliqlik qanday tavsiflanadi?
11. Aksilinflyasiya siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.

* Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ишлаб чиқаришни модернизациялаш, техник ва технологик қайта жиҳозлашни рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони.// Халқ сўзи., 2007 йил 15 март, №52.

12. YAAlpi talabga va uning komponentlarini ta'rif bering.

13. YAAlpi talab egri chizig'i quyiga egilgan traektoriyaga ega bo'lishi sababi nimada?

14. YAAlpi talabning boshqa omillariga va ularning AD egri chizig'iga ta'siriga izoh bering.

15. YAAlpi taklif egri chizig'i shakli qaysi sabablarga ko'ra murakkab ko'rinishga ega?

16. Pulning mohiyatini tushuntiring va funksiyalariga izoh bering.

17. Pul agregatlari deganda nimani tushunasiz va uni belgilashda qaysi tamoyilga amal qilingan?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2017.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi PF-4947 – sonli farmoni // O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2017 yil, 6-son.

3. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 aprel 2017 yildagi 18 (778) – sonli qarori. – T.: O'zbekiston, 2017.

4. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016.56-b.

5. Mirziyoev SH. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik–har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.:O'zbekiston, 2017. 56-b.

6. Mirziyoev SH. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.:O'zbekiston, 2017. 488-b.

7. Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Makroekonomika.2-e izd. -SPb.: Piter, 2010, 7-14 s.s.

8. Мағығанова Е.А., SHapiro S.A. Makroekonomika. Ekspress kurs.: uchebnoe posobie- M.: KNORUS, 2010, 10-28 s.s.

9. Samuelson, Pol E., Nordxaus, Vilyam D. Makroekonomika, 18-e izd.: per. s angl,-M.: OOO «I.D. Vilyams», 2009, 29-57 s.s.

10. Abel E., Bernanke B. Makroekonomika. 5-e izd.- SPb.: Piter, 2008, 25-52 s.s.

11. Kiseleva E.A. Makroekonomika: Ekspres kurs: uchebnoe posobie.- M.: KNORUS, 2008, 11-22 s.s.

12. Agapova T.A., Seregina S.F. Makroekonomika: Uchebnik.-7-e izd. pererab. i dop.- M.: Izdatelstvo "Delo i servis", 2005. 14-22 s.s.

13. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q. X. Makroiqtisodiyot. (O'quv qo'llanma).-T.: O'zbekiston Yozubchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005. , 9-17 b.b.

14. Tarasevich L.S., Grebnikov P.I., Lusskiy A.I. Makroekonomika: Uchebnik.- 6-e izd. , ispr. i dop. –M.: Vyshee obrazovanie», 2006, 12-28 s.s.

15. Axmedov D.K., Ishmuxamedov A.E., Jumaev K., Djumaev Z.A. Makroiqtisodiyot, T.: O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004, 7-17 b.b.

2-Mavzu. Kamyob resurslar sharoitida mavjud resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlari

Reja:

1. Kamyob resurslar sharoitida mavjud resurslardan samarali foydalanish, ularni barqaror boshqarish.
2. Qishloq va suv xo'jaligida innovatsiyalar va ilmiy-texnik taraqqiyot.

Tayanch iboralar: Kamyob resurslar, samarali foydalanish, barqaror boshqarish, qishloq xo'jaligi, muhofaza qilish, tabiiy resurslar, iqtisodiy baholash, barqaror boshqarish, ikkilamchi resurslar, ekologik-iqtisodiy xususiyatlar.

1. Kamyob resurslar sharoitida mavjud resurslardan samarali foydalanish, ularni barqaror boshqarish

Ma'lumki, har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi va unda ishlab chiqarishni kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib mamlakatdagi investitsiya siyosati hisoblanadi. Bu o'z navbatida respublikada chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishni ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot sohalariga tashqi va ichki investitsiyalar oqimini faollashtirish iqtisodiy yuksalishning yangi bosqichini boshlab beradigan asosiy omil hisoblanadi.

Tabiat ob'ektlari ichida er resurslari alohida o'rinni egallaydi. U mamlakatimiz milliy boyligining eng muhim qismi, ishlab chiqarishni yuritishning asosiy negizi hisoblanadi. Har bir gektar tuproq qatlami o'zida bir tonnadan ortiqroq o'simlik va hayvonot organizmi hayotiyeligini ta'min etadigan, shuningdek odam uchun 99 foiz ozuqa beradigan bakterial biomassani saqlaydi. Demak, er xalqning eng asosiy va bebaho boyligi, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlovchi manbadir. SHu sababdan, er resurslaridan oqilona foydalanish natijasida jamiyat ham ijtimoiy, ham iqtisodiy samaraga erishishi muqarardir.

O'zbekiston Respublikasining Er kodeksiga (8-modda) asosan mamlakatimizda er fondidagi erlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga binoan quyidagi toifalarga ajratiladi:

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlar.

Aholi punktlarining (shahar, qishloq aholi punktlariga qarashli) erlari.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa uchun mo'ljallangan erlar(sanoat korxonalar, shu jumladan, kon sanoati, energetika korxonalariga ishlab chiqarish va yordamchi binolar, hamda inshootlar qurish uchun doimiy foydalanishga berilgan erlar)

Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan erlar (qo'riqxonalar, milliy bog'lar, botanika bog'lari, maxsus maqsadlar uchun berilgan erlar).

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik erlar.

O'rmon fondi erlari.

Suv fondi erlari (suv havzalari, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallab turgan erlar, suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan erlar).

Zaxira erlari (O'zbekiston er fondi tarkibiga kiruvchi, doimiy egallash va foydalanishga berilmagan er maydonlari).

Sanab ko'rsatilgan er toifalari yagona davlat er fondini tashkil etib, ular bir toifadan ikkinchisiga o'tib turishi mumkin, ya'ni ular belgilangan toifada qotib qolmaydilar. Masalan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlarning ba'zi qismlari aholi punktlari erlari toifasiga kiritilishi, yoki zaxira erlari fondidan sanoat, transport, aloqa erlarni toifasi hosil qilish mumkin. Erlarni bir toifadan boshqasi o'tkazish (O'zbekiston Respublikasining Er Kodeksidagi 9-moddaga asosan) erlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda amalga oshiriladi.

Er turli salbiy ta'sirlar natijasida biologik buziladi, ekologik ifloslanadi va dehqonchilik borasida tuproq hosildorligi pasayadi. Antropogen jarayonlar natijasida erning foydali fondi buziladi, hosildor erlar turli qurilishlar va yo'llar o'tkazishga olinadi, ekin erlarining maydonda yil sayin qisqaradi.

BMTning 1992-yili Rio-de-Janeyro shahrida atrof-muhit va uning rivojlanishiga bag'ishlab o'tkazilgan konferensiya ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha degradatsiyaga uchragan maydonning 1 foizi juda kuchli, 15 foizi kuchli, 46 foizi o'rtacha, 38 foizi esa engil degradatsiyaga uchragan maydonlarni tashkil etadi. SHu degradatsiya jarayonining 56 foizi suv eroziyasi tufayli, 28 foizi shamol eroziyasi, 12 foizi kimyoviy va 4 foizi fizikaviy eroziya oqibatida yuzaga kelgan.

Er boyliklarining bunday og'ir holatga kelishi, maydonning kamayishi aholi yashash sharoitida muammolar tug'diradi, oziq-ovqat mahsuloti kamayadi. Masalan, BMT ning 2002 yil 10-14 iyundagi Rimdagi kengashida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash borasidagi og'ir holatdagi mamlakatlarda har kuni 24000 odam ochlikdan o'ladi, 8 mln. aholi esa ochlik azobini tortmoqda.

Bunday og'ir holatning oldini olish uchun dunyo aholisining har biri tabiiy zaxiralarni saqlash, uning elementlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash, ekin maydonlarining biologik hosildorligini oshirish choralarini ko'rishlari kerak. CHora-tadbirlarga unumdor erlardan oqilona foydalanish, chorvadorlikni

rivojlantirishda o'simliklar qoplamini buzmaslik, er boyliklarini sanoat, kommunal-xo'jalik, turli yo'l, suv inshootlari, konchilik, neft-gaz sanoatlari, kimyoviy korxonalar ta'siridan, ularning zararli chiqindilari, oqovalari va zaharli gazlardan saqlash, foydali ekin maydonlarini yo'qotmaslik yo'llari bilan foydali er fondi va tuproq hosildorligini saqlash, aholini oziq-ovqat mahsulot bilan ta'minlash mumkin.

Erning hosildorligi tabiiy va inson omillari ta'sirida o'zgarib turadi, ya'ni yuqori yoki aksincha past bo'lishi mumkin. SHu sababli erning iqtisodiy bahosini uzoq muddatlar uchun etarli aniq darajada aniqlanmaydi, uni ma'lum vaqtlarda qaytadan aniqlab turish kerak bo'ladi. Erni iqtisodiy baholashda uning hosildorligiga va joylashgan o'rni (shaharlarga yaqinligi, sanoat markazlaridan uzoqligi, transport qatnovi yo'lga qo'yilganligi) hisobga olinadi. SHuningdek, erni iqtisodiy baholashda hosil bo'lgan iqtisodiy bahoga reliefning o'ydim-chuqurligi, gorizontal parchalanganligi, qiyaligi, tuproqning qalinligi, toshloqligi, mexanik tarkibi, tuproq turi, grunt suvlari sathining joylashuvi, tuproq tarkibida birlamchi tuz va gipsning mavjudligi, shamol kabi hodisalar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu omillarni tahlil qilish orqali tuproqni ball tizimida baholashga imkoniyat yaratiladi, so'ngra uning asosida er kadastri ishlab chiqiladi.

Erni iqtisodiy baholashda qishloq xo'jalik faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish, hamda er balansini tuzish, barcha erlarni hududiy birliklari bo'yicha toifalarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Hududiy birliklari bo'yicha erlarni toifalarga bo'lishda ikki guruhga ajratiladi:

xo'jalikning erdan foydalanish maqsadiga muvofiq xo'jalik uchun ajratilgan erlar, fermerlar va boshqalarga foydalanish uchun berilgan erlar birinchi guruhdagi erlarga kiradi;

ikkinchi guruhga xo'jalik jihatidan foydalaniladigan ekinzorlar, poliz, bog', o'rmon uchun ajratilgan erlar, o't almashlab ekish uchun ajratilgan er maydonlari, foydalanishga yaroqsiz er maydonlari, yaylov, pichanzor kabilar kiradi.

Qishloq xo'jaligida barcha erlarni shu tartibda toifalarga ajratish, hamda o'zaro bog'liq holda solishtirish yo'li bilan erning nisbiy bahosini aniqlash

mumkin.

Tuproqning sifati yoki mahsuldorligi uning turi, fizik-kimyoviy xususiyatlari, mexanik tarkibi, gumus qatlamining qalinligi va miqdori, grunt suvlari sathining joylashuvi kabi omillarga bog'liqdir. Tuproqdan katta hosil olish uchun yuqorida sanab o'tilgan qulay tabiiy xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Biroq tuproqning iqtisodiy mahsuldorligida bu omillar mezon bo'lib xizmat qila olmaydi. Tuproqdagi ekinlarning hosildorlik va maydon birligidan olingan daromad kabi ko'rsatkichlar erni iqtisodiy jihatdan baholashda eng ishonchli mezonlar hisoblanadi. Demak, erni iqtisodiy baholash ikki ko'rsatkich orqali amalga oshiriladi. Birinchi ko'rsatkich yalpi mahsulot bo'yicha olingan qiymat. Bu ko'rsatkich er maydon birligini tabaqalashtirilgan holda ishlab chiqarish xajmini samarali rejalashtirish, ekin maydonidan oqilona foydalanish, Er uchun o'rnatilgan soliq tizimini to'g'ri amalga oshirish kabi faoliyatlarda zarur. Ikkinchi ko'rsatkich bu sof daromad bo'yicha olingan qiymat bo'lib, ushbu qiymat bo'yicha erni iqtisodiy baholash maydon birligidan olinadigan daromadni bashoratlashda ma'qul keladi, hamda soliq rentalarini tabaqalashtirishda zarur omil hisoblanadi.

Jumladan, erni kadastrlash bo'yicha beriladigan ma'lumotlardan ham foydalanilgan holda er iqtisodiy baholanadi. Kadastr - ob'ekt miqdoriy ma'lumotlarning jamlanma sifatida tizimli majmuasi hisoblanadi. Kadastrning turlari ko'p bo'lib, ulardan Er kadastrida esa quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir:

- erga egalik qilish va erdan foydalanishni ro'yxatdan o'tkazish;
- erni miqdoriy hisobi;
- erning sifati;
- tuproq bonitirovkasi;
- erlarni iqtisodiy baholash.

Tuproqning unumdorligi bo'yicha nisbiy baholash tuproq bonitirovkasi hisoblanib, unda miqdoriy ko'rsatkichlar, ya'ni ballar qo'llaniladi. Bonitirovkada tuproqlarning eng muhim xususiyatlari va hosildorligini solishtirish, ya'ni bir tuproqni ikkinchi tuproqdan qanchalik yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlash imkonini beradi. Boshqacha aytganda, tuproq bonitirovkasi — tuproqning

hosildorligini ball hisobida agronomik inventarizatsiya qilish bo'lib, ball tuproqning asosiy xususiyatlari va o'rtacha hosildorligi, hamda tabiiy yaylovlarning mahsuldorligi bo'yicha belgilangan ko'rsatkichdir. Xullas, er kadastrining asosiy qismlaridan biri tuproq bonitirovkasi bo'lib, er fondini miqdor va sifat jihatidan hisobga olish hisoblanadi. Miqdoriy hisobga olishning mohiyati erdan foydalanish va ekinlarning turi bo'yicha maydonni taqsimlashdan iborat. Tuproq sifatiga mos keladigan hosildorlikni oldindan belgilashda, tuproqqa solinadigan mineral va organik o'g'itlar miqdorini aniqlashda tuproq bonitirovkasi asosidan foydalaniladi. Bonitirovka tuproqning hosildorligini oshirishdagi zaruriy chora-tadbirlarni, ya'ni eroziya va deflyatsiyaga qarshi, qurutish melioratsiyasi, fitomelioratsiya tadbirlarini amalga oshirish zarurligini hudud bo'yicha muntazam keng miqyosda qo'llashni asoslaydi.

Bonitirovka shkalasi baholash mezonlari bo'yicha farqlanadi. Bunda tuproqni baholashda tabiiy xususiyatlarining ayrimlaridan yoki barchasidan foydalaniladi. Tuproqning qishloq xo'jaligi ekinlari rivojlanadigan sharoitlarini belgilovchi xususiyatlari uni baholash jarayonida asos xususiyatlarga ega bo'lishi, xuddi o'sha tuproq boshqa turdagi ekinlar uchun esa noqulay xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini nazorat qilishda tuproqlarni xususiyatlari bo'yicha baholash mantiqan samaralidir. Baholanayotgan hududning reliefi, grunt suvlarining sathi va minerallashuv darajasi, iqlim xususiyatlari, gruntning suv o'tkazuvchanligi, yotqiziqlarning litologik tarkibi, erning o'lchamlari tuproqlarni baholashda jiddiy ta'sir etuvchi omillar bo'lganligi sababli ushbu omillarga katta ahamiyat beriladi.

Tuproq bonitirovkasi keng ma'noda tuproqlarning unumdorligi bo'yicha klassifikatsiyalashdir.

Professor L.A.G'afurovning fikricha, erlarni baholashda va yagona er solig'ini aniqlashda tuproq bonitirovkasi ballardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. [19].

Ushbu bonitirovka ballarini har bir baholash belgisi bo'yicha hisob-kitob

qilish quyidagi formula asosida amalga oshiriladi: [6].

$$B=(Z_f*100)/Z_m$$

Bunda: B - tuproq balli;

Z_f - biror belgi (gumus miqdori, azot, fosfor, kaliy va b.);

Z_m - shu belgining qiymati, u 100 ball hisobida olinadi.

Balli baholash tuproqlarning andazali ko'rsatkichlari asosida bajarilib, unda yuqori ko'rsatkichga ega tuproqdagi gumus miqdori 100% ga teng bo'ladi. Masalan, sug'oriladigan och bo'z tuproqda gumus miqdori, 1,3% bo'lsa, ushbu miqdor andazali tuproqda 2,3% teng olinsa, u holda yuqoridagi formula asosida quyidagi miqdorga ega bo'lamiz: $1,3 \times 100 : 2,3 = 57$. Bu misoldagi sug'orma och bo'z tuproq 1 ga maydonda 57 ballga teng.

Mutaxassislar tuproq bonitirovkasi ballarini tasniflash natijasida quyidagi shkalani taklif qilishgan (1-jadval). [19].

Ushbu klassifikatsiya yordamida tuproq unumdorligi turlicha bo'lgan erlarda etishtiriladigan qishloq xo'jalik ekinlarining o'rtacha taxminiy hosildorligini aniqlash uchun muayyan tuproq boniteti ballining bahosiga ko'paytirish kerak bo'ladi. Misol uchun, unumdor erda paxtaning o'rtacha hosildorligi 22,8 sentnerga va yuqoridagi 2-jadval asosida unumdor erning bonitet balli 57 ga teng bo'lsa, u holda o'sha erning 1 balli bahosi 0,4 ts/ga ga teng bo'ladi.

Tuproqning kichik turi bir necha xil bo'lgan hududda uning o'rtacha ballik bahosini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Tuproqning o'rtacha ballik bahosini aniqlashda tabaqalashgan ma'lumotlar asosida ko'p miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalaniladi, hamda u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$B_o=(B_1M_1+B_2M_2+\dots+B_nM_n)/(M_1+M_2+\dots+M_n)$$

Bunda: B_o - o'rtacha ball;

B_1, B_2, \dots, B_n - er massiviga kiruvchi tuproq boniteti;

M_1, M_2, \dots, M_n - tuproqlarning maydonlari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining istalgan er maydonlarini solishtirish va

baholashda hudud bo'yicha aniqlangan o'rtacha ball mezon hisoblanadi.

Mutaxassislar tomonidan, respublikamizdagi viloyatlar uchun quyidagi tuproq bonitirovkasining o'rtacha ballari aniqlangan. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi - 40-63, Xorazm - 60-70, Jizzax - 53-58, Buxoro - 58, Samarqand — 67, Navoiy —58, Sirdaryo — 53, Toshkent — 66, Andijon — 65, Namangan — 66, Farg'ona - 66, Qashqadaryo- 54, Surxondaryo - 68. Viloyatlar bo'yicha ushbu ballarning tebranishi katta.

Respublikamizdagi erdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish borasida ular oqilona muhofaza qilganlik uchun Er kodeksida (82-modda) iqtisodiy rag'batlantirish choralari o'rnatilgan bo'lib, unda er solig'i to'lash bo'yicha imtiyozlar berish, kredit berish bo'yicha imtiyozlar berish, byudjetdan mablag'lar ajratish kabi tadbirlardan iborat bo'lib, bu tadbirlar tuproq unumdorligini saqlash va tiklash, erlarni salbiy holatlardan muhofaza qilish, meliorativ holatini yaxshilash, yangi texnologiyani joriy qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirganlarga nisbatan qo'llaniladi.

SHuningdek, respublikamizda qishloq xo'jaligida erdan foydalanish suv bilan bevosita bog'liq xolda amalga oshadi va ayni paytda suv resurslarining o'ta tanqisligi vaziyati mavjud. Masalaning murakkabligi suv manbalarining asosiy qismi qo'shni davlatlar hududlarida shakllanishidir. SHuning uchun ham suv resurslari shakllanishi manbasi, sug'orish inshootlari, irrigatsiya va melioratsiya tizimining xususiyatlarini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligida turli xo'jalik yuritish shaklidagi korxonalar faoliyat ko'rsatishiga va asosiy mahsulot nodavlat mulkchiligi asosida faoliyat yurituvchi sub'ektlar tomonidan etishtirilishiga qaramay, suv resurslari va sug'orish inshootlarini xususiy mulk sifatida taqsimlash imkoniyatining yo'qligi sababli davlat mulkchiligi joriy etilgan.

SHu boisdan ham agrar tarmoqda investitsiya mablag'lari va turlarini yo'naltirishdan oldin ularning investitsiyalar jalb qilish layoqati, imkoniyati va bu mablag'larning qaytimlilik muddat va darajalarini batafsil o'rganishni talab etadi. Bu tadbirlar o'z navbatida tarmoq yoki korxonaning investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashning asosiy talablaridan biri

sifatida muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, agar investitsiya mablagʻlari maʼlum turdagi mahsulot ishlab chiqarishga yoʻnaltiriladigan boʻlsa, albatta shu mahsulot bozori, undagi talab va taklifning davriy oʻzgarib turish holatlarini tahlil va bashorat qilish lozim boʻladi.

SHu nuqtai-nazardan birinchidan, tabiat va jamiyatning har qanday ierarxik tuzilmasi, soha va tarmogʻi, resurslar majmui va xoʻjalik yuritish subʻektlari investitsiyalash obʻektlari hisoblansa, ikkinchidan, ularning iqtisodiyotdagi tutgan oʻrni va ahamiyatiga mos ravishda investitsiyalar kiritish borasida maʼlum bir darajada faollikka ega boʻladilar.

Binobarin, bizningcha, investitsion faollik tushunchasi yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy asoslar va quyidagi tamoyillarga koʻra ham iqtisodiy kategoriya sifatida tan olinishi lozim:

birinchidan, investitsion faollik insoniyatning talab va ehtiyojini qondirishga xizmat qiladigan har qanday tarmoq, soha va jabhada haqiqiy mavjud boʻlib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning salmoqli manbai va muhim shart-sharoiti sifatida oʻziga xos ahamiyat va oʻrin egallaydi;

ikkinchidan, investitsiyalarga boʻlgan talab hech qachon kamaymaydi va demak u har qanday jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi jarayonida muayyan hudud, tarmoq, soha yoki xoʻjalik yuritish suʻektlariga jalb etilishi, ularning davlat yoxud boshqa yuridik va jismoniy investorlarning moddiy-moliyaviy manfaatlariga javob beradigan daromad keltirishi nuqtai-nazardan uzluksiz davom etish xususiyatiga ega;

uchinchidan, ilmiy-texnik va innovatsion taraqqiyot hamda ularning doimiy takomillashib boruvchi ilgʻor yutuqlarini keng koʻlamda hayotga tatbiq etish jarayoni muayyan soha, tarmoq yoki xoʻjalik yuritish subʻekti faoliyatini investitsiyalashning takrorlanib turishini obʻektiv zaruriyatga aylantiradi;

toʻrtinchidan, investitsiyalar tarkiban pul, texnika va texnologiya vositalari, intellektual resurs va boshqa shunga oʻxshash moddiy-moliyaviy va nau-xau xarakterga ega vositalardan tashkil topib, ular ishlab chiqarish yoki xizmat koʻrsatish jarayoni samaradorligi darajasiga bevosita taʼsir etuvchi

ishtirokchi omillar sifatida o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi;

beshinchidan esa, nafaqat investitsiyaning o'zi, balki kengaytirilgan takror ishlab chiqarish talablari doirasida investitsiya jalb qilinadigan soha, tarmoq yoki korxonalarining turli yo'nalishlardagi investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji hech qachon kamaymaydi. Faqat u yoki bu tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va insonlarni iste'mol mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirish nuqtai-nazardan uning darajasi goh pasayib, goh yuksalib turishi mumkin.

YUqorida keltirilgan ilmiy-nazariy asoslarga ko'ra ham investitsion faollik tushunchasi keng va tom ma'noda iqtisodiy kategoriya talab va tamoyillariga javob beradi. Binobarin, har qanday iqtisodiy kategoriya o'zining aniq bir miqdor va o'lchov birligiga ega bo'lganidek, investitsion faollik kategoriyasi ham shu xususiyatga moyil bo'lib, qishloq xo'jaligi tarmoqlari darajasida uning ilmiy-nazariy jihatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 23 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi qarori asosida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida 2017 yilda 13 ta loyiha bo'yicha 181,49 mln. AQSH dollari miqdoridagi kredit mablag'larini o'zlashtirish rejalashtirildi. Mazkur loyihalar bo'yicha 2017 yilda 198,77 mln. AQSH dollari (109,5%) miqdorida kredit mablag'lari o'zlashtirildi. Jumladan:

1. Islom taraqqiyot banki ishtirokida "Xorazm viloyati Toshsoqa tizimidagi magistral sug'orish kanallarini qayta tiklash" loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 6 noyabrda PQ-1849-sonli qarori va Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 avgustda 282-sonli qarorlari asosida amalga oshirilmoqda. Umumiy qiymati 144,2 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, shundan 90,37 mln. dollari Islom Taraqqiyot Banki krediti, qolgan qismi esa O'zbekiston hukumatining ulushidir. 2017 yilda 17,98 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag'lari o'zlashtirildi. Jumladan Loyiha boshidan 146,2 km uzunlikda magistral va xo'jaliklararo kanallar qayta tiklandi, 263 dona gidrotexnik inshootlari

qurildi va qayta tiklandi. 4356341 m³ hajmda tuproq ishlari, 80029 m³ hajmda beton ishlari, 6999 m³ hajmda tosh ishlari va 230 tn. metallokonstruksiya ishlari bajarildi. 174286 m² maydonda graviy qoplamali yo‘l yotqizildi.

2. Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Amu-Buxoro mashina kanali tizimini qayta tiklash” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 28 martdagi PQ-2156-sonli va 2015 yil 25 avgustdagi PQ-2396-sonli qarorlari asosida amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 406,29 mln. AQSH dollariga teng bo‘lib, shundan Osiyo Taraqqiyot Banki krediti 216,75 mln. AQSH dollarni, YAponiyaning JICA fondining mablag‘i 108,97 mln. dollarni, O‘zbekiston hukumatining ulushi esa 80,57 mln. AQSH dollarni tashkil etadi. 2017 yilda 6,68 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirilishi hisobiga 15,72 km kanallar tozalandi, 68 dona gidrotexnik inshoot va 12 dona kuzatuv quduqlari qayta tiklandi, 59,9 ga erlar lazer yordamida taqsimlandi va 59,39 ga erlar chuqur haydaldi.

3. Jaxon banki ishtirokida “Janubiy Qoraqalpog‘istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 martdagi PQ-2324-sonli qarori asosida amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 376,714 mln. AQSH dollarini tashkil etib, shundan 161,8 mln. AQSH dollari O‘zbekiston hukumatining ulushi va 214,9 mln. AQSH dollari Jahon bankining qarz mablag‘laridir. 2017 yilda 2,58 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirilishi hisobiga, O‘ng qirg‘oq kanalida 3 dona suv to‘sovchi gidrotexnik inshootlar ta‘mirlanib tiklandi, 3 dona suv olish inshooti qurildi, 15,0 km uzunlikdagi qismi mexanizm yordamida tozalandi va Aqqamish kanalida bir dona uzunligi 106 m, D=1000mm bo‘lgan temir quvurli akveduk qurildi hamda kanalning 1,5 km yangi o‘zani ochilib beton quyishga tayyorlanib qo‘yilib, jami ushbu ob‘ekt bo‘yicha 560 ming m³ tuproq va 2,59 ming m³ beton ishilar bajarildi.

4. Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Surxondaryo viloyatida suv resurslarini boshqarishni yaxshilash (Xazarbog‘-Oqqopchig‘ay kanallar tizimini qayta tiklash)” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 7

apreldagi PQ-2332-sonli qarori asosida amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 122,72 mln. AQSH dollarini tashkil etib, shundan 33,17 mln. dollari O‘zbekiston hukumatining ulushi va qolgan qismi Islom taraqqiyot bankining qarz mablag‘laridir. 2017 yilda 0,53 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi. Hozirda loyiha doirasida bosh pudratchini aniqlash bo‘yicha tender jarayonlari ketmoqda.

5. Jaxon banki ishtirokida “Farg‘ona vodiysida suv resurslarini boshqarish. 2-bosqich” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 16 sentyabrdagi PQ-3282-sonli qarori asosida amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 228,2 mln. AQSH dollarini tashkil etib, shundan 83,3 mln. dollari O‘zbekiston hukumatining ulushi va 144,9 mln. dollari Jahon bankining qarz mablag‘laridir. Loyiha doirasida imzollangan qarz bitimi 2017 yilning 29 dekabrda kuchga kirdi.

6. Xitoy Halq Respublikasi Hukumati krediti ishtirokida “Qashqadaryo viloyatidagi “Do‘stlik 1-2-3” nasos stansiyasini qurish” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 avgustdagi PQ-2570-sonli qarori asosida amalga oshirilmoqda. Loyihasining umumiy qiymati 21,23 mln. AQSH dollarini tashkil etib, shundan 14,2 mln. AQSH dollari O‘zbekiston hukumatining ulushi, qolgan qismi Xitoy Xalq Respublikasi hukumatining qarz mablag‘laridir. 2017 yilda 4,64 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirilib, loyiha doirasida imzollangan shartnomada belgilan barcha asbob uskunalari Qashqadaryo viloyatiga keltirildi.

7. Xitoy Halq Respublikasi Hukumati krediti ishtirokida “Irrigatsiya tizimlarini kanallarni tozalash uchun ekskavator va buldozerlar bilan ta‘minlash” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 avgustdagi PQ-2394-sonli qarori asosida amalga oshirilmoqda. Loyihasining umumiy qiymati 14,22 mln. AQSH dollarini tashkil etib, shundan 3,16 mln. AQSH dollari O‘zbekiston hukumatining ulushi, qolgan qismi Xitoy Xalq Respublikasi hukumatining qarz mablag‘laridir. 2017 yilda 2,0 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi va loyiha doirasida respublikamizning barcha viloyatlariga 90

ekskavator va 15 buldozer keltirildi.

8. Xitoy Halq Respublikasi Hukumati krediti ishtirokida “Zemsnaryadlarni va ularga ehtiyot qismlarni keltirish” loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 11 martdagi PQ-2144-sonli qarori asosida amalga oshirilmoqda. Loyhasining umumiy qiymati 37,5 mln. AQSH dollari bo‘lib, 2017 yilda 6,62 mln. AQSH dollari o‘zlashtirildi va loyiha doirasida kanallarni va kollektorlarni tozalash uchun 17 zemsnaryadlar keltirildi.

9. “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish” loyihasi Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 21 sentyabrdagi PQ-2410-sonli qaroriga asosan amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 219,28 mln AQSH dollarini tashkil etib, shundan 150,0 mln dollari Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki ulushi, 34,20 mln AQSH dollari O‘zbekiston hukumatining ulushi, qolgan qismi esa loyiha tashabbuskorlarining ulushidir. 2017 yilda 46,0 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi. 2017 yilda dexqon va fermer xo‘jaliklariga hamda qishloq xo‘jaligi korxonalarining 73 ta sub-loyihasi moliyalashtirildi.

10. “O‘zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash” loyihasi Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 22 yanvardagi PQ-2113-sonli qaroriga asosan amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 28,33 mln AQSH dollarini tashkil etib, shundan 20,44 mln AQSH dollari Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi ulushi, 1,68 mln AQSH dollari O‘zbekiston Hukumatining ulushi, 5,24 mln dollari benefitsiarlar ulushidir. 2017 yilda 1,83 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi. Loyihaning 1-komponenti doirasida Laboratoriya jihozlari xaridi va qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

11. “O‘zbekistonning sutchilik sohasida qo‘shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish” (Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida) loyihasi Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2017 yil 22 fevraldagi PQ-2795-sonli qaroriga asosan amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 40,57 mln AQSH dollarini tashkil etib, shundan 24,58 mln. AQSH dollari Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasining ulushi. 2017 yilda 4,0 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi. 2017 yilda dexqon va fermer xo‘jaliklariga, hamda qishloq xo‘jaligi korxonalariga 22 ta sub-loyiha moliyalashtirildi, shundan: 613 bosh naslli qoramol xarid qilish maqsadida 14 ta sub-loyiha; 10 tonna sutni qayta ishlaydigan uskun xarid qilish maqsadida 2 ta sub-loyiha; 12 dona qishloq xo‘jaligi texnikasini xarid qilish maqsadida 4 ta sub-loyiha; veterinariya dori darmonlarini xarid qilish maqsadida 2 ta sub-loyiha moliyalashtirildi.

12. “Iqlim o‘zgarishiga moslashish va uning Orol dengizi havzasiga ta’sirini yumshatish dasturi” (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlari) loyihasi Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PQ-2784-sonli qaroriga asosan amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 20,71 mln AQSH dollarini tashkil etadi. 2017 yilda 4,0 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi. 2017 yilda loyihani amalga oshirish natijasida, 9,1 ga issiqxona qurish uchun 8 ta loyihaga, sutni qayta ishlash bo‘yicha loyihaga, 1 ta tovuq fermasini modernizatsiya qilishga va sok ishlab chiqarish loyihasi moliyalashtirilgan.

13. “Meva-sabzavotchilik tarmog‘ida qo‘shilgan qiymatni yaratish zanjirini rivojlantirish” loyihasi Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 martdagi PQ-2813-sonli qaroriga asosan amalga oshirilmoqda. Loyihaning umumiy qiymati 240.98 mln AQSH dollarini tashkil etib, shundan 154 mln AQSH dollari Osiyo taraqqiyot bankining ulushi. Loyiha bo‘yicha 2017 yilda 101,90 mln. AQSH dollari miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi. 2017 yilda loyihani amalga oshirish natijasida 93,6 ming tonna meva-sabzavotni qayta ishlashga, 77,1 ga issiqxona qurishga, 32,7 ming tonna quvvatlik muzlatkichli omborxonaga qurishga hamda 1983 ga intensiv bog‘lar yaratishga erishildi.

2. Ekologik-iqtisodiy xo‘jalik yuritish uslublari va boshqaruv tizimlari

O‘zbekistonda agrar sohani modernizatsiya qilish sharoitida, qishloq va suv xo‘jaligini iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlaridan himoyalash aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy yo‘naltirilgan tadbirlarni yanada rivojlantirishda, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki, ushbu davlatlarda mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan texnologiyalarga ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tibor beriladi.

Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish darajasi bo‘yicha dunyo miqyosida birinchi beshlik guruhiga Isroil (mamlakat YAIMdagi ulushi - 4,40 %), Finlandiya (3,88 %), Janubiy Koreya (3,74 %), SHvetsiya (3,40 %) va YAponiya (3,36 %) davlatlari kirgan. Darhaqiqat, bu davlatlar keyingi davrlarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, jumladan qishloq va suv xo‘jaligini innovatsiyalar yaratish va joriy etish asosida rivojlantirish nuqtai nazardan diqqatga sazovor ilg‘or tajribalar maskaniga aylanib bormoqdalar.

Jumladan, suv xo‘jaligini innovatsion model asosida rivojlantirish borasida Isroil davlatida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot natijalarini o‘rganish respublikamiz sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Masalan, suv manbalarining kamligi sababli Isroil qishloq xo‘jaligida suvdan oqilona va tejab foydalanish asosiy muammolardan sanaladi. Bu yo‘nalishda mazkur davlatning erishgan eng katta ilmiy-amaliy yutuqlaridan biri bu ekinlarni yomg‘irlatib, tomchilatib (ochiq maydonlarda) va aerosol (issiqxona, parnik va boshqa turli tipdagi yopiq inshootlarda) sug‘orish texnologiyalari 100 foiz kompyuterlashtirilgan. Natijada, birinchidan, har bir ekinning suvga bo‘lgan talabi belgilangan me‘yor va vaqtda qondirilishi tufayli kam yoki ortiqcha suv sarflash holatlariga butunlay barham berilgan. Ikkinchidan, azot, fosfor va kaliy o‘g‘itlari tegishli miqdor (doza)larda aralashtirilgan suyuq holda tayyorlanib, bevosita sug‘orish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekinlarning oziq ildizlariga beriladi. Bu jarayonda ko‘plab agrotexnologik ishlarning bir vaqtda bajarilishi ishlab chiqarish xarajatlarini keskin kamaytirish imkonini beribgina qolmasdan,

balki o'g'itlar, shuningdek boshqa tegishli turli mikroelementlarning ekinlar tomonidan vegetatsiya davrida to'liq o'zlashtirishini ta'minlab, tuproq tarkibining buzilishiga mutlaqo yo'l qo'ymaydi.

Umuman, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jahon tajribasida agrar sohani innovatsion rivojlantirish, fan va texnika-texnologiya yangiliklarini samarali joriy etishda davlatning imtiyozli muvofiqlashtirish va rag'batlantirish mexanizmlari asosiy o'rin egallab, muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish masalasi dolzarblashishining asosiy sabablari mamlakatimiz sharoitida uzoq yillar davomida egatlab sug'orish usulining mavjudligi natijasida o'rtacha ekin maydoni hisobiga ko'p suv sarf etilishi, erlarning turli darajada sho'rlanganligi bois sho'r yuvish tadbirlari uchun qo'shimcha suv talab etilishi, sug'orish tizimining FIK pastligi sababli manbadan olingan suvning suv iste'molchisiga etib borguncha 1/3 qismi yo'qotilishi kabi omillar sanaladi. Mamlakatimizda suvdan foydalanish holatiga e'tibor beradigan bo'lsak, ekin maydoni uchun suv sarfi miqdori 2014-2016 yillar oralig'ida 12,8 ming m³/ga dan 12,4 ming m³/ga orlig'ida saqlanib turganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Respublika bo'yicha 1 ga ekin maydoni uchun suv sarfi miqdori

Hududlar	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2016 yil 2014 y.ga nisbati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	16,1	14,8	16,2	100,6
Andijon viloyati	10,8	10,9	10,5	97,2
Buxoro viloyati	15,5	14,7	14,6	94,2
Jizzax viloyati	10,5	10,7	10,6	101,0
Qashqadaryo viloyati	11,8	10,9	10,9	92,4
Navoiy viloyati	12,1	12,2	11,9	98,3
Namangan viloyati	10,8	10,6	10,8	100,0
Samarqand viloyati	10,8	10,1	9,8	90,7

Surxondaryo viloyati	12,9	12,7	11,9	92,2
Sirdaryo viloyati	12,2	12,6	12,4	101,6
Toshkent viloyati	11,3	11,4	10,9	96,5
Farg‘ona viloyati	11,6	11,7	11,5	99,1
Xorazm viloyati	19,9	17,5	19,7	99,0
Respublika bo‘yicha o‘rtacha	12,8	12,2	12,4	96,9

Jumladan, Qoraqalpoqiston Respublikasida 1 gektar ekin maydoni uchun suv sarfi miqdori 2014 yilda 16,1 ming m³/ga ni, 2015 yilda 14,8 ming m³/ga ni hamda 2016 yilda 16,2 ming m³/ga ni tashkil etmoqda. Xorazm viloyatida esa, bu ko‘rsatkich 2014 yilda 19,9 ming m³/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, 2015 yilda 17,5 ming m³/ga ni hamda 2016 yilda 19,7 ming m³/ga ni tashkil etmoqda. 1 gektar ekin maydoni hisobiga eng kam suv sarf etadigan viloyatlar Andijonda o‘rtacha 10,8 ming m³/ga ni, Namanganda o‘rtacha 10,7 ming m³/ga ni hamda Samarqandda 10 ming m³/ga ni tashkil etmoqda. Respublikaning o‘rtacha ko‘rsatkichi 2014 yilda 12,8 ming m³/ga bo‘lgan bo‘lsa, 2015 yilda 12,2 ming m³/ga ni hamda 2016 yilda 12,4 ming m³/ga ni tashkil etgan holda 2016 yilda 2014 yilga nisbatan 3,1 foiz kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Respublikada bunday holatning mavjud bo‘lishi suvdan tejab foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi hamda yildan-yilga tomchilatib sug‘orish tizimining joriy etilish masalasi dolzarblik kasb etib boraveradi.


Suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni yanada kengaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-1958 qarori va ushbu qarorning ijrosini ta‘minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 21 iyuldagi “Tomchilatib sug‘orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish

texnologiyalarini joriy etish va moliyalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. SHuningdek "2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish" davlat dasturi qabul qilindi.

Respublikamizda "2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish" Davlat dasturi doirasida suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda asosan quyidagi suvni tejaydigan texnologiyalar qo'llanilib kelinmoqda:

- tomchilatib sug'orish tizimini qo'llagan holda sug'orish;
- polietilen plyonka qoplangan egatlar bo'yicha, qatorlar orasiga ishlov bergan holda sug'orish;
- ko'chma egiluvchan sug'orish quvurlari, sifonlar va shu kabilar bilan sug'orish.

Respublikamizda 2011-2015 yillarda sug'orishning zamonaviy usullari joriy etilgan ekin maydonlari (gektarda) 1-rasmda keltirilgan. CHizmadan ko'rinib turibdiki, 2011 yilda 3789 ga maydonga tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2015 yilda 18361 gektarni tashkil etgan. Ushbu davrda ko'chma egiluvchan quvurlar orqali sug'orish texnologiyasi 2011 yilda 839 ga, 2015 yilda esa 9596 gektar maydonga joriy etilgan. SHu bilan birga, egatlarga plyonka to'shab sug'orish texnologiyasi 2011 yilda 710 ga, 2015 yilda esa 11330 gektar er maydonida joriy etilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, suv resurslaridan samarali foydalanish uchun suv tejoychi texnologiyalarning joriy etilishi yildan-yilga ortib bormoqda.



1-rasm. Respublikamizda 2011-2015 yillarda sugʻorishning zamonaviy usullari joriy etilgan ekin maydonlari, ga

Mamlakatimiz qishloq xoʻjaligida qoʻllaniladigan ekinlarni sugʻorishning anʻanaviy usulida katta miqdordagi suv erga singib ketadi. Buning natijasida er osti suvlarining koʻtarilishi va erlarning meliorativ holatining yomonlashuvi ehtimoli ortadi. Respublikamizda suv resurslaridan tejamli va samarali foydalanish asosida nafaqat sugʻoriladigan maydonlarni koʻpaytirish, balki sugʻoriladigan erlarning meliorativ holati yomonlashuvining oldini olish mumkin.

Bizning fikrimizcha, qishloq xoʻjalik erlarining meliorativ holatini yaxshilashda quyidagi innovatsion yondoshuvlarga eʼtiborni yanada kuchaytirish lozim:

- ekin maydonlarini tayyorlashda lazerli tekislashga eʼtiborni kuchaytirish;
- ekin maydonlarini sugʻorishda suv sarfi boʻyicha ilmiy asoslangan meʼyorlarga rioya etilishini taʼminlash maqsadida zamonaviy suv oʻlchash asboblari fermer xoʻjaliklari faoliyatiga keng joriy etish;
- meliorativ holati yomonlashgan erlarda erlarning meliorativ holati yaxshilanishiga taʼsir koʻrsatuvchi ekin turlarini ekish;

- qishloq xo'jaligiga sug'orishning tejamkor va zamonaviy usullarini joriy etishni kengaytirish va hokazo.

Har bir iste'molchining suv olish joylari suv o'lchash vosita va inshootlari bilan jihozlanishi, suv oluvchi va etkazib beruvchi o'rtasidagi ajratilgan limit doirasida tuzilgan shartnomaning yuritilishi hamda uning bajarilishini ta'minlanishi suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Bunda har bir iste'molchining qancha suv olayotganligidan xabardorligi va mas'ulligi muhim omil bo'ldi.

Suv tejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etishni tashkillashtirish, jumladan:

- zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish. Mazkur yo'nalishda respublika bo'yicha o'tgan yillar davomida 18,5 ming gektar maydonga tomchilatib sug'orish tizimi, 18,4 ming gektarga egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish, 16,3 ming gektarga egatlarga plenka to'shab sug'orish usullari joriy etilib, samarali foydalanib kelinmoqda;

- amaldagi keng tarqalgan ananaviy sug'orish texnologiyalarining ham suvni tejash imkoniyatlaridan keng foydalanishni tashkil etish. Bular ichida respublika bo'yicha keng qo'llaniladigan egatlab sug'orish usulini – egat oralatib, kalta egat olib (50-100 metr), sharbat usulida sug'orish, ketma-ket navbatlab sug'orish va boshqa usullari keng qo'llashga e'tibor kuchaytirilmoqda;

- noananaviy yangi sug'orish texnologiyalarini targ'ib qilish. Bular qatoriga subirrigatsiya, diskret sug'orish, polimer gidrogellar yordamida sug'orish, mulcha yordamida sug'orish, yomg'ir latib sug'orish, suspenziya usulida sug'orish, turli tenzometrlar va sug'orishni programmashtirish va boshqa yo'nalishlarda amaliy ilmiy dala tajribalari olib borilmoqda;

- agrotexnologiyalarni suv tejamkorlik talablari asosida tashkil etish. Qishloq xo'jaligi ekinlari qator oralariga ishlov berishni nam saqlash talablari asosida amalga oshirish.

Bundan tashqari, sohaning muhimligidan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan chet el investitsiyalarini ham jalb etish ishlariga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Hozirda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Saudiya rivojlanish fondi, OPEK fondi, Quvayt fondi, Xitoy Xalq Respublikasi Eksimbanki kabi yirik moliyaviy institutlar, shuningdek YAponiya, SHveysariya, Germaniya va boshqa davlatlarning xalqaro hamkorlik tashkilotlari va agentliklari kabi donorlarning investitsiyalari ishtirokida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. So'ngi 10 yil mobaynida sohaga umumiy qiymati qariyb 1,5 mlrd. AQSH dollarga teng bo'lgan investitsiya mablag'lari jalb etilgan.

Suvdan foydalanishni samarali tashkil qilish tadbirlarini amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz miqyosida yillik foydalanilayotgan suvlarning umumiy miqdori mustaqillikdan avvalgi davrdagi 64 mlrd.m³ dan o'rtacha 51 mlrd.m³ gacha yoki 20 foizga kamaytirilishiga erishildi. Qishloq xo'jaligi misolida ko'riladigan bo'lsa, xuddi shu davr ichida 1 gektar maydonni sug'orish uchun sarflangan o'rtacha 18 ming m³ suv, bugungi kunga kelib 10,5 ming m³ yoki 42 foiz kamayishiga erishildi.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida suv sarfi juda yuqoriligi sababli tejamkor texnologiyalarni qo'llashni jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Suvni tejavchi texnologiyalar yordamida sug'orishda suvning umumiy tejalishi 1 gektar g'o'za uchun 11,7 ming m³ni, 1 gektar bug'doy uchun 6,6 ming m³ ni, 1 gektar bog' uchun suvning umumiy tejalishi 11,4 ming m³dan iborat bo'ladi. SHuningdek, tomchilatib sug'orishda mineral o'g'itlar 30-40 foiz tejaladi, mahsulot hosildorligi an'anaviy sug'orish bilan solishtirganda hosildorlikning 30-70 foiz oshadi.

Mamlakatimizda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo'lishi va bajarilishi talab etiladi:

- davlat innovatsiya siyosati – O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari tomonidan mamlakatning innovatsion strategiyasi maqsadlari va ustuvor innovatsion dasturlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi va belgilanishi;

- investitsiya salohiyati (davlat, tarmoq, korxonalar va tashkilotning) – turli ko'rinishdagi resurslar yig'indisi (moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va boshqalarni qamrab olgan holda);

- innovatsiya sohasi – innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o‘z ichiga qamrab oluvchi innovatsiya mahsulot (ish, xizmat)larini ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning faoliyat sohalari;

- innovatsiya infratuzilmasi – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta’sir ko‘rsatuvchi turli muassasalar (innovatsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o‘quv-biznes markazlari, konsalting va injiniring kompaniyalari, reyting baholovchi agentliklar va boshqa maxsus tashkil etilgan muassasalar);

- innovatsiya dasturi (korxonalar, tarmoqlar, hududlar, davlat, mintaqalar, davlatlararo) – innovatsiya loyihalari resurslari, ijrochilari va ularni amalga oshirish muddatlari bo‘yicha kelishilgan hamda yangi turdagi mahsulot (texnologiya)larni o‘zlashtirish va joylashtirish bo‘yicha vazifalarning samarali hal etilishini ta’minlovchi innovatsion loyihalar va tadbirlar kompleksi.

Suv xo‘jaligida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning muhim shakllaridan biri innovatsiyalar bozoriga ilmiy - texnik mahsulotlarni kiritishni, axborot-maslahat ta’minotini, loyihalar ekspertizasini, takliflar va buyurtmalarni, tajriba, ishlab chiqarish bazalarini taraqqiy ettirishni ko‘zda tutadigan innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hisoblanadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 9 dekabrda «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014. - 50-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrda «Erlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3932 sonli Farmoni. - www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 19 martda «2008-2012 yillarda sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi to‘g‘risida» gi PQ-817-sonli Qarori. - www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi «2013-2017 yillar davomida sug‘oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-1958-sonli Qarori. - www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. - Toshkent, 2017.

6. CHoriev Q.A. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar joriy qilish tizimini shakllantirish va rag‘batlantirish istiqbollari (uslubiy tavsiyalar). - Toshkent, 2014. - 30 b.

7. Umarov S.R. Suv xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish yo‘llari. - Monografiya. - T.: Fan va texnologiyalar, 2017. - 177 b.

8. Muxitdinova N.K. Metodologiya innovatsionnogo razvitiya natsionalnoy ekonomiki. - Monografiya. - T.: Fan va texnologiyalar, 2016. - 188 b.

9. Umurzoqov O‘.P., Abdurahimov I.L. Suv xo‘jaligi menejmenti. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. - II-jild. – 469 b.

10. Umarov S.R. Suv xo‘jaligi tizimida investitsion faollikni oshirishning asosiy yo‘nalishlari. - J. Iqtisodiyot va ta‘lim, 2016. - №6. – B. 177-182.

11. Internet saytlar: www.stat.uz, www.agro.uz, www.lex.uz

2-mavzu. Raqamli iqtisodiyotning biznes va ijtimoiy sohadagi o‘rni va ahamiyati

1. Raqamli iqtisodiyot: elektron biznesni boshqarish asoslari.
2. Elektron savdo (internet savdo) ning rivojlanish xususiyatlari.
3. Iqtisodiyotni raqamlashtirish ko‘rsatkichlari.

Tapskot 1994 yilda nashr etilgan «Digital Economy» modeli bizni va bizning hayotimizni keskin o‘zgartirib yubordi. Raqamli innovatsiyalarni, jumladan, bulut, mobil aloqa va sun‘iy intellektni yanada rivojlantirishning tub mohiyatda aholining farovonligini oshirish yotadi. [15].

Globalashuv jarayonida mamlakatlar raqobatbardoshligini belgilashda iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotning o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning qaysi bir tarmoq yoki sohasiga nazar tashlamaylik, barchasida raqamli texnologiyalarning o'rnini ko'ramiz. Mamlakat bank tizimidagi xizmatlardan tortib, davlat xizmatlari darajasida ham innovatsion raqamli texnologiyalarning ulushini ko'rishimiz mumkin.

Ammo dunyo mamlakatlarning barchasida ham raqamli texnologiyalarning rivojlanishi uchun yaratilgan sharoitlar bir xil emas. Jumladan, rivojlanayotgan hamda o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda internetga ulanish sifatining yuqori emasligi hamda internet narxlarining balandligi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. SHuningdek, aholining raqamli texnologiyalardan foydalanishga tayyor emasligi, bilim darajasining yuqori emasligi, alohida e'tibor talab qiladigan muammolardan asosiysi hisoblanadi. *"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"* ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018 yil

Quyida biz rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni o'rgandik va tahlil qildik.

Raqamli iqtisodiyotning qo'llanilish yo'nalishlari, turlari hamda mamlakatlarda rivojlanish darajasini tahlil qilishdan oldin raqamli iqtisodiyot tushunchasining mazmun-mohiyatini ko'rib chiqish lozim.

Eng keng ma'noda «raqamlashtirish» jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyasiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. Axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalari kiradi.

Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V.Ivanov «Raqamli iqtisod – haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit» – deb ta'rif bergan.

Tomsk davlat universitetining professori, R.Meshcheryakovning fikricha «raqamli iqtisod» atamasiga ikkita yondashish mavjud deb hisoblaydi. Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning va elektron tovar va xizmatlar eksklyuziv domen tavsiflovchi raqamli iqtisodiyot: birinchi yondashuv «klassik» deb nomlanib, klassik misollar – teletibbiyot, masofaviy ta'lim, dori-darmonlarni sotish (filmlar, televizorlar, kitoblar va boshqalar).

Ikkinchi yondashuv: «raqamli iqtisodiyot» ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir. M.L. Kalujskiy raqamli iqtisodiyot – iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir deb ta'riflagan. Manbalarda keltirilishicha «Raqamli iqtisodiyot» iqtisodiyotning bunday turi ma'lum darajada amalda ishlaydigan turdagi model hisoblanadi.


Raqamli iqtisod – bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u erda ma'lum bir kiber-jismoniy (kiberfizicheskaya) tizim paydo bo'ladi. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimidir. SHuningdek, raqamli iqtisod rasmiylashtirilishi mumkin bo'lgan barcha narsani qamrab olishi mumkin, ya'ni mantiqiy sxemalarda namoyon bo'ladi. Hayotning o'zi esa bu «narsalarni» ishlab chiqarish, tarqatish, almashtirish va iste'mol qilish tizimiga aylantirishga imkoniyat yaratadi. Haqiqatdan ham insonning ruhiy haqiqatida joylashgan dunyoning virtual qismidan oldin ishlab chiqarish kuchi bo'lmagan, yangi g'oyalar va mahsulotlar yaratilgan muhit emas edi.

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida deduksiya, induksiya, analiz hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, internetdan hamda kompyuterdan foydalanish darajasi rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar misolida qiyosiy tahlil qilindi. Tizimli tahlil asosida statistik guruhlash hamda ekspert baholash usullaridan ham unumli foydalanildi.

YUqorida ko‘rganimizdek, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish samaradorligi asnosida internetning ishlash sifati va narxi yotadi. SHu sababli ham, sputnikdan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan rivojlangan mamlakatlarda internet sifati va narxi muqobil bo‘lib hisoblanadi.

Kolin Klark va boshqalar tomonidan qurilgan milliy hisoblar tizimi XX asrning ikkinchi yarmining farovonligiga oid hujjatlarga katta hissa qo‘shdi va yordam berdi. XXI asrda axborotning qadr-qimmatini hisobga olish hal qiluvchi masala hisoblanadi. Axborotni tabiiy ravishda ishlab chiqarish jamoat manfaatlariga qaramay, qimmat turadi. Bundan tashqari, XX asr boshlang‘ich iqtisodiyoti, masalan, boshlang‘ich, ikkinchi darajali va uchinchi tarmoqlar o‘rtasida, uy xo‘jaliklari va bozor iqtisodiyoti o‘rtasidagi farqlar tobora ahamiyatsizdir. Ushbu o‘zgarishlar yangi siyosiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishidagi ikkinchi muhim omil real iqtisodiyot sektori bilan birgalikda uy xo‘jaliklarining ham internet tarmog‘iga ulunganligi ham muhim o‘rin egallaydi.



1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda uy xo‘jaliklarining internetdan foydalanish darajasi: 2016 yil

Manba: Sifrovaya ekonomika. Kratkiy statisticheskiy sbornik. Moskva 2018.

Jumladan, Koreya Respublikasida uy xo‘jaliklarining internetdan foydalanish darajasi 2016 yilda 99 foizni, YAponiyada 97, Fransiyada esa 86 foizni tashkil etishini ko‘ramiz. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich


oʻrtacha 55-60 foizni tashkil etadi. Uy xoʻjaliklarining internet tarmogʻiga ulanganlik darajasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanganidan dalolat beradi.

1-jadval

Aholining raqamli yangiliklardan xabardor ekanligi: 2016 yil (16-74 yoshdagi aholi oʻrtasida, foizda)

Mamlakat	Kompyuter hamda pereferey aloqa vositasi oʻrtasida maʼlumotning uzatilishi	Elektron jadvallar bilan ishlash
Buyuk Britaniya	55	43
Germaniya	62	38
Italiya	43	31
Finlyandiya	67	52
Fransiya	59	40
CHexiya	55	39
SHvetsiya	63	47
Estoniya	53	44

SHuningdek, kompyuter hamda pereferey aloqa vositasi oʻrtasida maʼlumotning uzatilishi hamda elektron bazalarda mustaqil ishlash imkoniyatini ham beradi. Jumladan, elektron jadvallar bilan ishlash koʻnikmasiga Buyuk Britaniyada 43 foiz, Finlyandiyada esa 52 foiz foydalanuvchilarga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bu koʻrsatkich 20-25 foizni, oʻtish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda oʻrtacha 10-12 foizni tashkil etadi. Albatta, bunday mamlakatlarda aholi innovatsion texnologiyalar borasidagi bilimini oshirishga muhtoj.



2-rasm. Aholi o'rtasida internetdan foydalanmaslik sabablari

Manba: Sifrovaya ekonomika. Kratkiy statisticheskiy sbornik. Moskva 2018 yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan biri bo'lgan Qozog'istonda AKT hamda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga nazar tashlasak. Qozog'istonda «Elektron hujjat va raqamli imzo to'g'risida», «Axborotlashtirish to'g'risida», «Axborot va axborot himoyasi to'g'risida» gi qonunlar va axborotning tengsizligini kamaytirish bo'yicha davlat dasturlari singari ko'pgina qonunchilik va me'yoriy hujjatlar; sanoatni innovatsion rivojlantirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etildi.

«Global axborot texnologiyalari bo'yicha 2010-2011 yildagi hisobot» xalqaro jamoatchilikning milliy raqobatbardoshligi uchun AKTning ahamiyati va bu sohadagi taraqqiyot strategiyasi milliy taraqqiyotni monitoring qilish vositasi bo'lib xizmat qildi. Qozog'iston Ozarbayjonni Hamdo'stlikning eng yaxshi ijrochisi deb topdi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari orasida Qozog'iston hozirgi paytda reytingning yuqori qismida yagona MDH vakili hisoblanadi va u 70 o'rinni egallab turibdi. Qozog'iston hukumati Internetdagi mavjudligi (24-chi) va uning fuqarolari bilan hamkorlik darajasi (18-chi) sifati diqqatga sazovordir.

Jahon xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotning asosiy omili bo'lgan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor berishni talab etadi:

- Rivojlanayotgan mamlakatlarda internet tezligini oshirish hamda narxini optimallashtirish;
- aholining kompyuter hamda kompyuter dasturlari bilan ishlash bilim va koʻnikmasini oshirish. Jumladan, tekin kompyuter kurslarini tashkil etish;
- elektron savdo maydonchalari faoliyatini rivojlantirish, elektron hujjat almashish tizimini takomillashtirish;
- rivojlangan mamlakatlarda esa aholiga innovatsion raqamli texnologiyalar: krepto valyutalar, davlat xizmatlarining innovatsion turlari (e-hukumat) haqida koʻproq va kengroq maʼlumot berish;

YUqoridagilarni amalga oshirish jahon xoʻjaligida raqamli iqtisodiyotning oʻrnini oshirishga, axborot almashinuv tizimini tezlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, uy xoʻjaliklarining internet tarmoqlaridan keng foydalanishi tarmoq va sohalarning samaradorligi oshishida hamda vaqt sarfining qisqarib, iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarning ulushishi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dean, D. And Zwillenberg, P., (2012). The Internet Economy in the G-20.bcg.perspectives.
2. The New Digital Economy. How it will transform business. Oxford economics.(pp.1-7).
3. Kriptograficheskie protokoly v sistemax s ogranichennymi resursami / R.V. Mesheryakov *i dr.+ // Vychislitelnye tehnologii. 2007. 12.1. S. 51-6.
4. Sifrovaya ekonomika: mify, realnost, perspektiva V.V. Ivanov, G.G. Malinetskiy. Rossiyskaya akademiya nauk, Moskva, 2017.
5. Kalujskiy M.L. Marketingovye seti v elektronnoy kommersii: institutsionalnyy podxod / M.L. Kalujskiy. – M.; Berlin: Direkt-Media, 2014. – 402 s.
6. Sidorova O.V.(2011).Opredelenie stepeni gotovnosti strany k elektronnoy ekonomike. Journal “ Kreativnaya ekonomika” 89-93.

7. Programma snijeniya informatsionnogo neravenstva v Respublike Kazaxstan na 2007-2009 gody. Almaty: Gылым.(pp.34-36).

8. Gosudarstvennaya programma po forsirovannomu industrialno-innovatsionnomu razvitiyu Respubliki Kazaxstan na 2010 – 2014 gody. utverjdenная Ukazom Prezidenta Respubliki Kazaxstan. Almaty: Gылым.(pp.5-10).

9. Programma po razvitiyu informatsionnykh i kommunikatsionnykh tekhnologiy v Respublike Kazaxstan na 2010 - 2014 gody. Almaty: Gылым.(pp. 3-7).

10. Otchet NIR (2012): Razrabotka rekomendatsiy po okazaniyu kompleksnykh elektronnykh kommercheskix uslug naseleniyu na osnove razvitiya IKT .(pp.14-18).

11. Zakon Respubliki Kazaxstan «Ob elektronnom dokumente i elektronnoy sifrovoy podpisi». Almaty: Gылым.(pp.11-23)

12. Soumitra Dutta, Irene Mia. (2011). The Global Information Technology Report 2010–2011. (pp. 331-391). Geneva: World Economic Forum.

13. Sifrovaya ekonomika. Kratkiy statisticheskiy sbornik. Moskva 2018.

14. John Quiggin. National accounting and the digital economy. Economic Analysis and Policy. Volume 44, Issue 2, July 2014, Pages 136-142

15. Chihiro Watanabeab, KashifNaveeda Yuji Touc , Pekka Neittaanmäkia . Measuring GDP in the digital economy: Increasing dependence on uncaptured GDP. Technological Forecasting and Social Change, Volume 137, December 2018, Pages 226-240.

Alekseev I.V. Sifrovaya ekonomika: osobennosti i tendensii razvitiya elektronnoy vzaimodeystviya // Aktualnye napravleniya nauchnykh issledovaniy: ot teorii k praktike : materialy X Mejdunar. nauch.–prakt. konf. (Sheboksarы, 18 dek. 2016 g.). V 2 t. T. 2 / redkol.: O.N. SHirokov *i dr.+ – Sheboksarы: SNS «Interaktiv plyus», 2016. – S. 42-45. – ISSN 2412-0510.

IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot

Mavzu: Makroiqtisodiyot. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari

1-masala

Jadval ma’lumotlari bo‘yicha quyidagilarni hisoblang:

- a) xarajat oqimlari bo‘yicha YAİM hajmi;
- b) daromad oqimi bo‘yicha YAİM hajmi (MHTning eski talqiniga ko‘ra);
- v) SIM hajmi;
- g) MD hajmi.

Hisob	Mrld. pul birl.
Korporasiyalarning taqsimlanmagan foydasi	10
Sof eksport	20
Dividendlar	105
Korporatsiyalar foydasiga soliq	10
Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi	1000
Alohida qo‘yilmalardan daromad	340
Foiz	400
Ijara to‘lovi	25
YAlpi xususiy ichki investitsiyalar	610
YOllanma ishchilarning ish haqi	3140
Biznesga bilvosita soliqlar	400
Iste’mol qilingan kapital hajmi	500
SHaxsiy iste’mol xarajatlari	3300

Echish:

$$a) YAİM = S + G + I + X_n = 3300 + 610 + 1000 + 20 = 4930$$

bu erda:

S – iste'mol xarajatlari,

G – tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi,

T – yalpi investitsiyalar,

X_n – sof eksport.

b) Daromadlar bo'yicha YAIMni Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi (10), dividendlar (105), Korporatsiyalarning foyda soliqlari (10), alohida qo'yimalardan daromadlar (340), foizlar (400), ijara to'lovi (25), yollanma ishchilarning ish haqi (3 140) biznesga bilvosita soliqlar (400), iste'mol qilingan kapital hajmi (500)ni qo'shgan holda aniqlaymiz. Daromad bo'yicha YAIM = 4 930 mlrd. pul birligi. Xarajat bo'yicha YAIM daromad bo'yicha YAIM ga teng.

v) $SIM = YAIM - \text{amortizatsiya}$;

$SIM = 4\,930 - 500 = 4\,430$ mlrd. pul birligi;

g) $MD = SIM - \text{biznesga bilvosita soliqlar}$;

$MD = 4\,430 - 400 = 4\,030$ mlrd. pul birligi.

2-masala

YAIM 6000 pul birligiga, iste'mol xarajatlari 4200 pul birligiga, davlat xarajatlari 900 pul birligiga, sof eksport esa 120 pul birligiga teng.

Quyidagilarni hisoblang:

a) yalpi va sof investitsiyalar hajmi;

b) eksport 450 pul birligiga teng bo'lsa import hajmini;

v) amortizatsiya 200 pul birligiga teng bo'lsa SIMni.

Echish:

a) Xarajatlarga ko'ra YAIMni hisoblash formulasidan foydalanib yalpi investitsiyalarni topamiz:

$I = YAIM - S - G - X_n = 6000 - 4200 - 900 - 120 = 780$ pul birligi.

Sof investitsiyalar = YAlpi investitsiyalar – amortizatsiya = 780 pul birl. – 200 pul birl. = 580 pul birligi.

b) $X_n = X(\text{eksport}) - M(\text{import})$. Bundan: $\text{Import} = \text{eksport} - \text{sof eksport} = 450 - 120 = 330$ pul birligi.

v) $SIM = YAIM - \text{amortizatsiya} = 6000 - 200 = 5800$ pul birligi.

3-masala

Quyidagi ma'lumotlarga asosan yalpi ichki mahsulot va takroriy hisob qiymatini aniqlang:

Iqtisodiy jarayon bosqichlari	Qiymat (pul birl.)
«1-firma» xomashyo topadi	200
«2-firma» xomashyoni qayta ishlashga etkazadi	250
«3-firma» xomashyoni konstruksiyali matoga qayta ishlaydi	400
«4-firma» matoni yakuniy mahsulot tayyorlovchiga etkazib beradi	500
«5-firma» yakuniy mahsulotni ishlab chiqaradi	800
«6-firma» yakuniy mahsulotni ulgurji sotuvchiga etkazib beradi	900
«7-firma» mahsulotning chakana savdosini amalga oshiradi	1000
Umumiy savdo qiymati	4050

Echish:

YAIM jadval ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish usuli yordamida yakuniy mahsulotni har bir ishlab chiqarish bosqichida qo'shilgan qiymatning yig'indisi orqali topish mumkin. Bunda oraliq mahsulotlar qiymati hisobga olinmaydi.

$$YAIM = 200 + (250 - 200) + (400 - 250) + (500 - 400) + (800 - 500) + (900 - 800) + (1000 - 900) = 1000 \text{ pul birligi.}$$

SHunday qilib, qo'shilgan qiymat hajmi yakuniy mahsulot qiymatiga teng, bu mahsulotning chakana bahosida aks etadi. Takroriy hisob qiymati umumiy savdo qiymati va qo'shilgan qiymat orasidagi farq sifatida aniqlanadi, $4\ 050 - 1\ 000 = 3\ 050$ pul birligi.

4-masala

Taklif etilgan jadvalni tahlil qiling (ma'lumotlar taxminiy):

Yil	Nominal YAIM (mlrd.pul birl.)	Deflyator (% da)	Real YAIM (mlrd.pul birl.)
1	1800	50	
2	2400	70	
3	3500	100	
4	4200	105	
5	6000	120	

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Nominal YAIM qanday ko'ratkich hisoblanadi?
2. Real YAIM nominal YAIMdan qanday farq qiladi?
3. Deflyator nima, uni qanday hisoblash mumkin?
4. Jadvalning so'ngi ustunini to'ldiring.

Echish:

YAlpi ichki mahsulot – Ma'lum muddat davomida mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar bozor baholarining yig'indisi.

2. Nominal YAIM –joriy yil narxlarida ifodalangan YAIM. Uning dinamikasiga mahsulotning fizik hajmi hamda narxlar darajasining o'zgarishi ta'sir etadi. Inflyasiya sharoitida u iqtisodiy faoliyat natijalarini buzib ko'rsatgani uchun tuzatishni talab etadi.

Real YAIM – qiyosiy baholarda (ba'zis ytil baholarida) hisoblangan yalpi ichki mahsulot

3. Deflyator bazis yiliga nisbatan joriy yilda mamlakatdagi barcha tovarlar va xizmatlarning umumiy bahosi darajasio'zgarishini ifodalaydigan baho indeksi.

bu erda: va – mos ravishda, bazis va joriy yildagi i turdagi mahsulot birligining narxi;

– joriy yilda sotilgan i turdagi tovar miqdori.

Binobarin,

Real YAIM quyidagilarni tashkil etadi:

1-yili 1800 mlrd. pul birl.: $0,5 = 3600$ mlrd. pul birl.
2-yili 2400 mlrd. pul birl.: $0,7 = 4000$ mlrd. pul birl.
3-yili 3500 mlrd. pul birl.: $1 = 3500$ mlrd. pul birl.
4-yili 4200 mlrd. pul birl.: $1,05 = 4000$ mlrd. pul birl.
5-yili 6000 mlrd. pul birl.: $1,2 = 5000$ mlrd. pul birl.

-masala

Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar orqali ifodalangan:

Ko'rsatkichlar	Pul birliklari
YAIM	600
Uy xo'jaliklari iste'moli	320
Sof investitsiyalar hajmi	110
Davlat xarajatlari	90
Eksport	120
Import	90
Byudjetga tushuvchi bevosita soliqlar hajmi	40
Bilvosita soliqlar hajmi	30
Tadbirkorlarga subsidiyalar	25

Quyidagilarni hisoblang:

- a) amortizatsiya mablag'lari hajmi;
- b) milliy daromad (MHTning eski talqiniga ko'ra);
- v) davlat byudjeti holati.

Echish:

a) xarajatlarga ko'ra YAIMni hisoblash formulasiga asoslanib yalpi investitsiyalar hajmini topamiz:

$$I = YAIM - C - G - N_x.$$

$$\text{Bunda, } T = 600 - 320 - 90 - 30 = 160.$$

$$A = I - I_{\text{cof}} = 160 - 110 = 50.$$

b) milliy daromad quyidagicha aniqlanadi:

$$MD = YAIM - A - T_n,$$

Bu erda, T_n – biznesga bilvosita soliqlar.

Bunda

$$MD = 600 - 50 - 30 = 520.$$

v) davlat byudjeti holatini aniqlash uchun davlat daromad va xarajatlarini qiyoslash zarur.

$$T = 40 + 30 = 70.$$

Bunda $T - G = 70 - 90 = -20$, ya'ni byudjet defitsiti mavjud.

6-masala

Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar bilan yoritilgan:

1. Iste'mol xarajatlari (S) = 2300;

2. YAAlpi investitsiyalar (I) = 700;

3. Davlat xarajatlari (G) = 800;

4. Transfert to'lovlari (TR) = 100;

5. Davlat qarzi bo'yicha foiz to'lash (N) = 100;

6. Soliqlar (T) = 800.

YAIM = YAMM deb taxmin qilinsin.

Hisoblang:

a) shaxsiy jamg'armalar;

b) davlat jamg'armalari;

v) agar defitsit obligasiyalar chiqarish bilan 80%ga moliyalashtirilishi ma'lum bo'lsa, davlat byudjeti defitsitini qoplash uchun chiqarilgan davlat obligasiyalari qiymati va qo'shimcha pul miqdori.

Echish:

a) shaxsiy jamg'armalar quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S_p = (Y + TR + N - T) - C$$

$$Y = C + I + G$$

$$Y = 2300 + 700 + 800 = 3800$$

$$S_g = (3800 + 100 + 100 - 800) - 2300 = 900$$

b) davlat jamg'armalari quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S_g = T - TR - N - G$$

$$S_g = 800 - 100 - 800 = -200$$

v) davlat jamg'armalarining salbiy belgisi davlat byudjeti defitsiti mavjudligini anglatadi:

$$BD = -S_g = -200$$

Defitsit 80% obligasiyalar chiqarish bilan moliyalashtiriladi, ya'ni:

$$\square B = 0,8 \times BD$$

$$\square B = 0,8 \times 200 = 160$$

Defitsitning qolgan qismi qo'shimcha pul chiqarish orqali moliyalashtiriladi:

$$\square M = 200 - 160 = 40.$$

7-masala

Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar orqali yoritiladi:

1. Iste'mol xarajatlari (S) = 1200;
2. YAlpi investitsiyalar (I) = 500;
3. Davlat xarajatlari (G) = 300;
4. Transfert to'lovlari (TR) = 200;
5. Davlat qarzi bo'yicha foiz to'lash (N) = 100;
6. Soliqlar (T) = 400
7. Sof eksport (X_n) = -100

Quyidagilar nimaga teng?

- a) xususiy jamg'armalar;
- b) davlat jamg'armalari;
- v) tashqi dunyo jamg'armalari?

Echish:

a) xususiy jamg'armalar quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$S_p = (Y + TR + N - T) - C$$

$$Y = C + I + G$$

$$Y = 1200 + 500 + 300 = 2000$$

$$S_p = (2000 + 200 + 100 - 400) - 1200 = 700$$

b) davlat jamg'armalari quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$S_g = T - TR - N - G$$

$$S_g = 400 - 200 - 100 - 300 = -300$$

v) tashqi dunyo jamg'armalari quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$S_p = M - X, \text{ yoki } S_r = -X_n$$

$$S_p = -X_n = (-100) = 100.$$

8-masala

Mamlakat iqtisodiyotidagi jamg'armalar (S) real foiz stavkasiga bog'liq (R):

$S = 100 + 400R$. Agar nominal foiz stavkasi 40% teng, narxlar oshishi sur'ati esa 30% ni tashkil etsa, u holda, jamg'armalar nimaga teng bo'ladi?

Echish:

$$S = 100 + 400R \quad S = 140 \quad 140 = 100 + 400R \quad 40 = 400R \quad R = 40 : 400 = 0,1$$

$$S = 100 + 400R = 100 + 400 \times 0,1 \quad S = 100 + 40 = 140.$$

Jamg'armalar 140 ga teng yoki nominal foiz stavkasi $R_n = R_r - P$, u holda real foiz stavkasi $R_r = R_n - P = 40\% - 30\% = 10\%$ koef. 0,1 (10: 100)

$$S = 100 + 400 \times 0,1 = 100 + 40 = 140$$

1. Keltirilgan malumotlarga asoslanib yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini aniqlang:

1. Ish xaqi-183,2

2. Eksport hajmi-15,3

Z. Amortizatsiya-12,7

4. Davlat xaridi- 57,4

b. Biznesga egri soliqlar-13,3

- b. Transfert to'lovlari-14,8
- 7. Import hajmi- 12,4
- 8. Foyda solig'i-40.8
- 9. SHaxsiy istemol xarajatlari- 223,1
- 10 Sof investitsiyalar-56,2

2. 2007 yilda YAIM 300 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bir yildan so'ng deflyator 1.2 martaga ortdi, real YAIM esa 10 % ga o'sdi. 2008- yilgi nominal YAIM hajmini toping(2007 yil -bazis yili).

3. YOpiq iqtisodiyotda YAIM 4800mlrd. so'm. Iste'mol xarajatlari 2900 mlrd. so'mga, davlatning tovarlar va xizmatlar xaridi 1200 mlrd. so'mga, Iste'mol qilingan kapital qiymati 350 mlrd. so'mga teng.
Iqtisodiyotdagi sof investitsiyalar hajmini toping.

4. Iqtisodiyotda yalpi investitsiyalar hajmi 220 mlrd. so'mga, byudjet profitsiti esa 15 mlrd. so'mga teng. Eksport hajmi 75 mlrd. so'mga, import hajmi esa 90 mlrd. so'mga teng bo'lsa xususiy jamg'armalar miqdorini aniqlang.

5. Berilgan ma'lumotlar asosida xususiy jamg'armalar miqdorini aniqlang (mlrd. so'm) : dromadlar (Y)-60, transfert to'lovlari-80 , davlat zayomlari bo'yicha foiz to'lovlari -60, soliqlar-80, iste'mol xarajatlari-470.

1-masala

Quyidagi ma'lumotlar asosida ishsizlik darajasini aniqlang:

Jami aholi – 450 ming kishi, jumladan:

16 yoshgacha bolalar – 80 ming kishi;

–pensionerlar – 60 ming kishi, shundan 10 ming kishi hali ishlaydi;

–ishsizlar - 13 ming kishi;

–muddatli harbiy xizmatda – 5 ming kishi;

–litsey va kollej talabalari – 20 ming kishi;

–uy bekalari - 5 ming kishi;

Echish:

Ishsizlik darajasi rasman ro‘yxatga olingan ishsizlar sonini ishchi kuchi soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi, ya’ni:

$$\text{ishchi kuchi soni} = 450 - 80 - 50 - 5 - 20 - 5 = 290$$

qo‘shimcha ishlovchi pensioner ishchi kuchi tarkibiga kiradilar

$$\text{Ishsizlik darajasi} = (13/290)100\% = 4,5\%$$

2-masala:

2009 yilda shartli iqtisodiy tizimda aholi soni tarkibi to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar mavjud edi:

- ishchi kuchi soni – 350 mln. kishi,
- ishsizlar – 30 mln. kishi, jumladan:
 - 15 mln. kishi korxonalar bankrotligi natijasida ishsiz bo‘lib qoldi,
 - 3 mln. kishi yangi kasbni o‘rganadi;
 - 3 mln. kishi ishlab chiqarish qisqartirilgani natijasida ishdan bo‘shatilgan;
 - 5 mln. kishi korxonalar yangi faoliyat turiga o‘tganligi tufayli ishdan bo‘shatildi;
 - 4 mln. kishi ishlamaydi, chunki yosh bolalari va qari ota-onalari mavjud.

Tabiiy va haqiqiy ishsizlik darajasini hisoblang. Ouken qonunidan foydalanib, agar potensial YAIM 4 mlrd. pul birligini tashkil etgan bo‘lsa, YAIMning uzilishini aniqlang.

Echish:

1. Joriy yilda tabiiy ishsizlik = yangi kasbni o‘rganuvchi (friktsion ishsizlik) 3 mln. kishi + yosh bolalari va qari ota-onalari mavjud 4 mln. kishi + korxonalar

yangi faoliyat turiga o'tganligi natijasida ishdan bo'shatilgan 5 mln. kishi = 12 mln. kishi.

2. Davriy ishsizlik = korxonalar bankrotligi natijasida ishdan bo'shatilgan 15 mln. kishi + ishlab chiqarish qisqartirilgani natijasida ishdan bo'shatilgan 3 mln. kishi = 18 mln. kishi.

3. Haqiqiy ishsizlik = 30 mln. kishi.

4. Haqiqiy ishsizlik darajasining tabiiy ishsizlik darajasida ortiqchiligi = $8,6\% - 3,4\% = 5,2\%$.

5. YAIMning uzilishini Ouken koeffitsientidan foydalangan holda aniqlanadi, u $-2,5\% \times 5,2\% = 13\%$ ga teng.

YAIMning uzilishining mutlaq miqdori = $4 \text{ mlrd. pul birl.} \times 13\%$: $100\% = 0,52 \text{ mlrd. pul birl.}$

Binobarin, YAIMning haqiqiy hajmi potensial hajmidan, haqiqiy ishsizlik darajasi tabiiy darajadan oshishi natijasida 0,52 mlrd. pul birligiga kam.

3-masala

2005 yilda shartli mamlakatda quyidagi ishsizlik ko'rsatkichlari mavjud edi:

- friksion - 3%; tarkibiy -3%; davriy -10%.

Nominal YAIM 27600 pul birligini tashkil etdi, Ouken koeffitsienti esa 2,5% ga teng.

YAIMning uzilishi miqdorini aniqlang.

Echish:

Haqiqiy ishsizlik darajasi quyidagicha topiladi:

friksion (3%) + tarkibiy (3%) va davriy (10%) = 16%

Tabiiy ishsizlik darajasi quyidagicha topiladi:

friksion (3%) + tarkibiy (3%) = 6%

Potensial YAIMni Ouken qonunining matematik ko'rinishidan foydalangan holda topamiz:

Haqiqiy YAIM = potensial YAIM ,

bu erda, U_1 – haqiqiy ishsizlik darajasi; U_2 – tabiiy ishsizlik darajasi; k -

Oukena koeffitsenti. Ma'lumotlarni formulaga qo'yib, potensial YAIMni topamiz.

$$27600 = \text{Potensial YAIM} ;$$

$$27600 = \text{Potensial YAIM} \times 0,85$$

$$\text{Potensial YAIM} = 27600 : 0,85 = 32470 \text{ (pul birl.)}$$

Agar haqiqiy ishsizlik tabiiy darajadan oshmasa, YAIM 32470 pul birligini tashkil etar edi. Davriy ishsizlik mavjudligi sababli iqtisodiyot 4870 pul birligi (32470-27600) qiymatidagi YAIMga ega bo'la olmagan.

4-masala

Iqtisodiyotda tabiiy ishsizlik darajasi – 6%, haqiqiy ishsizlik 10%ni tashkil etadi. Ishlab chiqarish hajmi - 600 mln. so'm. YAIMning ishsizlik darajasining o'zgarishiga ta'sirchanligi koeffitsienti 3 ga teng. YAIM uzilishini aniqlang.

Echish:

Ouken qonuniga ko'ra:

$$(Y - Y^*) : Y^* = -\square (u - u^*).$$

$$(Y - Y^*) : Y^* = -3 (0,1 - 0,06) = -0,12 \text{ yoki } 12\%.$$

$$(600 - Y^*) : Y^* = 0,12 \square Y^* = 682 \text{ mln. so'm.}$$

Demak, YAIMning uzilishi davriy ishsizlik bilan bog'liq, u quyidagini tashkil etadi: $Y - Y^* = 600 - 682 = -82$ mln. so'm.

1. Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan: aholining umumiy soni 650 kishi, mehnatga layoqatli bo'lmagan yoshdagi aholi soni 140, ishsizlar soni 19, ishchi bilan band aholi soni 380 bo'lsa ishsizlik darajasini toping.

2. Aholi soni 200 mln kishi. Ish bilan bandlar soni 112 mln. kishi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 160 mln. kishi, friksion ishsizlar 6 mln. kishi, tarkibiy ishsizlar 2 mln. kishi, davriy ishsizlar esa 5 mln. kishini tashkil etgan. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan 4 %ga yuqori. Potensial YAIM 2500 shartli birlikka teng. YAIMning siklik ishsizlik dinamikasiga ta'sirchanlik koeffitsenti 2,5.

Topilsin:

A) ishsizlikning haqiqiy darajasi;

B) haqiqiy YAIM hajmi.

3. Ishsizlikning tabiiy darajasi 6 %, ishsizlikning haqiqiy darajasi 7,33 %, potensial YAIM yiliga 3 %ga o'sadi, YAIMning davriy ishsizlik dinamikasiga ta'sirchanligi koeffitsenti 3 ga teng. Keyingi yilda tabiiy ishsizlik darajasida resurslarning to'liq bandligi ta'minlanishi uchun ishlab chiqarishning haqiqiy darajasi qanday sur'atda o'sishi lozim?

4. Ishsizlikning tabiiy darajasi 5 %, potensial YAIM 40 mlrd. so'm, ishsizlar soni 1 mln. kishi, ish bilan bandlar 14 mln. kishi. Topilsin:

- a) ishsizlikning haqiqiy darajasi;
- b) YAIMning nisbiy va mutlaq uzilishi;
- v) Haqiqiy YAIM hajmi.

Ishsizlik darajasi 8 %, ishchi kuchi soni 10 mln. kishi, aholi soni 19 mln.kishi, ishsizlikning tabiiy darajasi 5 %.

Topilsin:

- a) ishsizlar soni;
- b) YAIMning nisbiy va mutlaq uzilishi.

1.2001 yilda iste'mol narxlari 2000 yilga nisbatan 125 %ni, 2002 yilda esa 2000 yilga nisbatan 140 foizni tashkil qildi.

Topilsin:

- a) 2002 yilda 2001 yilga nisbatan inflyasiya darajasini;
- b) inflyasiya sur'atini barqaror deb hisoblasak necha yilda baholar ikki martaga ortishini.

2.Iqtisodiyot quyidagi ko'rsatkichlar vositasida tasvirlangan:

Yillar	Inflyasiya darajasi	Nominal foiz stavkasi
1	3%	8%
2	8%	3%

Ikkinchi yilda birinchi yilga nisbatan real foiz stavkasi qancha miqdorga

ko'payganligini toping.

4. Aytaylik iste'mol savatiga faqat shakar va go'sht kirsin. Jadvalda bu tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va narxi keltirilgan. 2003- yil bazis yili bo'lsa 2004 -yil uchun YAIM deflyatori va iste'mol narxlari indeksini aniqlang

Yillar	Ishlab chiqarish (sh.b.)		Bir sh.b. mahsulot bahosi (pul. birl.)	
	shakar	go'sht	shakar	Go'sht
2003	730	930	500	2700
2004	700	990	650	3200

3. Aytaylik iste'mol narxlari indeksi 1993 yili 301ga, 1994 yili esa 311 ga teng bo'lgan bo'lsin. Bazis yili hisoblangan 1990 yilda inflyasiya darajasi 4 % ni tashkil etgan. Zarur hisob-kitoblar yordamida 1994 yilda haqiqiy inflyasiya darajasi 4 %dan kam bo'lganligini, baholar esa 1990 yilga nisbatan 211 %ga yuqori bo'lganini isbotlang.

1-masala

O'tgan yili AD egri chizig'i tenglamasi: $Y = 3300 - 3P$ ko'rinishiga ega edi. Joriy yilda bu tenglama: $Y = 3270 - 3P$ ko'rinishiga ega. Potensial YAIM avvalgi darajasi 3000 da qolgan. Inflyasiya darajasini va qisqa muddatdagi muvozanatli YAIM hajmini aniqlang.

Echish:

Birinchi yilda: $3000 = 3300 - 3P$ $P = 100$,

Ikkinchi yilda: $3000 = 3270 - 3P$ $P = 90$,

ya'ni bu davrda narxlar darajasi 10%ga pasaygan.

Ikki yildagi AD egri chiziq tenglamalariga ko'ra, qisqa muddatda egri chiziq chapga siljigan, shuning uchun:

$Y = 3270 - 300 = 2970$, ya'ni yalpi talabning qisqarishi ikkinchi -yilda ishlab chiqarish hajmi kamayishiga olib kelgan.

2-masala

Uzoq muddatli AS egri chizig'i $Y = 3000$ tengligi, qisqa muddatli AS egri

chizig'i

$R = 1,0$ darajasida berilgan. AD egri chizig'i tenglamasi: $Y = 3,0 M/P$. Pul taklifi (M) 1000 ga teng. Narx shoki natijasida qisqa muddatli AS egri chizig'i $P = 1,5$ darajasiga siljgan, uzoq muddatli AS egri chizig'i - $Y = 2500$. AD egri chizig'i esa o'zgarmagan. Qisqa va uzoq muddatdagi yangi Y va P ni aniqlang.

Echish:

Qisqa muddatda:

$$AD = 3 M/P, M = 1000$$

$Y = 3 \times 1000:1,5 = 2000$, ya'ni qisqa muddatda Y va P muvofiq tarzda quyidagilarga teng:

$$Y = 2000, P = 1,5.$$

Uzoq muddatda:

AD: $2500 = 3 \times 1000/P$, $R = 1,2$, ya'ni uzoq muddatda Y va P mos ravishda quyidagilarga teng:

$$Y = 2500, P = 1,2 \text{ (chizma).}$$

P LRAS

Mustaqil ishlash uchun masalalar

1. YAlpi talab egri chizig'i tenglamasi (AD): $Y=4 (M/R)$. Dastlabki holatda pul massasi (M) 1200 mlrd. dollarga teng. Pul massasi 5 %ga o'sganidan so'ng qisqa muddatli muvozanatli narxlar darajasini va daromadlar darajasini aniqlang.

2. Uzoq muddatli AS egri chizig'i $Y=2000$, qisqa muddatli AS- egri chizig'i $P=1,0$ darajasida gorizontaal. AD egri chizig'i tenglamasi $Y=2.0 *M/P$. Pul taklifi (M) 1000 ga teng. Baho shoki natijasida yalpi taklif egri chizig'i $P=1.25$ darajasigacha ko'tarildi.

a) shokdan so'ng iqtisodiyotda o'rnatilgan qisqa muddatli muvozanat nuqtasining koordinatlari qanday?

b) iqtisodiyotda ishlab chiqarishning dastlabki darajasini tiklash uchun Markaziy bank pul taklifini qanchaga oshirishi kerak?

3. Iqtisodiyot dastlab to'liq bandlilik sharoitida turgan edi. YAlpi talabning

uzoq muddatli tenglamasi (LRAS): $Y=4000$ mlrd.doll. YAipi talabning qisqa muddatli tenglamasi (SRAS): $P= 1,2$, YAipi talab egri chizig'i (AD) tenglamasi: $Y=4 (M/R)$. Dastlabki holatda pul massasi (M) 1200 mlrd. dollarga teng. Pul massasi 5 %ga o'sganidan so'ng uzoq muddatli va qisqa muddatli muvozanat nuqtalari koordinatlarini aniqlang.

1-masala

Jamg'arishga chegaralangan moyillik ko'rsatkichi 0,2 ga, avtonom iste'mol hajmi 700 ga, chegaralangan soliq stavkasi 0,25 ga, daromadlar darajasi 7000ga teng bo'lsa, topilsin:

- iste'mol va jamg'armalar hajmi;
- iste'molga va jamg'arishga chegaralangan moyillik ko'rsatkichlari.

Echish:

Dastlab iste'molga chegaralangan moyillik ko'rsatkichini =isoblab topamiz
Ma'lumki $MPC+MPS=100$ $MPC=100-MPS=100-20=80\%$, yoki 0,8

Iste'mol funksiyasiga ko'ra iste'mol xarajatlari miqdorini aniqlaymiz

$$C=a+b (Y- tY)=700+0,8 (7000-0,25 7000)= 4900 \text{ sh.b.}$$

Jamg'arish miqdorini tasarufdagi daromaddan iste'mol xarajatlarini ayirib topamiz

$$S=Y_d-C= (Y- tY)-C = (7000 - 0,25 7000)-4900 =5250-4900=350 \text{ sh.b.}$$

Iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillikni topamiz

$$APC=S/Y_d=4900/5250= 0,93 \quad APS=S/Y_d=350/5250=0,07$$

2-masala

Investitsiyalar (I) 50 sh.b.ni, davlat xarajatlari (G) – 200, sof eksport (X_n) – 70, avtonom iste'mol xarajatlari (S) – 100 sh.b.ni, jamg'armaga chegaralangan moyillik (MRS) – 0,25 ni tashkil etsa, YAIMning muvozanatli darjasini aniqlang.

Echish:

$$MRS = 1 - MPS = 1 - 0,25 = 0,75;$$

Iste'mol xarajatlari funksiyasi:

$$S = 100 + 0,75 Y$$

$$Y = C + I + G + X_n.$$

Mavjud ma'lumotlarni asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'ygan holda YAIMning izlanayotgan muvozanatli miqdorini topamiz.

$$Y = 100 + 0,75 Y + 50 + 200 + 70$$

$$0,25 Y = 420 \text{ pul birl.}$$

$$Y = 420:0,25, \text{ bundan } Y = 1680 \text{ pul birl. ekanligini aniqlaymiz.}$$

Nazorat savollari

1. Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Makroekonomika.2-e izd.-SPb.:Piter, 2010. -288 s.
2. Djumaev Z.A. "Makroiqtisodiyot" fanidan O'quv-uslubiy majmua.,Toshkent: Iqtisodiyot.-2010 y.-598 b.
3. Мағығанова Е.А., SHapiro S.A. Makroekonomika. Ekspress kurs.: uchebnoe posobie-M.: KNORUS, 2010.-302 s.
4. Kiselyova E.A. Makroekonomika. /Ekspress kurs:uchebnoe posobie- M.:KNORUS, 2008- 384 s.
5. Kushlin V.I., Ivleva G.YU., Klyukin P.I. Makroekonomika: Gosudarstvennoe regulirovaniy v usloviyax globalizatsii; UMK dlyapodgotovki magistrrov.-M. :Izd-vo RAGS, 2007.-320 s.
6. Agapova T.A., Seregina S.F. Makroekonomika. Testy: Uchebnoe posobie.-2-e izd.- M.: Izdatelstvo "Delo i servis", 2005., 96 s.
7. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A, Jumayev Q.X.Makroiqtisodiyot. (O'quv qo'llanma).-T.:O'zbekiston Yozubchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti,2005.-192 b.
8. Matveeva T.YU. Vvedenie v makroekonomiku: uchebnoe posobie. Gos.un-t-Vыsshaya shkola ekonomiki.-3-e izd.-M: Izd.dom GU VSHE, 2005.-510 s.
9. Ishmuxamedov A.E., CHEpel S.V., SHibarshova L.I. Sbornik keysov po dissiplinam "Makroekonomika" i "Mikroekonomika"(uchebnoe posobie)-T.: TGEU, 2005, 140 str.

2-amaliy mashg'ulot.

Kamyob resurslar sharoitida mavjud resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlari. Er va suv resurslaridan samarali foydalanish holati va undagi mavjud muammolar

Iqtisodiyot yo'nalishidagi olimlar va mutaxassislar erdan oqilona foydalanishni ta'minlash borasida asosan ularni iqtisodiy baholaydilar. Er resurslarining cheklanganligi uchun ularni baholashda iqtisodiy renta yondashuvidan foydalaniladi. Iqtisodiy renta deganda, odatda, cheklangan tabiiy resurslardan foydalanilganda (yoki ijara) to'lanadigan haq yoki uni bahosi tushuniladi. Iqtisodiy rentani ko'pincha resursdan foydalanuvchining undan foydalanganda oladigan renta daromadi ma'nosida ham qo'llaniladi. Ushbu yondashuv orqali er bahosi (R) quyidagi formula asosida aniqlanadi: [6].

$$P=R: g$$

bu erda, R- yillik renta kattaligi;

g – koeffitsient bo'lib, u kam birlik sifatida olinib va uning kattaligi bank (so'mda) foizi bilan ko'pincha bog'lanadi.

Renta kattaligi ma'lum bo'lgan muddatga qarab belgilanadi.

Masalan, agar har yilgi er uchastkasining rentasi 10 ming so'm bo'lsa, ssuda (qarz) foizi 10% ga teng deb olinsa, u holda uchastka narxi 100 ming so'mga teng bo'ladi. Bu narxda er resursi bahosi bankka qo'yilgan kapital mablag' o'lchamiga ko'pincha to'g'ri keladi, bu baho renta kattaligiga to'g'ri keladigan har yilgi daromad miqdoriga barobar bo'ladi.

Erni iqtisodiy baholash jarayonida uning tabiiy, sun'iy va samarali hosildorlik xususiyatlari ham o'z ahamiyatiga egadir. Erning tabiiy hosildorligi tuproqning tabiiy hosil bo'lish jarayonlari natijasida unumdorligidir. Erga inson tomonidan ishlov berish (haydash, o'g'it solish, melioratsiya, agrotexnik va boshqa tadbirlar) jarayonida hosil bo'ladigan unumdorlikka sun'iy hosildorlik deyiladi. Iqtisodiy hosildorlik esa tabiiy va sun'iy hosildorliklarning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'lgan unumdorlikdir. Ushbu ikki guruhdagi hosildorlik bir-birlariga bog'liq holda o'zarolikni taqozo etadi, ya'ni sun'iy hosildorlikning buzilishi tuproq

degradatsiyasiga olib keladi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni intensivlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash.

Quyidagilarni hisoblang:

a) 1 ga gektar qishloq xo'jalik eriga qanchadan asosiy ishlab chiqarish fondlari to'g'ri kelishi:

b) bir gektar so'm) va mehnat xarajatlari (kishi-soat hisobida).

No	Ko'rsatkichlar	Beshariq f\X	Serquyosh f\X	Baraka f\X
1	Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan fondlarning o'rtacha qiymati, ming so'm	16114482	1223097	1131157
2	Jami ishlab chiqarish xarajati, ming so'm.	7043732	1224691	1356163
3	Mehnat xarajati, kishi-soat	5828782	1224691	1356163
4	Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning xammasi, gektar	9246	3570	2960

Dehqonchilik tarmoqlarini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Quyidagilarni hisoblang:

a) 100 gektar qishloq xo'jalik eriga, 100 gektar ekinzorga qilingan mehnat sarfi (kishi-soat xisobida);

b) 100 gektar qishloq xo'jalik eri, 100 so'mlik ishlab chiqarish xarajati eavziga va bir kishi-soat hisobiga olingan sof daromad (so'm hisobida).

“Beshariq” fermer xo‘jaligida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan erlarning xammasi 9246 gektar, shundan 7246 gektari ekinzor bo‘lib, yalpi mahsulotning taqqoslama narxlaridagi qiymati 940044,6 ming so‘mni tashkil qiladi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga tegishli bo‘lgan fondlarning o‘rtacha qiymati 16114482,0 ming so‘m, traktorlar bilan bajariladigan ishlarning hajmi 243449 shartli etalon gektar, jami mehnat xarajati 5828782 kishi-soat, jami ishlab chiqarish xarajati 7043732,0 ming so‘mni, sarflangan o‘g‘itlarning qiymati 54 2470,0 ming so‘mni mahsulotni sotishdan olingan daromad 9400446,0 ming so‘mni, sotilgan mahsulotning tannarxi esa 6473314,0 ming so‘mni tashkil qiladi.

Zaharli ximikatlar ishlatilishning iqtisodiy samaradorligin hsioblash.

Quyidagilarni aniqlang:

a) gektardan olingan qo‘shimcha hosil (sentner hisobida).

b) bir gektardan va jami maydondan olingan qo‘shimcha hosilning qiymati (ming so‘m).

v) jami maydonga qilingan qo‘shimcha xarajat (so‘m xisobida).

g) zaharli ximikatlar ishlatish evaziga bir gektardan va jami maydondan olingan sof daromad (so‘m hisobida).

№	Ko‘rsatkichlar	Zaxarli ximikatlar ishlatilgan maydon	Zaharli ximikatlar ishlatilmagan maydon
1	Ekin maydoni, (ga)	100	100
2	Xosil gektaridan, (s)	32	24
3	YAlpi mahsulot qiymati, (ming so‘m)	142600	111200
4	1 gektarga sarflangan zaharli ximikat, (ming so‘m)	14,7	-
5	Mehnat sarfi, kishi-kun	177,0	149
6	1 gektarga qilingan ishlab chiqarish sarfi, ming so‘m	1020,0	1002,0

Xo'jalikning energiya quvvati bilan ta'minlanishini va mehnat unumdorligini aniqlash.

Quyidagilarni hisoblang :

- a) bir ishlovchiga to'g'ri keladigan energiya quvvati (etalon traktor hisobida);
- b) 100 gektar ekin maydoniga to'g'ri keladigan energiya quvvati (etalon traktor hisobida);
- v) bir gektar ekin maydoniga qilingan sarf (kishi –kun hisobida).

№	Ko'rsatkichlar	1 yil	2 yil	3 yil
1	Jami energiya (etalon traktor)	1175	1460	1700
2	Ishlovchilar soni	1650	1565	1480
3	Ekin maydoni, ga	2800	2810	2812
4	Mehnat sarfi (ming kishi-kuni hisobida)	460,0	408,2	409,1

Mehnat unumdorligi va ish haqining o'sish darajasini hisoblash.

Quyidagilarni hisoblang:

- a) yalpi mahsulot qiymatining o'sish darajasi (% hisobida);
- b) mehnat unumdorligi va ish haqining o'sish darajasi (% hisobida);
- v) bir ishlovchi va bir kishi soat hisobiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot qiymati (ming so'm hisobida).

№	Ko'rsatkichlar	1 yil	2 yil	3 yil
1	YALpi mahsulot qiymati, mln. so'm	1035,7	1147,8	1216,9
2	O'rtacha ishlovchilar soni	378	355	317
3	Sarflangan kishi soatlar	368715	491551	482451
4	Sarflangan ish haqi, mln. so'm	309,0	327,5	319,0

Mehnat unumdorligining o'sish darajasini hisoblash.

Quyidagilarni aniqlang:

a) bir ishlovchiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot qiymati (ming so'm);

b) bir kishi kun hisobiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot qiymati (ming so'm);

v) bir ish soatiga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot qiymati (so'm hisobida).

№	Ko'rsatkichlar	Baraka f\X		Ishonch f\X	
		Reja bo'yicha	xaqiqatda	Reja bo'yicha	xaqiqatda
1	YAlpi mahsulot, mln so'm	2027,8	2697,3	3738,9	3911,9
2	O'rtacha ishlovchilar soni	578,0	556,0	639,0	729,0
3	Jami kishi kunlari, mln.so'm	154,6	156,1	197,7	201,3
4	Ish kunning uzunligi, soat	6,50	6,30	6,50	7,1

Quyidagilarni aniqlang:

a) xar qaysi va jami ish turi bo'yicha talab qilingan kishi kuni;

b) har qaysi va jami ish turi bo'yicha talab qilingan ish kuni.

№	Ish turlari	O'l.bir	Ishning xajmi	Ish kuni	1 kunlik norma	Normani bajarishda ishtrok etadigan ishchilar soni
1	CHigit ekish	gektar	1200	15	7,0	2
2	YAganalash	gektar	1200	20	0,25	1
3	Ikki marta chopiq	gektar	2400	60	0,15	1
4	5marta kultivatsiya	gektar	6000	60	9,0	2

5	6marta sug'orish	gektar	7200	70	0,50	1
6	3 marta g'o'zani oziqlantirish	gektar	3600	60	7,0	2
7	G'o'zani chekanka qilish	gektar	1200	15	0,30	1

Traktorchi mexanizatorlarga bo'lgan talabni aniqlash.

Jami qancha norma bajarilishi va qancha traktorchi-mexanizator talab qilinishini aniqlang.

Qishloq xo'jaligi korxonasi 1400 gektar erga chigitni 10 kunda ekishni rejalashtirilgan. Agregat bir kunda 7,0 gektar erga chigit ekadi, har qaysi agregatda 2 kishi ishlaydi.

Sut sog'uvchilarga bo'lgan talabni hisoblash:

Xar smenada qancha sigir sog'uvchi talab qilinishini aniqlang.

Fermada 668 ta sigir bo'lib, har bir ishchiga mashinalar yordamida sog'ish uchun 56 tadan sigir birlashtirilgan. Smena koefitsenti 13 ga teng.

Sigir sog'uvchilarga sigirlarni birlashtirish normasini belgilash.

Bir sigir sog'uvchiga qancha sigir birlashtirilishini aniqlang.

Fermada bir smenaning ish vaqti 420 minut belgilanib, sigir sog'uvchilarga kiyinish, echinish va sog'ish apparatlariga qarash uchun 46 minut ajratilgan. Ishlovchilarning shaxsiy ishlari uchun 8 minut vaqt ajratiladi. Bir sigirga ozuqa berishga -5,1 minut, tagini tozalashga 0,7 minut, oxurlarni tozalash, sigirlarni qashlab tozalashga 2,9 minut, bir sishirni sog'ishga 9,7 minut sarflanadi.

Er haydash normasini belgilash.

Quyidagilarni aniqlang:

- a) smenadagi ish normasi (gektar hisobida);
- b) smena davomidagi yonilg'i sarfi (kg xisobida);
- v) 10 ish kunida, ikki smena ishlaganda nechta traktor talab qilinishi.

T-4 traktori bilan 900 gektar er haydash rejalashtirilgan.

Traktor bir ish smenasida 8 soat-u 20 minut ishlaydi. Ishga tayyorgalik ko'rish va ishni tamomlash uchun 20 minut, yog'lash, moylash va texnik qarov

o‘tkazishga 20 minut, agregatning ish kengligi 1,4 metr, har bir gektar uchun 19,5 kg yonilg‘i sarflanadi.

CHigit ekish normasini belgilash.

Quyidagilarni aniqlang:

- 1) Agregatning bir smenadagi ish normasi (ga);
- 2) Bir soatlik haqiqiy ish vaqtidagi mehnat unumdorligi;
- 3) Traktorga bo‘lgan talab.

Fermer xo‘jaligi 100 gektar erga 10 kun ichida chigit ekish rejalashtirgan.

Traktorchi bir smenada 8,7 soat ishlaydi. SHundan ishga tayyorgarlik 20 minut, bekor turgan vaqti 32 minut, yog‘lash, moylashga 15 minut vaqt sarflaydi. Seyalkaning ish kengligi 24 metr, agregatning yurish tezligi soatiga 3,41 kilometr.

Transport vositasiga norma belgilash:

- a) bir marta qatnash uchun ketgan vaqt;
- b) bir smenadagi qatnovlar soni;
- v) bir smenada tashilgan yuk va tonna kilometrlar.
- g) jami talab qilingan traktor va pritseplar soni.

“Belorus” traktori 3,5 tonna yuk ko‘taruvchi pritsep bilan 10 ish kunida 900 tonna o‘g‘itni 7,5 kilometr masofadagi bazadan xo‘jalikga tashib olib kkelishi kerak.

Ish kunning uzunligi 8 soat, ishga tayyorgarlik qilishga 25 minut, bir tonna yukni yuklash va tushirishga 20 minut sarflanadi. Traktor yuk bilag va yuksiz o‘rtacha soatiga 10 km tezlik bilan yuradi.

Em-xashak ekinlarining iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Quyidagilarni hisoblang:

- a) ekin turi bo‘yicha bir gektardan olingan ozuqa birligi (s);
- b) bir gektar erga qilingan mehnat sarfi (kishi-soat);
- v) bir gektar erga qilingan xarajat (ming so‘m);
- g) bir gektar erdan olingan sof foyda (ming so‘m xisobida).

№	Ekin turlari	Sotish	Xosildor	Ozuqa	Mehnat	l s ning
---	--------------	--------	----------	-------	--------	----------

		baxosi, so‘m	lik, gektari dan sentner	birligi koeffits enti	sarfi, kishi - soat	tannarxi, ming so‘m
1	Arpa	532	14,0	1,21	1,05	427,0
2	Suli	459	13,9	1,00	1,1	385,0
3	Makkajo‘xori silosi	900	430,0	0,20	0,49	69,0
4	Beda pichani	491	179,0	0,49	0,27	180,0
5	Ildizmevalilar	209	137,0	0,12	0,8	200,0
6	Bir yillik o‘t pichani	408	35,7	0,47	1,13	229,0
7	Bo‘g‘doy somoni	540	13,0	0,20	-	36,0

Etishtirilgan mahsulotga iqtisodiy baho berish.

Quyidagilarni aniqlang:

a) ekin turlari bo‘yicha yalpi mahsulot (sentner hisobida);

b) 1 setner mahsulotning tannarxi (ming so‘m);

v) 1 gektar erga qilingan sarf (ming so‘m);

d) sof daromad (ming so‘m);

j) 1 gektar er hisobiga bir kishi-soat va qilingan bir so‘m hisobiga olingan daromad (ming so‘m).

№	Ekin turlari	Ekin maydoni ga	1 ga dan olingan xosil (s)	Bevosita kishi- soatlar soni	Jami sarf, ming so‘m	1 ga maxsulotni sotib olish bahosi, ming so‘m
1	Paxta	1328	32	890900	1218366,0	
2	Kanop poyasi	123	163	83740	13765,5	
3	SHoli	142	46,0	73442	84480,0	
4	Sabzavot	72	120	64050	11873,7	
5	Makkajo‘xori silosi	86	372	8852	13731,0	
6	Ko‘p yillik o‘tlar	169	116	28300	3888	
7	Bog‘lar (urug‘lik	50	19	3374	34220,2	

meva)					
-------	--	--	--	--	--

Izox: 1 ga maxsulotni sotib olish baxosini taxminiy bozor narxida qo'yish mumkin

“Paxtaorol” fermer xo‘jaligida har xil usullarda sug‘orishning iqtisodiy samarasini aniqlash.

Quyidagilarni xisoblang:

a) yalpi xosil (tonna) va yomg‘irlatib sug‘orish evaziga olingan qo‘shimcha xosil (s) xisobida;

b) 1 m³ suv evaziga olingan paxta hosili (s);

v) jami maydondan yomg‘irlatib sug‘orish natijasida tejalgan sarflar (kishi-kuni va ming so‘m xisobida).

№	Ko‘rsatkichlar	Sug‘orish usullari	
		YOmg‘irlatib sug‘orish	Egatlab sug‘orish
1	Sug‘oriladigan paxta maydoni (ga)	939	939
2	1 gektardan olingan xosil (s)	42,4	40,1
3	Sug‘orish soni	3,0	2,1
4	Mavsumiy sug‘orish normasi (gektariga m ³ hisobida)	1440	2590
5	Bir gektar erni sug‘orish uchun sarflangan mehnat (kishi-kun)	2,24	3,31
6	Bir kishi kunning bahosi (so‘m)	70000	70000

Sug‘oriladigan erlardan kuzgi bug‘doy etishtirishning samaradorligini aniqlash.

Quyidagilarni hisoblang:

a) sug‘oriladigan erlarda sug‘orilmaydigan erga nisbatan yillar bo‘yicha xar gektardan olinadigan ortiqcha hosil (s);

b) sug‘orilmaydigan maydonlar suv bilan ta‘minlanganda olinadigan qo‘shimcha hosil(yillar bo‘yich), shuningdek, har gektaridan va yalpi olinadigan hosil hamad besh yillikdagi o‘rtacha o‘sish (s).

№	Ko'rsatkichlar	Besh yillikda				
		1 yil	2 yil	3 yil	4 yil	5 yil
1	Ekin maydoni (sug'oriladigan erda), ming gektar	1,7	2,9	2,6	3,0	3,4
2	1 gektardan olingan hosil, (s)	34,4	45,6	46,7	47,3	50,3
3	Ekin maydoni (sug'orilmaydigan erlar), ming gektar	2,3	2,6	2,8	3,1	3,9
4	Bir gektardan olingan hosil, (s)	14,4	17,4	19,1	19,9	23,0

Nazorat savollari

1. Qanday xarajatlar ijtimoiy va individual xarajatlar deb ataladi?
2. Jami va ishlab chiqarish xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
3. qanday xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar deb atash mumkin?
4. Xarajatlar elementlari va moddalari haqida qanday tushunchaga egasiz?
5. Mahsulot tannarxi deganda nimani tushunasiz?
6. Mahsulot tannarxi darajasini, dinamikasini qanday tushunasiz?
7. Mahsulot tannarxi tarkibi deganda nimani tushunasiz?
8. Xarajatlarni kamaytirish, tannarxni pasaytirishga qanday chora-tadbirlar yordamida erishish mumkin?

3-amaliy mashg'ulot

Raqamli iqtisodiyotning biznes va ijtimoiy sohadagi o'rni va ahamiyati

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda. 2016 yilda

Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma'ruza e'lon qildi ("Raqamli dividendlar").

Masalan, xaridorga poyafzal kerak. Uni bozorga tushib o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisod. Telegramdagi biron savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni etkazib berish xizmati orqali olish – raqamli iqtisodiyot deyiladi. Bu masalani eng sodda maishiy misol orqali tushuntirishdir. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet va boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul uzatamiz, uyga taom buyurtma qilamiz va hokazo.

Raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir.

Belgilari:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari:

1. To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi).
2. Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.
3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.

4. Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

YAqqol misol...

Raqamli platformalarning rivojlanish sohasidagi yorqin misollardan biri sifatida “Alibaba” elektron savdo tizimiga ega bo‘lgan [Xitoy](#) kompaniyasini keltirib o‘tish mumkin. Undan foydalanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlar to‘plash jarayonida iqtisodiyotning turli sektorlariga ekspansiya uchun o‘ta raqobatli ustunliklar yaratiladi. “Alibaba” bu – oddiygina raqamli platforma emas, balki platformalar ekotizimidir.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir.

Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va “qora iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to‘liq axborot bermaslikning iloji yo‘q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo‘yadi. Ma’lumotlar ko‘pligi va tizimliliği yolg‘on va qing‘ir ishlarga yo‘l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada “iflos pullarni” yuvish, mablag‘larni o‘g‘irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko‘rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag‘lar oqimini oshiradi, soliqlar o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanadi, byudjet taqsimoti ochiq bo‘ladi, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar o‘g‘irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo‘llarga ajratilgan pullar to‘liq etib boradi va hokazo.

Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo‘nalishlar ochib beradi. “Raqamli texnologiyalar” tomon burilishga butun jahon internet tarmog‘i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda foydalanuvchilar oziq-ovqat mahsulotlariga buyurtma berish uchun Telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar.

SHuningdek, turli internet do‘konlar, elektron to‘lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqarolarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishoniyaptilar. Faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirmoqdalar, o‘rtacha xarid hajmini oshirishga esa unchalik tayyor emaslar. Endigi masala o‘rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operatsiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat.

Raqamli iqtisodiyotning o‘z valyutasi (kriptovalyuta, bitkoin), pul saqlaydigan karmoni (blokcheyn), hisoblash usullari (mayning) kabi terminlari mavjud. Ular haqida yanada batafsil ma’lumot olish tavsiya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasida vakolatli organ hisoblanadi. Bundan tashqari [Iqtisodiyot](#), Moliya, Axborot texnologiyalari, Adliya vazirliklari va boshqa qator davlat tuzilmalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun o‘ziga xos mas’uliyat va vazifalarga ega. Bu haqida kuni kecha Prezident SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida ham alohida ta’kidlab o‘tildi.

Nazorat savollari:

1. Xodimlar qo‘nimsizligi tahlili qanday amalga oshiriladi?
2. Xodimlar tarkibining taxlilini misollar yordamida tushuntirib bering.
3. Suv xujaligi tashkilotlarining asosiy fondlaridan foydalanishning qanday ko‘rsatkichlar tizimi mavjud?
4. Suv xujaligi tashkilotlarining asosiy fondlaridan samarali foydalanish tahlilini misollar yordamida tushuntirib bering.
5. Xom–ashyo va zaxiralardan foydalanish tahlilining metodik asoslari.
6. Suv xujaligi tashkilotlarining material boyliklar bilan ta’minlanishi qaysi ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilinadi?

3-ko‘chma mashg‘ulot

QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI TARMOQLARI IQTISODIYOTINI TAXLIL QILISH

Ishdan maqsad: qishloq va suv xo‘jaligida iqtisodiy samaradorligini oshirish, texnikaviy jihatdan ilg‘or, yuqori samara beradigan, yangi texnikani va texnologiyani keng joriy qilishga moslashgan variantlarni qo‘llash, Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tannarhini pasaytirish, Mehnat unumdorligini oshirish, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga tadbiiq qilish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Ishni bajarish tartibi: Ishlab chiqarishni quvvatining balanslari kapital qurilishlarning rejalashtirishning asosidir. Balans tuzish uchun ishlab chiqarish quvvatlarini va ularni ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan mahsulot xajmini aniqlash kerak.

Rejalashtirilgan yil oxiri ishlab chiqarishining quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{ox} = K_{\bar{o}} + K_n - K_{\chi_{uk}}$$

bir yillik rejalashtirish uchun

$$\bar{K} = K_{\bar{o}} + \frac{\sum K_n * T}{12} - \frac{\sum K_{\chi_{uk}} * T'}{12}$$

agar T va T' lar noma'lum bulsa : $\bar{K} = K_{\bar{o}} + \frac{\sum (K_n - K_{\chi_{uk}})}{2}$

bu erda:

\bar{K} - korxonaning o‘rtacha yillik ishlab chiqarish kuvvati.

$K_{\bar{o}}$, K_{ox} – ishlab chiqarishning rejalashtirilaetgan yil boshidagi eki oxiridagi quvvati,

K_p – ishlab chikarishni reja buyicha ishga tushiriluvchi kuvvati.

T (T') – quvvatni ishga tushgan (ishdan chiqqan) vaqtidan to yil oxirigacha bo‘lgan oylarning to‘lik soni.

Ishlab turgan quvvatdan olinishi mumkin bo‘lgan (kutilgan) mahsulot xajmi:

$$Q_M = \frac{K^* K_{\text{шл}} * K_{\text{зл}}}{100}$$

Kishl, K o'zl – quvvatni ishlatilishi va o'zlashtirilish koeffitsienti, %

Mahsulot ishlab chiqarish uchun yangi ishga tushirilishi kerak bo'lgan quvvatdan olinadigan mahsulot xajmi.

$$Q_A = Q_P - Q_M$$

Qr- reja bo'yicha shu mahsulotga extiej.

Ishga tushiriladigan qo'shimcha quvvatning o'rtacha yillik qiymati:

$$K_u = \frac{Q_A - Q_{\text{yuzil}}}{K_{\text{zл}}$$

bu erda:

Q o'tgan yil – o'tgan yili ishga tushirilgan qo'shimcha quvvatdan bu y il olingan maxsulot.

Ishlab chiqarishning hisob bo'yicha talab qilinadigan quvvatini ishga tushirish uchun kerak bo'ladigan kapital mablag'lar:

$$K = K'' * K_{\text{y}} \partial$$

Tugallanmagan qurilishning yil oxiridagi xajmi:

$$Q_{TM}^{ox} = Q_{TM}^{\circ} + K_{\text{vl}} - Q_{\text{yik}}$$

bu erda:

$Q_{TM}^{ox}; Q_{TM}^{\circ}$ - tugallanmagan qurilishning yil boshi va oxiridagi xajmi

K vl – kapital mablag'lari.

Q ykm – qurilish mahsulotining yillik xajmi.

Topshiriqqa doir masalalar

1. Kapital qurilish rejasida 4.8 mln.m² foydali turar joy maydoni foydalanishga berilishi mo'ljallangan. Injenerlik ta'minoti va obodonlashtirish harajatlarini hisobga olganda 1m² foydali maydonning o'rtacha qiymati 206 ming so'm. Turar joylar qurilishi bo'yicha tugallanmagan qurilish xajmi yil boshiga 69.5

mlrd. so‘m.

Aniqlang: Reja yilida turar joy qurilishiga qilinadigan kapital qo‘yilmalar xajmi?

Echish.

Reja yilida turar joy qurilishiga qilinadigan kapital qo‘yilmalar hajmi:

$$K_{tj}=4,8 \cdot 206/100000-69,5+73,3=992,6 \text{ mlrd.so‘m.}$$

2. Quyidagi jadval ma’lumotlaridan foydalanib, sement zavodi qurilishining I, II, III navbatlariga qilingan **kapital qo‘yilmalar birligini aniqlang.**

Ko‘rsatkich	Navbatlar		
	I	II	III
Sement ishlab chiqarilishi, t/yil	<u>300</u>	<u>200</u>	<u>200</u>
Kapital qo‘yilma, mln. so‘m	<u>23,7</u>	<u>5,6</u>	<u>12,2</u>

Echish.

Sement zavodining I, II, III navbatlarida qilingan bir birlik kapital qo‘yilma xajmi mos ravishda:

$$23700/300=79 \text{ so‘m/t}$$

$$5600/200=28 \text{ so‘m/t}$$

$$12200/200=61 \text{ so‘m/t}$$

3. Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib, 2 ta yig‘ma temir-beton zavodlariga qilingan **bir birlik kapital qo‘yilmani aniqlang?**

1 zavodning ishlab chiqarish quvvati 120 ming m^3 /yil bo‘lib, u qayta qurilmoqda.

2 zavodning ishlab chiqarish qo‘vvati 100 ming m^3 /yildan 180 ming m^3 /yilgacha oshirilmoqda. Zavodlarga qilingan kapital qo‘yilmalar mos ravishda 8520 va 4960 mln. so‘m. Natijalarga izox bering.

Echish.

YAngi zavod qurilishiga qilingan birlik kapital qo‘yilmalar:

$$8520/120=71 \text{ ming so‘m/m}^3$$

Mavjud zavodni kengaytirishga qilingan kapital qo‘yilmalar:

$$4960/(180-100)=62 \text{ ming / m}^3$$

Olingan ko'rsatkichlar tahlili ko'rsatishicha, mavjud zavodni qurishga nisbatan uni kengaytirish tejamliroq.

4. Kapital qurilish rejasida asosiy fondlar qiymati 1480smln. So'm bo'lgan. Yil boshiga tugallanmagan qurilish xajmi 292 mln so'm va kelasi yil boshiga tugallanmagan qurilish xajmi 306 mln.so'm bo'lgan. Sanoat ob'ektini ishga tushirish mo'ljallangan.

Aniqlang: Reja yilida sanoatga qilingan kapital quyilmalar xajmini aniqlang?

Echish.

Sanoatga qilingan kapital qo'yilmalar xajmi:

$1480-292+306=1494$ mln. so'm.

5. Reja yilida kapital qo'yilmalar hajmi 2621 mln.so'm bo'lib, QMI qiymati 1374 mln so'm bo'lishi mo'ljallangan. Rejadan oldingi yil kapital quyilmalar 2133 mln. so'm bo'lgan, shundan QMI 1162 mln. so'm bo'lgan. Ikkala yilda ham boshqa xarajatlar ulushi 7,5 % ni tashkil qiladi.

Aniqlang: Ko'rib chiqilayotgan yillarda kapital qo'yilmalar tarkibini taqqoslab, ularga baho bering.

Echish.

Kapital qo'yilmalarning katta qismini jixoz va uskunalarga sarflash iqtisodiy jixatdan foyda keltiradi, chunki bu jami ishlab chiqarish fondlarining aktiv (faol) qismi ulushi oshishiga olib keladi.

O'tgan yil jixozlarga qilingan xarajatlar:

$2133(100-7,5)/100-1162=811$ mln. so'm.

Bu jami kapital qo'yilmalarning $811*100/2133=38$ % ni tashkil qiladi.

Joriy yilda jixozlarga qilingan sarf xarajatlar:

$2621(100-7,5)/100-1374=1050,4$ mln so'm.

Jami kapital qo'yimalardagi ulushi:

$1050,4*100/2621=40,1$ %

O'tgan yilga nisbatan joriy yilda jixozlarga qilingan kapital qo'yilmalar:

$40,1-38=2,1$ % ga oshgan.

6. Smeta qiymati 87 mln.so‘m bo‘lgan fabrika qurilishi me‘yoriy davomiyligi. 2.7 yil (32 oy)

Qurilish davomiyligi va tugallanmagan qurilish me‘erlari bo‘yicha dastlabki 6 oyda kapital qo‘yilmalarning 6 %i, 18 oyda 46 % i, 30 oyda 93 % i o‘zlashtirilishi kerak. 18 oyda smeta qiymati 3.9 mln so‘m bo‘lgan ma‘muriy va ishlab chiqarish binolari hamda fabrikaning injenerlik tarmog‘ini , 26 – oyda smeta qiymati 15,2 mln so‘m bo‘lgan yordamchi sexlarni ishga tushirish rejalashtirilgan.

Aniqlang: Qurilish iyul oyida boshlanadi deb hisoblab, I, II, III yil oxiri tugallanmagan qurilish xajmini aniqlang?

Echish.

I, II va III yillarning boshlanishi mos ravishda 6-, 18- va 30 oylarga to‘g‘ri keladi.

I yil ohiriga tugallanmagan qurilish hajmi me‘er bo‘yicha:

$$87 \cdot 6 / 100 = 5.2 \text{ mln. so‘m.}$$

II yil ohiriga tugallanmagan qurilish hajmi me‘er bo‘yicha:

$$87 \cdot 46 / 100 = 36.1 \text{ mln. so‘m.}$$

III yil ohiriga tugallanmagan qurilish hajmi me‘er bo‘yicha:

$$87 \cdot 93 / 100 = 60,8 \text{ mln. so‘m.}$$

7. Kapital qurilish rejasida fabrikani ishga tushirilishi 3 yil 3 kvartaliga mo‘ljallangan. Fabrikaning smeta qiymati 8.1 mln. so‘m.; jumladan QMI – 5.9 mln so‘m. Qurilishni me‘yoriy davomiyligi 22 oy. Jadvalda tugallanmagan qurilish me‘yoringing kvartallar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi keltirilgan.

Kvartal	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII
Kp, smeta qiymatiga nisbatan % da	7/9	14/17	24/29	40/45	60/63	79/81	96/96	100/100

Suratda – kapital qo‘yilmalar bo‘yicha

Maxrajda – QMI bo‘yicha

Aniqlang: 2 va 3 yil boshiga tugallanmagan qurilishni hajmini kapital qo'yimlar va qurilish montaj ishlari bo'yicha toping?

Nazorat savollari

1. Loyihalashtirishning ahamiyati nimada?
2. Qurilishning iqtisodiy samaradorligi nimada?
3. Mehnat unumdorligi deganda nimani tushunasiz?
4. Loyiha echimlari samaradorligini aniqlash usullari?
5. Loyihalashtirishning qurilish ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
6. Nisbiy samaradorlik qanday aniqlanadi?

V. KEYSLAR BANKI

1 - KEYS

DISKONT USULI ORQALI LOYIHAGA KIRITILGAN INVESTITSIYALARNI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar va tashkilotlar faoliyat yuritishlarini mablagʻ bilan taʼminlash iqtisodiy muammolardan biri boʻlib, katta tavakkalchilikni talab etadi. Sarflangan mablagʻlarni kaytarish, qoplash muddati kanchalik uzoq boʻlsa, bu xavf darajasi ham shunchalik oshib boradi. Chunki, bu muddat ichida bozor konʼyunkturasi ham, narx-navolar ham, ish xaki toʻlovlari zimdan oshib boradi. SHuning uchun, iqtisodiyot barkaror boʻlmagan sharoitlarda (ayniqsa bu xolat nafakat ayrim tovar bozori, balki butun mamlakat uchun xos boʻlsa) harajatlar tezrok koplanadigan samarali loyihalarga mablagʻ sarflash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondoshish ilmiy-texnika taraqqiyotining surʼati eng yuqori boʻlgan va yangi texnologiya yoki mahsulotlarning kirib kelishi oldingi investitsiyalarni tezda kadsizlantirib yuborishi mumkin boʻlgan tarmoqlar uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, pulni oluvchi unchalik obruga ega boʻlmasa va mablagʻ egasi uzoq muddatga unga pulni ishonishni xoxlamasa ham mablagʻning oʻzini qoplash muddatiga qarab ish kuriladi. SHu sababli, taklif etilayotgan keys dolzarb deb hisoblanadi.

Keysning maqsadi - kichik korxonalar loiyhasiga kiritilgan investitsiyalarni samaradorligini tahlil etish va baholash koʻnikmalarini rivojlantirish, asoslangan qarorni qabul qilishga oʻrgatish.

Taklif etilgan keys quyidagi natijalarga ega boʻlishga imkoniyat beradi:

- Tashkilot faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish koʻnikmalariga ega boʻladi;
- Tahlil natijalarni umumlashtirish qobiliyatiga ega boʻladi;
- Diskont usulini qoʻllash orqali investitsiya kiritishning samaradorligini baholash koʻnikmasini rivojlantiradi;
- Mustaqil qaror qabul qilish koʻnikmalarini egallaydi.

Marketing vaziyati

Mustaqil faoliyat yuritayotgan “Azizbek” kichik korxonada o‘zlashtirish uchun 120 ming so‘mlik xom-ashyo resurslari va tayyor mahsulotlar mavjud. Mazkur resurslardan foydalanish natijasida korxonada 35 ming so‘m daromad olishni ko‘zda tutmoqda. SHu asnoda korxonaning rivojlanish fondidan ajratilgan pullar va bankdan olingan kreditlarni 4 yildan kechiktirmasdan qaytarish rejalashtirilgan. Loyiha bo‘yicha harajatlar hajmi 105560 so‘mni tashkil etadi. Xo‘sh, ushbu loyiha talabni qondira oladimi va samaralimi?

Topshiriq:

Diskont usuli orqali loyihaga kiritilgan investitsiyalarni samaradorligini baholash zarur.

USLUBIY KO‘RSATMALAR

Muammo

Diskont usuli orqali loyihaga kiritilgan investitsiyalarni samaradorligini baholash.

Vazifalar:

1. Diskont koeffitsientini (K_d) aniqlang.
1. Investitsiyalarni qoplash muddatini va ushbu muddat davomida pul qiymatini o‘zgarishini aniqlang.
3. «Azizbek» kichik korxonada faoliyatining foydalilik koeffitsientini aniqlang va olingan natija asosida investitsion loyihani samaradorligi bo‘yicha xulosa qiling.

Echish algoritmi

1. *Diskont koeffitsientini (K_d) aniqlang.*

Discount hozirgi paytdagi baholar bilan ularni qaytarish davridagi baholar o‘rtasidagi farqlari yoki qimmatbaxo qog‘ozlar nominali. Mohiyati, turli davrlarda investitsiya sarflari va kelgusida firmaning ichki daromadlilik normalarini aniqlash davomidagi pul tushumlarini, ya’ni kapital mablag‘larni qoplanish (qaytarilish) koeffitsientidan iboratdir.

Pullarning yoki sarflangan mablag‘larning “bugungi” va “kechagi” qiymatlari o‘rtasidagi farqni hisobga olish uchun investitsiyalarning qoplanishi hisob-kitob qilinayotganda kelgusidagi daromadlar diskont koeffitsientlariga ko‘paytiriladi. Diskont koeffitsientlarining hisoblash quyidagi formula (1) orqali aniqlanadi:

$$K\partial = \frac{1}{(1+K) \times T}$$

bu erda, K - pul qiymatining o‘zgarish sur‘ati (odatda, bank kreditlari bo‘yicha o‘rtacha foiz darajasida qo‘llaniladi); T - investitsiya ajratilgan vaqtdan boshlab o‘tgan vaqt, kunlar.

2. *Investitsiyalarni qoplash muddatini va ushbu muddat davomida pul qiymatini o‘zgarishini aniqlang.*

Korxonalar harajatlarni qoplash muddati quyidagi formula (2) orqali hisoblanadi:

Harajatlarni

Qoplash muddati = *Boshlang‘ich investitsiyalar / Har yilgi pul daromadlari*

3. *«Azizbek» kichik korxonaning foydalilik koeffitsientini aniqlang va olingan natija asosida investitsion loyihani samaradorligi bo‘yicha xulosa qiling.*

Foydalilik ko‘rsatkichi sifatida, **foydalilik koeffitsienti** deb ataluvchi kattalikdan foydalanish mumkin. U quyidagi formula (3) yordamida hisoblanadi:

Foydalilik koeffitsienti = *Ko‘zda tutilgan daromadlar summasi / Ko‘zda tutilgan harajatlar summasi*

Ko‘zda tutilgan daromadlar summasi - bu mazkur investitsiyalashtirilayotgan loyihani amalga oshirish evaziga kelgusida olinadigan foyda xajmidir. Lekin u kelgusida kutilayotgan absolyut miqdorlarda emas, balki yuqorida ta’kidlangandek, diskont koeffitsientlari bilan to‘g‘rilangan holda yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, formulaning suratida so‘mning bugungi qiymatida ifodalangan daromadlar summasi aks etadi.

Ko‘rib chiqilayotgan investitsiya loyihalarni amalga oshirish uchun

sarflanadigan barcha harajatlar hajmi ham xuddi shunday hisoblanadi. Bu hisob-kitoblar bir necha yildagi investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgandir, agar investitsiyalashtirish qisqa muddatlarga (3 oy, 6 oy yoki 1 yilga) mo'ljallangan bo'lsa, bunday holda harajatlar va daromadlarni diskontlashning hojati yo'q.

Foydalilik koeffitsientiga asoslanib, agar koeffitsient 1,00 dan yuqori yoki unga teng bo'lgan taqdirdagina investitsiyalashtirilayotgan loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalilik koeffitsientlaridan foydalanish - o'zining oddiyligi va qulayligi bilan ajralib turadigan usul bo'lib, etarlicha asosli qarorlar (xulosalar) ni qabul qilishga yordam beradi. YAgonamurakkabligi shuki, ko'zda tutilayotgan daromadlarni va investitsiyalarni diskontlashtirish bo'yicha hisob-kitoblarni to'g'ri amalga oshirishdan iboratdir. Ayniqsa, u yangi ochilayotgan va ish boshlayotgan korxonava firmalar uchun juda foydalidir. Chunki ular olgan qarzlardan tezroq qutilib, daromadlarini yanada ko'paytirishi, va natijada mablag' sarflashning eng foydali loyihalarini tanlash imkoniyatlarini yaratmoqlari zarur.

Vaziyatni tahlil qilish va echishga instruksiyasi

Bosqichni nomi	Ish mazmuni	Baholash mezonlari (maks. ball)
Keys ob'ekti bo'yicha ma'lumot bilan tanishish	Keys echilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni ko'rib chiqing.	-
Muammoni va vazifalarni asoslab berish	Mavzu bo'yicha olingan bilimlar asosida	0,5 ball

Vaziyatni tahlili	1. Diskont koeffitsientini (Kd) aniqlang. (1) formula orqali diskont koeffitsientini har yili bo'yicha hisoblab bering	0,5 ball
	2. Investitsiyalarni qoplash muddatini va ushbu muddat davomida pul qiymatini o'zgarishini aniqlang Buning uchun (2) formuladan foydalanish kerak.	0,5 ball
	3. «Azizbek» kichik korxonaning foydalilik koeffitsientini aniqlang va olingan natija asosida investitsion loiyhani samaradorligi bo'yicha xulosa qiling. Buning uchun (3) formuladan foydalanib, natija asosida xulosa bering.	0,5 ballov

Muammoni guruhlarda echishni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari:

1. Har bir guruh 2 ball olishi mumkin. Baholashda u 2 ballni bitta echilgan variantga berishi mumkin, yoki ikkita qismga bo'lib (1,0:1,0 1,5:0,5) berishi mumkin. Bunda o'z varianti ko'shilmaydi.

2. Umumiy olingan ballar har bir variant bo'yicha ko'shiladi va echish varianti bo'yicha eng yuqori olingan ball yutadi.

Variantlarni baholash

(ballarda)

Guruh	Alternativ muammoni echish variantlari			
	1	2	3	4
I				
II				
III				
IV				

Summasi				
---------	--	--	--	--

Кейсни бажариш босқичлари :

- Кейсдаги муаммоларни келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Кейсда келтирилган муаммоларни бартараф қилишда бажариладиган ишлар кетма-кетлигини белгиланг (жуфтликлардаги иш).

2-KEYS

«NESTLE» KOMPANIYASI – O‘ZBEKISTON BOZORIDA SUT MAHSULOTLARI SIFATINI BAHOLASH

Bugungi kunda sut mahsulotlari bozori O‘zbekistonda eng tez rivojlanayotgan bozor segmentlari qatoriga kiradi. Nafaqat iste’molchilar soni va pul tushumi hajmi bo‘yicha, balki yangi assortiment turlari bo‘yicha ham. Sut mahsulotlari O‘zbekiston bozorining istiqbolga egaligi 2000 yil mamlakat bozoriga SHveysariyaning yirik «Nestle» kompaniyasi, shuningdek, qator Rossiyalik kompaniyalar kirib kelishidan ham ko‘rinib turibdi.

Jahon standartidagi yangi texnologiyalarni qo‘llash sut mahsulotlari bozori rivojlanishining muhim omiliga aylandi va bu sut mahsulotlariga talabning o‘shishiga olib keldi. Xususan, sut mahsulotlari potensial iste’molchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra respublika aholisining 85,7%i sut mahsulotlarini iste’mol qilar ekan. SHundan 40%i sut mahsulotlarini qadoqlangan holda, 45,7%i esa sut sotuvchilardan xarid qiladi. Buning sababi qilib tashqi muhitning ko‘plab omillari ta’siridan tashqari sut mahsulotlari sifatini ham ko‘rsatish mumkin. O‘z navbatida, bu mahsulotning bozorda raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida mahsulot sifatini aniqlashning ahamiyati o‘shishiga xizmat qiladi. Mahsulot sifatini aniqlash kompaniya mahsulotlariga xos bo‘lgan xususiyatlarga ta’sir etuvchi eng ko‘p ta’sir etuvchi xususiyatlariga asoslangan.

Tahlil natijalari kompaniyalarga mahsulot sifatini oshirish bo'yicha harakatlarni rejalashtirish imkonini beradi. SHu munosabat bilan taqdim etilayotgan keys **ahamiyatli** hisoblanadi.

Keysning maqsadi kompaniya mahsulotlari sifatini tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Taklif etilgan keys quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- mahsulot sifatini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- mahsulot sifatini tahlil qilish va baholash bo'yicha ish natijalarini umumlashtirish qobiliyatiga ega bo'lish;
- organoleptik usulni qo'llash asosida mahsulot sifatini baholashni o'tkazish ko'nikmasini ishlab chiqish;
- mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash.

Marketing vaziyati

SHveysariyalik oziq-ovqat sanoati giganti Nestle sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'z biznesini faollik bilan kengaytirmoqda. Butun dunyoda Nestle strategiyasi uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirishdan iborat. Ushbu strategiya doirasida kompaniya, 1996 yildan boshlab O'zbekistonda ham ishlab chiqarishni rivojlantirish, o'zbekona an'analar va didga javob beradigan sut mahsulotlari ishlab chiqish bilan shug'ullanib, mahalliy xomashyo va tarkibiy qismlardan ham foydalanmoqda. SHunday qilib, Nestle oziq-ovqat sanoatida xalqaro tajriba va etakchilikni iste'molchilarning hohish-istaklari va ehtiyojlari bilan birlashtirmoqda.

2000 yil Nestle kompaniyasi Namangan sut zavodi asosida «Nestle» mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonaga asos soldi, hozigi paytda kompaniya unga doimiy investitsiyalar kiritmoqda (kiritilgan investitsiyalar hajmi hozirda 30 mln. dollarga etgan). Qisqa muddat ichida Nestle mahsulotlari iste'molchilar orasida ishonch qozondi. Ayniqsa, Nestle kompaniyasining Nestle sutim, Nestle Supermilk kabi savdo markalariga katta talab bildiriladi. Respublika bozorida Nestle ulushi taxminan 25% atrofida. Sut mahsulotlari bozorida esa

kompaniyaning ulushi 33%ni tashkil qiladi.

SHu bilan birga, raqobat sharoitlarida Nestle iste'molchilari undan yuqori sifatli sut mahsulotlarini arzon narxlarda talab qilmoqda. Boshqa ko'plab kompaniyalar kabi, Nestle ham o'z mahsulotlari sifatini oshirish imkoniyatlarini topish borasida doimiy izlanishlar olib boradi. Bu maqsadda kompaniya rahbariyati organoleptik usul yordamida sut mahsulotlari sifatini tahlil qilishga qaror qilgan bo'lib, bu usulning mohiyati sutning sifat xususiyatlarini 100 ball shkalasida kompaniya iste'molchilari nuqtai nazaridan baholashdan iborat.

Topshiriq:

Organoleptik usulni qo'llash asosida Nestle sutim va Nestle Supermilk sut mahsulotlari sifatini aniqlash va ularning sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur.

2-ilova (3.3)

USLUBIY KO'RSATMALAR

Muammo

Organoleptik usul yordamida Nestle sutim, Nestle Supermilk sut mahsulotlari sifatini baholash.

Topshiriqlar

1. Iste'molchi nuqtai nazaridan Nestle sutim va Nestle Supermilk sut mahsulotlarining xususiyatlarini ajratib ko'rsating.
2. Ball setkasi yordamida Nestle sutim, Nestle Supermilk sut mahsulotlarining har bir xususiyatini baholang.
3. Nestle sutim, Nestle Supermilk sut mahsulotlari sifat umumiy ko'rsatkichini aniqlang va uni etalon sut mahsuloti ko'rsatkichi bilan taqqoslang.
4. Sut mahsulotlari sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqing.

VI. GLOSSARIY

Avtonom iste'mol – shaxsiy iste'mol xarajatlarining yalpi milliy daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad -SHTD) o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan qismi. SHTD nolga teng bo'lganda ham avtonom iste'mol to'plangan mulk va jamg'armalarning kamayishi, yoki qarz hisobiga amalga oshirilaveradi.

Avtonom investitsiyalar – asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan qismi.

Avtomatik (o'rnatilgan) barqarorlashtirgichlar – byudjet- soliq siyosatining iqtisodiy tebranishlarning ta'sirini avtomatik zaiflashtiruvchi elementlari.

Akselerator –sof investitsiyalar darajasi bilan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich.

Aktivlar– iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

Amortizatsiya – foydalanish jarayonida asosiy kapital qiymatining kamayishi..

Banknota- Mamlakat Markaziy banki tomonidan chiqariladigan naqd qog'oz pullar bo'lib, iqtisodiyotdagi pul taklifining bir qismini tashkil etadi.

Bank zahiralari – bankda saqlanayotgan naqd pullar, Markaziy bankda tijorat banklari tomonidan saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

Bank tizimi- tijorat banklari majmui. Bank tizimi jismoniy va yuridik shaxslarining omonatlarini (depozitlarini) qabul qiladi, pul o'tkazmalarini amalga oshiradi, qarz va kreditlar beradi, davlat va aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga investitsiya qiladi.

Baholar indeksi- tovarlar va xizmatlar, yoki aktivlar o'rtacha bahosining o'zgarishi ko'rsatkichi. Baholar indeksi bozor savati deb yuritiladigan ma'lum to'plamdagi tovarlar va xizmatlarning joriy yildagi baholari yig'indisini bazis yildagi baholari yig'indisiga bo'lib topiladi.

Boylik – bozor qiymatiga ega va pulga yoki boshqa ne'matlarga

almashinishi mumkin bo'lgan barcha narsa. Fizik aktivlar, moliyaviy aktivlar, ko'nikmalar, tadbirkorlik malakasi, savdo markalari xullas daromad keltiradigan barcha narsalar.

Byudjet taqchilligi – Moliyaviy yil natijalariga ko'ra davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Giperinflyasiya– haddan tashqari inflyasiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi. Inflyasiyaning oylik darajasi 50 % dan ortishi va bu holat 6 oydan ortiq davom etishi uning giperinflyasiya darajasiga o'tganligini anglatadi.

Davlat qarzi – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek xorij mamlakatlaridan qarzi.

Daromad (income) – ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda).

Debitor – korxonalar, tashkilot yoki muassasadan qarzi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Debitorlik qarzi – o'zaro xo'jalik aloqalarini olib boruvchi korxonalar, tashkilotlarning bir-biridan qarzi summasi.

Devalvatsiya – qayd qilingan valyut kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda hukumat tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan kursini tushirishga qaratilgan tadbiri. Devalvatsiya to'lov balansi taqchilligini bartaraf qilish, eksportni arzonlashtirish, importni qimmatlashtirish imkonini beradi.

Demping- tovarlarni tannarxiga qaraganda yoki ichki bozordagiga qaraganda past bahoda eksport qilish.

Deflyasiya – iqtisodiyotda baholar umumiy darajasining pasayishi.

Depozitlar – 1) moliya-kredit muassasalariga qo'yilgan omonatlar: 2) bank daftariidagi yozuvlar: 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlar.

Diversifikatsiya – korxonaning faoliyat soxalari va ishlab chiqaradigan maxsulot turlarining kengayishi.

Diskriminatsiya baholari –ma’qul kelmagan xaridorlar uchun, ayniqsa davlatlar orasidagi munosabatlari, xaqiqiy siyosiy muhit buzilgan davrda o‘rnatiladi. Bu narxlar o‘ta yuqori, tovarni sotib oluvchiga bir necha marotaba qimmat qilib belgilanadi.

Dotatsiya – davlat byudjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag‘ ajratish: iqtisodiyotga byudjet orqali ta’sir etish vositalaridan biri.

YOpiq iqtisodiyot (closed economy) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lmaydigan iqtisodiyot.

Jamg‘arishga chegaralangan moyillik – jamg‘arish hajmi o‘zgarishning bu o‘zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDning) o‘zgarish miqdoridagi ulushi.

Jahon valyuta tizimi – jaxon bozorining rivojlanishi asosida shakllangan va davlataro bitimlar bilan mustaxkamlangan xalqaro pul-kredit munosabatlari.

Jahon puli – xalqaro mikiyosida xama uchun umumiy xarid vositasi, umumiy to‘lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynanminal qiymat ifodasi bo‘lgan pul.

Import (import) – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir.

Importga chegaralangan moyilik – importga qilingan xarajatlardagi o‘zgarishning YAIM yoki YAMD o‘zgarishiga nisbatan ulushi. importga qaratilgan xarajatlar hissasi.

Investitsiya (investment) – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Investitsiyalarga bo‘lgan moyillik (propensity to invest) – investitsiya xarajatlarning daromaddagi hissasi.

Investor – bu qaror qabul qiluvchi va o‘zining shaxsiy, qarzga olingan mablag‘larini va boshqa jalb qilingan mulkiy va madaniy boyliklarini investitsion loyihaga kirituvchi jismoniy va yuridik shaxsdir. U omonatchi va qarz beruvchi

rolida chiqishi mumkin bo'lib amalga oshiruvchi investitsiyalarning yo'nalishini, samarasini erkin holda aniqlaydi. Investor qarori bilan investitsiyalarga egalik qilish, ishlatish, foydalanish xuquqi va ularning natijalari bilan jismoniy va yuridik shaxslarga qonunda ko'rilgan tartibda berishi mumkin.

Indeksatsiya – iqtisodiyotdagi narxlarning o'rtacha darajasi o'zgarishiga bog'liq ravishda ish haqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish.

Inflyasiya – baholar umumiy darajasining ko'tarilitshi, milliy pul birligi xarid qobiliyatining pasayishi.

Inflyasiya darajasi (rate of inflation) – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizdagi o'zgarishi.

Iste'mol (consumption) – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

Iste'mol xarajatlari – tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste'mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingan xarajatlar. Uy xo'jaliklari va davlatning iste'mol xarajatlariga bo'linadi. YAIMning xarajatlariga ko'ra tarkibida eng katta va barqaror komponent.

Iste'mol narxlar indeksi (consumer price index) – o'rtacha oila tomonidan, odatda, iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o'zgarishi o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyasiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Iste'molga o'rtacha moyillik – iste'mol xarajatlarining daromaddagi (yoki shaxsiy tasarrufdagi daromad hajmidagi) hisyasi.

Iste'molga (jamg'arishga) chegaralangan moyillik – iste'mol xarajatlaridagi (jamg'arish hajmigi) o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDdagi) o'zgarish miqdoridagi ulushi.

Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index) – bazis davriga nisbatan xom ashyo materiallar va oraliq tovarlar narxlari o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. YAIMni maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o'tkazishda

ishlatiladi.

Ishsizlik – mamlakatda ish bilan band bo‘lmagan ishchi kuchi guruhining mavjud bo‘lishi, aholi iqtisodiy faol qismining o‘ziga ish topa olmasdan qolishi, ishchi kuchidan to‘liq foydalanmaslik.

Ishsizlikning darajasi (unemployment rate) – ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga bo‘lgan nisbati.

Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment) – real va potensial yalpi ichki mahsulotning o‘shishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo‘lgan ishsizlik darajasi. U shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va tarkibiy ishsizlik ko‘rsatkichlari yig‘indisi sifatida hisoblanishi mumkin.

Ishchi kuchi– ishga layoqatli, ishlayotgan va faol ish izlayotgan aholi.

Iqtisodiy kon’yunktura – iqtisodiy o‘shish, tuzilmaviy siljishlar, moliyaviy ahvol, eksport imkoniyatlari kabilarni xarakterlab beruvchi iqtisodiy holat.

Iqtisodiy o‘shish – real yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o‘shishi.

Iqtisodiy o‘shish sifati – iqtisodiy o‘shishning umumlashgan sifat xarakteristikasi bo‘lib, uning qanday sarflar bilan ta‘minlangani va qanday ijtimoiy-iqtisodiy natija berganligini ifodalaydi.

Kvota – davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni eksport va import qilish yuzasidan cheklashlarning joriy etilishi, kvota o‘rnatish xalqaro bitimlarga binoan amalga oshiriladi.

Kechiktirilgan talab – bozordagi takchilik tufayli kerakli tovar topilmasdan, qondirilish muddati orqaga surilgan talab.

Kon’yunktura – bozorning aloxida segmentida talab, taklif, narx va raqobat xolatini xarakterlovchi omillar tizimi.

Kutilayotgan inflyasiya darajasi– mavjud ijtimoiy - iqtisodiy axborotlar, ma‘lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo‘lg‘usi davrdagi inflyasiya darajasi.

Likvidlilik – a) turli firmalar va banklarning o‘z qarzini to‘lay olish yoki

boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati; b) bir aktivning ikkinchisiga qanchalik tez almashina olinishi o'lchovi. Naqd pul eng yuqorig'100% likvidlilikka ega.

Likvidlilik tuzog'i – foiz stavkasi juda past bo'lgan shunday vaziyatki, odamlar pulni naqd ko'rinishda saqlab turishni afzal ko'radilar. Tadbirkorlar esa foiz stavkasi bundan ko'ra pasayishi mumkin emasligi sababli investitsiyalarni ko'paytirmaydilar. Minimal foiz stavkasi sharoitida pulga talab egrir chizig'i cheksiz elastik bo'lib qoladi.

Markaziy bank– Mamlakatning bosh banki. Asosiy funksiyasi mamlakat iqtisodiyotidagi pul massasini nazorat qilishdan iborat. Markaziy bank mamlakatlarning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatli qog'ozlar emissiyasini monopoliya huquqida amalga oshiradi.

Milliy valyuta – muayyan mamlakatning pul birligi.

Milliy valyutaning qadirsizlanish – qayd qilinmagan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda chet el valyutalariga nisbatan milliy valyutaning kursining kamayishi.

Milliy valyutaning qimmatlashishi – qayd qilinmagan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda chet el valyutalariga nisbatan milliy valyutaning kursining ko'tarilishi.

Moliya bozori - mamlakatdagi moliya xizmatlari bozori: moliya mablag'lariini vaqtincha xaq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlar.

Narxlar indeksi (price index) – har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

Narxlar korrektirovkasi (price adjustment) – bozor vaziyati o'zgarishiga narxlarning moslashuv jarayoni.

Nisbiy afzallik (comparative advantages) – ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada nisbiy afzallik prinsipi ishlab chiqarish va eksportning samarali

strukturasini shakllantirish uchun qoʻllaniladi.

Nominal YAIM – joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi ichki mahsulot.

Oraliq isteʼmol (intermediate consumption) – ishlab chiqarishning bir bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning boshqa bosqichida mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

Oraliq mahsulot – ishlab chiqarish va muomala jarayonidan chiqib ketmagan, yakuniy isteʼmol uchun etib bormagan, qayta ishlash yoki sotishga moʻljallangan mahsulot.

Ortiqcha talab – mavjud baholar darajasida tovarlar va xizmatlar taklifidan ularga boʻlgan talabning koʻpligi. Toʻliq bandlilik sharoitida inflyasiya darajasining oshishiga olib keladi.

Ochiq iqtisodiyot (open economy) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega boʻlgan iqtisodiyot.

Potensial YAIM – toʻliq bandlilik sharoitida, yoki mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchidan toʻliq foydalanish hisobiga erishilishi mumkin boʻlgan ishlab chiqarish hajmi.

Pul aktivlari – maʼlum sohada korxonaning hisob raqami, kassasida boʻlgan pul mablagʻlari.

Pul bazasi – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va Markaziy bankdagi tijorat banklarining zahiralari

Pulga boʻlgan talab – uy xoʻjaliklari va firmalar tomonidan bitimlarda toʻlov vositasi sifatida foydalanish, koʻzda tutilmagan xarajatlar uchun saqlab turish, moliyaviy aktivlar sifatida foydalanib daromad olish uchun jamgʻarish maqsadida ega boʻlishga intilgan pul miqdori.

Pulning miqdoriy nazariyasi – pul taklifi va iqtisodiyotdagi baholarning umumiy darajasi oʻrtasidagi toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliqlikni oʻrnatuvchi nazariya. Birinchi bor ingliz faylasufi va iqtisodchisi D.YUm tomonidan XVIII asrda ilgari surildi, amerikalik iqtisodchi I. Fisher tomonidan 1911 yilda rivojlantirildi va keyinchalik Kebrij universiteti iqtisodchilari tomonidan takomillashtirildi.

Pulning xarid qobiliyati – aniq pul birligining bozordagi tarif va narxlar

darajasi sharoitida ma'lum miqdordagi tovar va xizmatlarga almashinuv qobiliyati.

Raqobat – mustaqil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda, katta xajmda sotish, bozorda o'z mavkeini mustaxkamlash uchun kurash.

Raqobat ustunligi – kapital va aktivlar mukamal tuzilishi, muamala xarajatlarining past darajasi, boshqarishni yaxshi tashkil etish xisobiga bozorning boshqa ishtirokchilaridan ustunlik.

Real almashinuv kursi – ikkala mamlakatdagi baholar darajasining o'zaro nisbatini hisobga oluvchi almashinuv kursi. Solishtiralayotgan mamlakatlardagi nominal almashinuv kursini baholar indekslarining o'zaro nisbatiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi..

Real YAIM – qiyosiy baholarda aks ettirilgan YAIM. U joriy baholarda hisoblangan nominal YAIMni deflyatorga bo'lib topiladi..

Real foiz stavkasi – inflyasiya sur'ati hisobga olinib tuzatilgan nominal foiz stavkasi.

Revalvatsiya– qayd qilingan valyut kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda hukumat tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan kursini oshirishga qaratilgan tadbiri. Importni arzonlashtiradi va eksportni qimmatlashtiradi.

Rezident – xo'jalik faoliyatida milliy qonunchilikka to'liq amal qiladigan, mazkur mamlakatda ro'yxatga olingan yoki doimiy yashaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Rezerv valyuta – xalqaro hisob-kitob ishlarida, jumladan savdo-sotiq, kredit va investitsiya ishlarida, shuningdek xorijiy valyuta rezervlarini jamlashda qo'llanadigan, jaxon bozorida tan olingan, lekin kelib chiqishi milliy bo'lgan valyuta.

Reeksport – mamlakatga oldin import qilingan tovarlarni hech qanday savdo-texnologik ishlov bermasdan eksport qilish.

Cof ichki mahsulot (sof milliy daromad) – makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, YAIM (YAMD) dan amortizatsiya ajratmalari miqdorini ayirib tashlash

yoʻli bilan topiladi.

Soliq islohoti- soliq tizimini qayta koʻrish va uni yangilash, moliyaviy munosabatlarning oʻzgarishi tufayli yuzaga keladi.

Soliq obʻekti- soliq solinadigan daromad yoki mol-mulk.

Soliq tizimi- davlat foydasiga undiriladigan soliqlar turi majmuri.

Soliq yuki - milliy iqtisodiyot darajasida davlat byudjetiga soliq tushumlarining (YAIMning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanadigan qismining) YAIM dagi ulushi. Korxonada korxonada yil davomida toʻlagan jami soliqlar hajmining shu davrda olingan daromadlaridagi ulushi.

Stagflyasiya- iqtisodiyotda baholar va ishsizlik darajalarining bir vaqtning oʻzida oʻsishi.

Subvensiya – davlat byudjetidan muxim xoʻjalik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish uchun xokimiyat organlariga ajratilgan pul mablagʻi.

Subsidiya (subsidy) – davlat byudjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablagʻ. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Talab inflyasiyasi - iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin boʻlmay qolgan sharoitlarda kelib chiqqan inflyasiya.

Tashqi dunyo – shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

Tarkibiy ishsizlik – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish oqibatida ishchi kuchiga talab tarkibida oʻzgarish roʻy berishi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning koʻrinishi.

Uzoq muddat davomida ishlatiluvchi tovarlar (durable goods) – isteʼmolchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Bunday tovarlarga avtomobil, xolodilniklar va boshqa turdagi maishiy xizmat vositalari kiradi.

Transfert toʻlovlari – evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stependiyalar, ishsizlik nafaqasi va

boshqalar).

Filips egri chizig'i – ishsizlik darajasi dinamikasi (absissa o'qi) va inflyasiya sur'ati (ordinata o'qi) orasidagi bog'liklikni grafikda tasvirlovchi egri chiziq.

Fisher samarasi- inflyasiyaning qarzlar yoki obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasiga ta'sirini hisobga olishni bildiruvchi tushuncha.

Friksion ishsizlik (frictionfl unemployment) – bir ishdan boshqa bir ishga o'tish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ishsizlik.

Foiz (interest) – daromad, o'z mulkining boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berib, shundan foyda olish.

Foiz stavkasi (interest rate) – kredit yoki qarz kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir- birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

Xalqaro savdo nazariyasi- iqtisodiy nazariyaning bir qismi. Ishlab chiqarish tva ayirboshlashga xalqaro ixtisoslashuv sabablarin, amda bundan mamlakatlar oladigan manfaatlarni o'rganadi.

Xarid qobiliyati pariteti – valyutalar almashinuv kurslarining shunday darajasiki, bunda har bir valyutaning xarid qobiliyati tenglashadi.

Eksport – tovarlar, xizmatlari va kapitalni mamlakat tashqarisiga sotish; mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun boshqa mamlakatlar jismoniy shaxslari, firmalari va hukumatlarining qilgan xarajatlari..

Emissiya – yangi pullar yoki qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish. Pul emissiyasi davlat (Markaziy bank) tomonidan amalga oshiriladi.

YAlpi ichki mahsulot – ma'lum vaqt davomida mazkur mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy mahsulotlarning bozor baholari yig'indisi.

YAIM darajalaridagi farqlar (GNP gap) – potensial va real YAIMning darajalari orasidagi farqlar.

YAlpi milliy daromad – Mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarishda ishtirok etish natijasida hamda mulklaridan olgan boshlag'ich daromadlari

yig'indisi.

YAlpi taklif – mamlakatda, ma'lum vaqt davomida, tadirkorlik sektori va davlat tomonidan ishlab chiqarilgan, va baholarning turli darajasida taklif qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmi.

YAlpi talab – uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va xorijliklar tomonidan mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni baholarning turli darajasida sotib olishga qilingan xarajatlarning umumiy yig'indisi.

O'zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate) – ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

Qayd etilgan valyuta kursi (fixed exchange rate) – Markaziy bank tomonidan valyuta intervensiyasi yordamida ta'minlab turiladigan valyuta kursi.

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

Maxsus adabiyotlar

1. Choriev Q.A. Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar joriy qilish tizimini shakllantirish va rag'batlantirish istiqbollari (uslubiy tavsiyalar). - Toshkent, 2014. - 30 b.
2. Umarov S.R. Suv xo'jaligini innovatsion rivojlantirish yo'llari. - Monografiya. - T.: Fan va texnologiyalar, 2017. - 177 b.
3. Umurzoqov O'.P., Abdurahimov I.L. Suv xo'jaligi menejmenti. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. - II-jild. – 469 b.
4. Abdug`aniev A., Abdug`aniev A. A. - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2011. -244 bet.
5. Umurzaqov O'., Toshboyev A., Toshboyev A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. – Toshkent, 2008.
6. Umurzoqov O'.P. va boshqalar. Suv xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2008.
7. Dean, D. And Zwillenberg, P., (2012). The Internet Economy in the G-20.bcg.perspectives.
8. The New Digital Economy. How it will transform business. Oxford economics.(pp.1-7).
9. Soumitra Dutta, Irene Mia. (2011). The Global Information Technology Report 2010–2011. (pp. 331-391). Geneva: World Economic Forum.
10. John Quiggin. National accounting and the digital economy. Economic Analysis and Policy. Volume 44, Issue 2, July 2014, Pages 136-142
11. Chihiro Watanabeab, KashifNaveeda Yuji Touc , Pekka Neittaanmäkia . Measuring GDP in the digital economy: Increasing dependence on uncaptured GDP. Technological Forecasting and Social Change, Volume 137, December 2018, Pages 226-240.

Internet resurslar

1. www.cummins.com
2. www.cumminsengines.com
3. www.perkins.com
4. www.cnh.com
5. www.claas.com
6. <https://blamper.ru/auto/wiki/dvigatel/akkumulyatornaya-sistema-neposredstvennogo-vpryska-common-rail-3540>
7. [https://books.google.co.uz/books/about/Farm Power and Machinery Management Tent.html?id=12qU2EqIjC&redir_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Farm_Power_and_Machinery_Management_Tent.html?id=12qU2EqIjC&redir_esc=y)
8. <https://books.google.co.uz/books?id=G1VGAAAYAAJ&q=off+road+vehicles+engineering+principles&dq=off+road+vehicles+engineering+principles&hl=ru&sa=X&ved=0ahUKEwjZu9C2pKfMAhWmNpoKHUeID0cQ6AEIGjAA>

Тошкент ирригация ва кишлок хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти "Иқтисодиёт" кафедраси доценти У.Сангирова ҳамда кафедра ассистенти (PhD) Ж.Намозовлар томонидан институт ҳузуридаги педагог кадрларни кайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази "Қишлоқ ва сув хўжалиги иқтисодиёти" модули бўйича тайёрланган ўқув услубий мажмуага

ТАҚРИЗ

Ўзбекистан Республикаси Президентининг «Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида» 2019 йил 27 августдаги ПФ-5789-сон Фармонига асосан 2019 йилнинг октябридан олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизими амалиётга жорий этилди.

Буларга асосан, олий таълим муассасалари педагог кадрлари кайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курслари ташкил қилиниб, уларнинг максоди, педагог кадрларнинг ўқув-тарбиявий жараёнларни юксак илмий-методик даражада таъминлашлари учун зарур бўладиган касбий билим, кўникма ва малакаларини мунтазам янгилаш, малака талаблари, ўқув режа ва дастурлари асосида уларнинг касбий компетентлиги ва педагогик маҳоратини доимий ривожланишини таъминлашдан иборат.

Тошкент ирригация ва кишлок хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти ҳузуридаги педагог кадрларни кайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази "Қишлоқ ва сув хўжалиги иқтисодиёти" модули бўйича ЎУМ нинг вазифаси тингловчиларга кишлок ва сув хўжалигини ташкил этиш ва бошқаришнинг замонавий усулларини, менежерлар қобилияти ва истеъдодини ривожлантириш йўлларини ўргатишдан иборат.

"Қишлоқ ва сув хўжалиги иқтисодиёти" модулининг максоди иқтисодиётни модернизациялаш шароитида педагог кадрларга кишлок ва сув хўжалиги тармоқларидан фойдаланишни оқилона ташкил этиш ва бошқаришни, ташкилий тузилмаларни такомиллаштиришни, қарорлар қабул қилиш технологиясини, бошқариш усулларидан вазиятга қараб фойдаланишни билишга қаратилган.

"Қишлоқ ва сув хўжалиги иқтисодиёти" курсида тингловчи кишлок ва сув хўжалиги ташкилотида инсон ресурсларини бошқариш, ташкилий маданият, етакчилик (лидерлик) ва бошқарув услубларини танлаш; кишлок ва сув хўжалиги

ташкilotида ўзгаришларни тушуниши ва ўзгариш концепциясини қўллаш; сув хўжалиги корхоналари бошқарув фаолиятини таҳлил қилиш ва бошқарув қарорларини қабул қилишда иқтисодий самарадорликка эришиш каби кўникма ва малакаларини эгаллаши зарур.

Умуман олганда ТИҚХММИ хузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш маркази "Қишлоқ ва сув хўжалиги иқтисодиёти" модули бўйича ЎУМ, унга қўйилган талабларга тўлиқ жавоб беради.

"Иқтисодиёт" кафедраси мудир, и.ф.д., доц.



Б.Султонов